

RAVSHANOY TURSUNOVA

# JAHON MUSIQA TARIXI



ISBN 978-9910-9099-3-1



9 789910 909931

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

**RAVSHANOY TURSUNOVA**

# **JAHON MUSIQA TARIXI**

60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik) va barcha ta’lim  
yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan

**«O‘zbekiston davlat konservatoriyasi»  
Toshkent – 2024**

**781(100) (075.8)**

**T 91**

**85.31(0) ya 73**

**T 91**

**UO‘K 781 (100) (075.8)**

**KBK 85.31 (0) ya 73**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

***Taqrizchilar:***

G.Tursunova – san’atshunoslik fanlari nomzodi, O‘zDK “Musiqqa tarixi va tanqidi” kafedrasida dotsenti.

R.Abdullayev – O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi raisi, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, kompozitor, professor.

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘rta va Oliy musiqqa maskanlarining o‘quvchi va talabalariga mo‘ljallanib, “Jahon musiqqa tarixi”, “Musiqqa adabiyoti” fanlari kesimida o‘tilajak, romantizm yo‘nalishining uslubiy qirralarini shakllanishiga poydevor bo‘lgan XIX asr birinchi yarmi Fransiya musiqqa madaniyati sahifalariga bag‘ishlanadi. Ushbu tarixiy davrning muhim ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotining tavsifi bilan bir qatorda, asosiy musiqiy yo‘nalish va oqimlari, G.Berlioz, J.Meyerber, A.Adan kabi mashhur kompozitorlarning faoliyati bilan tanish imkonini beradi.

Данное учебное пособие предназначено для учащихся и студентов средних и Высших музыкальных учебных заведений и освещает страницы Французской музыкальной культуры первой половины XIX века, а также стилевые особенности эпохи романтизма в курсе «История мировой музыки» и «Музыкальная литература». Помимо раскрытия важной общественной, политической и культурной жизни этого периода, пособие даёт возможность познакомить читателей с основными музыкальными веяниями, направлениями данной эпохи и деятельностью таких известных композиторов как Г.Берлиоз, Дж.Мейербер, А.Адан.

This textbook is intended for pupils and students of secondary and higher musical educational institutions and covers the pages of French musical culture of the first half of the 19th century, as well as the stylistic features of the Romantic era in the course “History of World Music” and “Musical Literature”. In addition to revealing the important social, political and cultural life of this period, the manual makes it possible to acquaint readers with the main musical trends, trends of this era and the activities of such famous composers as G. Berlioz, J. Meyerbeer, A. Adam.

**ISBN 978-9910-9099-3-1 © RAVSHANOY TURSUNOVA**

## KIRISH

XIX asr Yangi davrni yakunlab butun Yevropa bo'ylab kapitalizmning o'rnatilishini tasdiqladi. «Temir va bug'» davri deb e'lon qilingan bu tarixiy bosqich, sanoat inqilobi ta'sirida ijtimoiy jarayonlarni jadallanishiga olib keldi va bu borada badiiy madaniyat rivojiga ham zamin yaratdi.

Bu davr XVIII asrdan to Birinchi Jahon urishining boshlanishi davriga qadar (1914 yil, avgust) davom etdi. Mazkur muddat ichida Yevropada uchta muhim tarixiy voqealar ro'y berdi – Fransuz inqilobi, Shimoliy Amerika mustamlakalarida mustaqillik uchun olib borilgan urishlar va zamonaviy iqtisod to'ntaruviga sabab bo'lgan Angliyaning sanoat inqilobi.

Yevropa millati va ularning madaniyatlarini oyoqqa turish, tiklanish jarayoni ham baholi qudrat yakun topdi. Har bir madaniyatning o'ziga xos tavsifi insonlarni birlashtiruvchi, uning millatini belgilovchi va ma'naviy asosiga poydevor bo'lgan kuchga aylanadi. O'z navbatida, har bir millat madaniyatning rivoji va ma'naviy salohiyatini ortishiga kerakli shart-sharoitlar ta'minlab berdi.

Ushbu davr madaniyatining asosiy intilishlari insonning dunyodagi o'rni va vazifalarini anglash, o'zgalarga ta'sirini belgilash, adolat o'lchovini aniqlab inson hayotiga loyiq mezonlarni topish bilan bog'liq bo'ldi. Bu savollarga javob izlash natijasida XIX asr madaniyati yakunlangan va tarkibiy aniq ko'rinishga ega bo'ldi. Intellektual izlanishlar markazida inson, uning ma'naviyati, qurshab turgan tabiat manzaralari, jamiyatni rivojlantirish qonunlari va uni takomillashtirish usullari yotadi. Bunday qiziqishlarning xilma-xilligi dunyoga ushbu davrning belgilarini o'z asarlarida mohirona ochib berishga muvaffaq bo'lgan ko'plab ijodkor daholarni taqdim etdi. Bu borada taniqli Yevropa kompozitorlarining birgina ro'yxati bir necha sahifalarni tashkil etishi mumkin: A.Adan, L. van Betxoven, V.Bellini, G.Berlioz, J.Bize, R.Vagner, K.M.Veber, G.Verdi, G.Donitsetti, L.Delib, C.Debyussi, E.Lalo, R.Leonkavallo, F.List, P.Maskanni, J.Meyerber, J.Massne, J.Puchchini, J.Rossini, M.Ravel, S.Frank, G.Fore, R.Shubert, R.Shuman, J.Shtraus-ota, R.Shtraus, F.Shopen.

XIX asr musiqa san'atining jug'rofiy xaritasi kengayib, Italiya, Avstriya, Fransiya kompozitorlari qatorida venger ijodkori, mohir pianist sozanda, fortepiano sohasida yangi yo'nalish asoschisiga aylangan Ferens List (1811-1886) nomi alohida o'rin egallaydi. F.List fenomeni musiqiy estetikaning mazmun-mohiyatini boyitib, kengaytirdi. Bu davrda boshqa san'atlardan farqli o'laroq musiqada ijro va talqin kabi tushunchalarning o'rni va ahamiyati alohida qayd etildi. Muayyan sharoitlarda ijrochi-sozanda kompozitorning hammuallifiga aylanishini taqozo etadi.

XIX asr san'atida Polsha musiqasi dovrug'ini jahonga tanitgan kompozitor va yorqin pianist-sozanda Friderik Shopen (1810-1849) nomi munosib o'rin egallaydi. Bugungi kunda ham ijodkor bisotidan o'rin olgan ko'plab asarlari sevilib ijro etilib kelinmoqda. Kompozitorning skerso, prelyudiyalari va etyudlari o'zining asl, birlamchi janr vazifalaridan yuqori ko'tarilib mustaqil tugallangan badiiy asarlarga aylandi.

Yevropadagi asosiy musiqa markazlarining mavqeyi – Italiya, Fransiya va Avstriya poytaxtlari ortidan saqlanib qoldi. U yerda hukmron surgan musiqiy yo'nalishlar turfaligi va ba'zida bir-biriga qarama-qarshi ko'rinishda rivoj topishi ushbu davrning musiqiy hayotini nafaqat rang-barang, balki keskin taranglik tusini ta'minlab bergan.

Shuni qayd etish lozimki bu davrda musiqa, adabiyot va plastik san'atlarining taraqqiyotidan orqada qolib ketgan edi. Asrning dastlabki o'ttiz yili mobaynida Parijda yangi nasriy durdonalar bilan boyitilgan yozuvchi V.Gyugoning asarlari va rassom E.Delakruaning tasviriy kartinalari jamiyatda jo'shqin bahslarni keltirib chiqargan bo'lsa, musiqiy hayot ufqlari tinch, nisbatan sokin, yangilik va kurash g'oyalardan yiroq edi. Xususan, musiqiy teatr ixlosmandlari tenor yoki soprano ovoz ijrosini tinglash uchun operaga tez ora borib, asardagi oson bo'lgan kuylarni yodlab olishga qiziqqan. O'nlab yillar oldin yozilgan va eski musiqiy tizimga asoslangan operalar ularning olqishiga sazovor bo'lgan. Bu borada ayrim yosh kompozitorlarning ijodiy izlanishlari san'atdagi an'ana tarafdorlari tomonidan keskin tanqidiga uchragan. Estetika nuqtai nazaridan qiziq bir hodisa yuzaga keladi: musiqiy hayot aksi muhim musiqiy asarlar yaratilishi tarixiga munosib kelmaydi.

Bunday tafovut misolini G.Berliozning «Fantastik simfoniya» asarida qo'rib chiqish mumkin. Simfoniya o'z vaqtida musiqa shinavandalarining e'tiborga tushmadi, musiqa tanqidchilari ham ijodkorning daholigini aniqla olmadi. Spektakllarda Balzak va Stendal qahramonlari, Meyerber va Rossinining ba'zi musiqiy ijro parchalari va ariyalaridan hayratlanib lol qolgan tomoshabin, afsus, G.Berlioz kabi ijodkorning o'ziga xoslik qirrasini va asarlarining chuqurligini o'z vaqtida angla olmadilar. Romantizm g'oyalariga yo'naltirilgan ushbu yosh avlodga haqiqiy o'ziga xoslikni kashf qilish uchun zarur bo'lgan bilim va tarbiya yetishmagan. Jamiyatdagi bunday vaziyat Jan-Jak Russoning (1712-1778) tanqidiy qarashlari ta'siri ortida shakllangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Russo kuy mavqeyini simfoniya, Pergolezi asarlarini Ramodan ustun qo'yganidan ko'rish mumkin.

XIX asrda keskin tus olgan fransuz va italyan musiqasi o'rtasidagi bahs tugamadi. Uning yangi bosqichi 1861 yilda Parij operasi sahnasida R.Vagnerning «Tangeyzer» asari namoyish bilan boshlandi. Kompozitor she'riyat va musiqa sinteziga asoslangan o'zining lirik drama konsepsiyasini tasdiqladi. Uning ijodiy

tajribasi kelgusida musiqa va uning badiiy tilini turli milliy musiqa maktablari an'analariga bo'ysunishiga olib keldi<sup>1</sup>.

Fransiyada XIX asrga kelib uchta musiqa yo'nalishi, uchta mustaqil musiqa maktabi tashkil etilishi bilan e'tiborli. Ulardan birinchisiga zamonaviy orkestr yaratuvchisi G.Berlioz boshchilik qilgan bo'lsa, ikkinchisiga garmoniya tizimining butkul islohotchisiga aylangan Sezar Frank (1822-1890), uchinchisiga esa garmoniya tizimida qadimgi yunon va grigorian ladlarini ishlatgan Gabriyel Fore (1845-1924) rahbarlik qilganlar.

Italiya opera va musiqa an'analari Juzeppe Verdi (1813-1901) tomonidan davom ettirilib, qo'llab-quvvatlandi. Uning ijodida, milliy ohanglariga yaqin turgan leytmotiv va ariyalardan keng o'rin oldi. Uning musiqadagi opponenti «Nibelunglar uzugi» tetralogiyasining muallifi R.Vagner bo'lib ko'plab opera shakllarini, shu jumladan ariyalarni o'z ijodida rad etgan.

XIX asr – operaning musiqiy shakliy asosini takomillashuvi, uning matn bilan uzviy bog'liqligida rivoj topishi, musiqiy asarlar talqini, ijrochilik va dirijyorlik mahoratining kuchayishi bilan bog'liq bo'lgan davrga aylandi. Musiqa san'atining o'ziga xosligi, ideal tavsifiga qaramay, bu davrda kasbiy muammolari doirasida keskin bahs-munozara sharoitida kechdi.

---

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Коган Л.Н. Всестороннее развитие личности и культура. – М.: Знание, 2006.

## I BOB

### XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA FRANSIYA MADANIYATINING UMUMIY TAVSIFI

#### **Adabiyot, teatr va tasviriy san'atlar rivoji va o'ziga xosligi.**

Romantizm (frans. romantisme, angl. romanticism, nem. romantik) – XVIII asr oxirida Yevropada paydo bo'lgan badiiy va intellektual oqimdir. Yevropaning aksariyat davlatlarida u 1800 yildan 1850 yilgacha cho'qqisiga chiqdi. Romantizm qisman sanoat inqilobiga, ma'rifatparvarlik mafkurasiga, ayniqsa, tabiatni ilmiy ratsionallashtirishga nisbatan o'zga munosabatni ifodaladi. Romantik tafakkur sezilarli ravishda siyosatga ta'sir ko'rsatdi. U adabiyot, musiqa va tasviriy san'atda yorqin namoyon bo'ldi. Tarixshunoslik, ta'lim, shaxmat, ijtimoiy va tabiiy fanlarni ham chetlab o'tmadi. Romantik ijodkorlar hissiyot va individualizmga urg'u berish, o'tmish va tabiatni ulug'lash, klassiklarga qaraganda o'rta asrlarni afzal ko'rish bilan ajralib turadi.

Romantizmning falsafiy asosini «russoizm» tashkil etdi. Unga ko'ra olam boshida tabiat, inson va uning hissiyotlar olami turgan bo'lsa, zamon va sivilizatsiyaga nisbatan tanqidiy qarash shakllangan. Barcha g'oyalar J.-J.Russo qarashlarida o'rin olib romantiklarga hamohang edi. Faylasufning «Ibodot» (1766-1769) asari Fransiyada psixologik roman janri shakl topishiga asos bo'ldi. Uning «Ilm va san'at haqidagi fikr-mulohazalar»i asarida (1750) ilk bor ijtimoiy falsafaning bosh g'oyasi shakllantirilib, inson tabiati va zamonaviy jamiyat o'rtasidagi ziddiyat ochib berilgan.

Fransuz romantizmi dastlab estetika va tanqid sohalarida paydo bo'lib, so'ng adabiyot, nasr va dramaturgiyada rivoj topishi bilan belgilanadi. Fransuz romantizmining davriyligi bu borada qo'ydagi bosqichlarni qamrab oladi:

I. 1795-1815 yillar. Ikki badiiy maktabning paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liq dastlabki davr: F.R. de Shatobrian va J. de Stal.

Fransua Rene de Shatobrian aql-idrokning ma'rifatli e'tiqodiga xristian imoni va tuyg'usiga sig'inishni qarama-qarshi qo'yadi. Ushbu maktabning estetik manifesti uning «Masihiylar dahosi» (1802) risolasida aks etilgan. Fransiyada romantizm nazariyasining asoschisi baronessa Anna-Luiz Jerman de Stal asarlarida ongga sig'inish, milliy rang-baranglikka ega insonning individual tuyg'usi bilan taqqoslanadi.

II. 1815-1827 yillar. Fransiyada romantizmning keng tarqalishi davri. Romantik she'riyat (A. de Lamartin), tarixiy roman (V.Gyugo), romantik drama (V.Gyugo, P.Merime), romantik yo'nalishdagi jurnallar («Adabiy konservator», «Globus») paydo bo'lishi va birnecha parallel oqimlar: lirik-falsafiy (Lamartin),

tarixiy-tasviriy (Gyugo), g‘azablangan romantizm – sirlar va dahshatlar poetikasini (SH.Nodye) shakllanishi bilan belgilanadi.

III. 1827-1843 yillar. Romantizmni gullash davri. J.Sand va A. de Myusse adabiyotga kirib kelishi. Romantizmning psixologik yo‘nalishi shakllanishi, shu bilan birga realistik estetikaning jadal rivoji bilan tavsiflanadi: O. de Balzak, Stendal, P.Merime.

IV. 1843-1848 yillar. Romantizmni inqirozi va batamom yo‘q bo‘lib ketish davri: A.Dyuma (ota), E.SY. 1848 yildan keyin romantik adabiyotga qiziqish yo‘qoladi.

\*\*\*

**Adabiyot.** XVIII asr oxiri va Buyuk burjua Inqilobi yillarida fransuz adabiyotining rivoji «inqilobiy klassitsizm» belgisi bilan kechdi. Notiqlarning nutq uslubi va qurultoy farmonlari, ulug‘vor milliy bayramlar, oda, difiramb va madhiyalarni yaratgan shoirlarning ijodiyoti – antik davr ruhiyatiga taqlidan namoyon bo‘lgan. Qadimgi san‘atning qat‘iy shakllari kesimida burjua inqilobi namoyandalarini ilhomlantirgan fuqarolik va vatanparvarlik g‘oyalar ifodalandi.

Inqilob davrining mashhur shoirlari qatorida Ekushar Lebren (1729-1807) odalari Pindar <sup>2</sup> ruhida yozilgan bo‘lib fransuz xalqining feodallarga, yot despotizmga qarshi kurashini gavdalaydi. Mari Jozef Shenye (1764-1811) mazkur davraning yana bir shoiri, bayramlarda ijro etilgan madhiyalar va inqilobiy vatanparvarlik mazmunidagi fojialar muallifi edi. Uning ukasi, Andre Shenye (1762-1794) eng yorqin fransuz lirik asarlar sohibi sifatida tanilgan. Yakobinlarning qat‘iy klassitsizmidan farqli o‘laroq, Andre Shenye qadimiy san‘atda nafaqat himmat va erkinlik timsolini, balki, hissiy dunyoviy tamoyilning g‘alabasini ham ko‘radi. Muallif o‘zining eklog va elegiyalarida dunyoviy ishq quvonchlari va hayotdan zavqlanib yashashni ulug‘laydi.


Inqilobiy dramaturgiyaning birinchi qaldirg‘ochi sifatida Mari Jozef Shenyening «Karl IX, yoxud, Qirollar uchun saboq» (1789) pyesasi bo‘ldi. Shundan so‘ng, sahna yuzini ko‘rgan asarlar respublikachilar va vatanparvarlarni ulug‘lovchi, podshohlar va zodagonlar, diniy aqidaparastlik va jaholatni tanqid qiluvchi spektakllar paydo bo‘ladi. Ayrim pyesalar allegorik tavsifga ham ega bo‘lgan (masalan, Pyer Silven Mareshalning «Aql bayrami» (1793), Jan Giyom Kyuvelyening «Oliy borliq bayrami» (1794) shular jumlasidan).

Fransuz romantik adabiyotining dastlabki rivojlov pallasida markaziy o‘rin siyosatchi va diplomat, konservatizm tarafdori bo‘lgan yozuvchi Fransua Rene de Shatobrian (1768-1848) muhim o‘rin egalladi. Yozuvchi inqilob yillarida Fransiya

---

<sup>2</sup> Pindar – Qadimgi Yunonistonning eng yirik lirik shoirlaridan biri. U ellinistik Iskandariya olimlari tomonidan “To‘qqizta lirik” kanonik ro‘yxatiga kiritilgan.

Respublikasiga qarshi urishlar qatnashchisi, qayta tiklanish yillarida esa reaksiyon siyosatchiga aylangan. Muallif yaratgan asarlar ma'rifatparvarlik va inqilob g'oyalari bilan bahs-munozarada turadi. Uning «Masihiylar dahosi» (1802) nomli risolasida «din go'zalligi» ulug'lanib, katolitsizm – dinlarning eng nafis ko'rinishi sifatida san'atning asosi va mazmuni-mohiyatiga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Muallif bu risola tarkibiga ikkita qissa – «Atala» va «Rene»ni qo'shib, unda buyuk fransuz ma'rifatparvari J.-J.Russo g'oyalari bilan bahs munozara yuritadi. Shatobrian fikricha, inson tabiat bag'rida najot topa olmaydi, chunki u o'z illatlari va ehtirolari qurboniga aylanadi. Najot faqat dinda, oddiy e'tiqodga murojaat qilishdadir – deb hisoblagan muallif.




*Fransua Rene de Shatobrian  
(1768-1848)*

Shatobriandan farqli o'laroq, baronessa Anna-Luiz Jermen de Stal (1766-1817) liberal g'oyalar tarafdori bo'lib, bir necha yillarga uni Fransiyadan chiqarib yuborgan imperator va sarkarda Napoleon Bonapartga qarshi kurash olib borgan ayol yozuvchi edi. U romantizm tamoyillarini mustahkamlash uchun o'z ulushini qo'shdi. Uning «Adabiyot haqida» (1800) deb nomlangan kitobida adabiyot va xalqning ijtimoiy hayoti uzviy bog'liqligi g'oyasini olg'a surdi. Yozuvchi «Delfina» (1802) va «Korinna» (1807) romanlarida ayol his-tuyg'ularining erkinligi huquqini himoya qiladi. Asarlarida inson shaxsiyati jamiyatning burjua qatlami bilan to'qnashuvi orqali ochib berildi.

Shatobrian boshlab bergan yo'l Alfred de Vini (1797-1863) tomonidan davom ettirilib, uning she'rlari va dramalarida, shuningdek, kardinal Rishelyega qarshi uyushtirilgan zodagonlar fitnasini tasvirlashga bag'ishlangan «Sen-Mar» (1826) tarixiy romanida namoyon bo'ldi. A.Vini asarlarining markazida olomni mensimaydigan mag'rur va yolg'iz odam gavdalanadi. Lirik shoir Alfons de Lamartin (1790-1869) ham o'z ijodini Shatobrian ta'siri ostida boshlagan. Uning «She'riy mulohazalar» (1820) va «Yangi she'riy mulohazalar» (1823) nomli nasriy to'plamlari real dunyo olamidani yiroqlashgan melankolik elegiyalarni tashkil qiladi.

XIX asr fransuz romantizmida Alfred de Myusse (1810-1857) nomi alohida o'rin tutadi. U o'zining «Ispan va italyan ertaklari» nomli birinchi she'riy kitobida ishqiy mavzularni istehzoli, go'yo ularni kamsitib, masxara tarzida bayon qiladi.

Viktor Gyugo (1802-1885) o'z ijodida taraqqiyotning murakkab yo'lini bosib o'tdi. Yosh Viktor adabiyotda «Odalar va boshqa she'rlar» (1822) to'plami bilan o'zini namoyon qilib, Burbonlarning zambaklari va katolik taqvodorlik g'oyalarni ilgari suradi. Biroq, tez orada bu mavzulardan voz kechib, 20 yillarning o'rtalaridan boshlab liberal demokratik ideallar tarafdoriga aylanadi. V.Gyugo o'zining «Kromvel» (1827) pyesasining so'zboshida yangi, romantik dramaturgiya tamoyillarini shakllantirdi<sup>3</sup>.



*Viktor Gyugo*  
(1802-1885)

U «uch birlik»<sup>4</sup> qoidalarini rad etadi, klassitsizmga xos bo'lgan janrlarning qat'iy chegaralanishiga qarshi chiqadi. U Shekspirni «teatr xudosi» deb e'lon qiladi. V.Gyugo erkinlik va tabiiylikni, mahalliy o'ziga xos koloritiga amal qilishni, tragik va hajviy uyg'unlikni talab qiladi. V.Gyugoning manifesti adabiyotni klassitsizm qoidalarini cheklovidan ozod qilishda muhim rol o'ynadi; shu bilan birga, yozuvchi klassitsizm qoidalarini yangi, romantik qoidalariga almashtiradi. U groteskga katta e'tibor berib, badiiy ifodaviylikning universal vositasiga aylantiradi. Dramalar voqeasi o'rta asrlarda sodir bo'lib, ajoyib sahnalar va hayratlanarli vaziyatlarga boy. Xususan, 1831 yilda yozilgan «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» V.Gyugo

romanida ibodatxona timsolida feodal o'rta asrning zulmatli ko'rinishi va mutaassib hukmronligini mujassam etilgan. Biroq, ibodatxona xalq ijodiyoti tomonidan yaratilgan muhtasham san'at yodgorligi sifatida yozuvchini o'ziga rom etadi. Romanda tasvirlangan hayot ijtimoiy qarama-qarshiliklarga boy. Muallif xalq tomonida. San'atining an'anaviy usullariga tayangan holda u ezilgan ommani xunuk Kvazimodo va sentimental ruhda ideallashtirilgan Esmeralda timsollarida ifodalab beradi.

1830 yildagi inqilobni ishtiyoq bilan kutib olgan V.Gyugo, uzoq vaqt davomida Iyul monarxiyasi haqida xayoliy fikrlar bilan yurdi. 1848 yilgi inqilobdan

<sup>3</sup> Bu haqda qarang: Гиленсон Б. История зарубежной литературы эпохи Романтизма (первая треть XIX века): учебник и практикум для вузов – М.: Издательство Юрайт, 2023.

<sup>4</sup> Klassitsizm asarlari uchta birlik tamoyiliga asoslanadi: joy, vaqt va harakat. Asarning voqealari bir kunda (1-vaqt birligi), bir joyda (2-joy birligi) mos kelishi lozim. Hikoya chizig'i faqat yagona muammoga bag'ishlangan bo'lib, uning yechimi butun voqealari rivojiga yuklanadi (3-harakat birligi).

so'nggina V.Gyugo respublikachiga aylandi. Yozuvchi liberal illyuziyalardan butunlay qutula olmaganiga qaramay, uning qarashlari asosini demokratik omillar tashkil etdi.

U Fransiyada hokimiyatni qo'lga kiritgan Lui Bonapartning jinoiy say-harakatlariga qat'iy qarshi chiqadi. Uning «Jinoyat tarixi» kitobi bilan «Kichik Napoleon» (1852) pamfleti reaksiyaga qarshi kurashda o'z rolini o'ynagan muhim asarlarga aylandi.

XIX asr fransuz adabiyotining yirik vakili bo'lgan V.Gyugo hayotini o'n to'qqiz yilini surgunda o'tkazdi. Bu davrda u reaksiyaga qarshi faol siyosiy kurashchi sifatida maydonga chiqadi: u quldorlik tizimiga va qullarni ozodligi uchun kurashgan Jon Braunni o'lim jazosidan qutqarishga harakat qiladi, Angliya va Fransiyaning agressiv siyosatiga norozilik bildiradi, Gersening «Qo'ng'iroq» nomli birinchi inqilobiy gazetasi sahifalarida Polsha mustaqilligini himoya qiladi. Muhojirlik yillari yozuvchi uchun ijodiy yuksalish davri bo'ldi. 1853 yilda u «Qasos» she'riy to'plamini nashr ettirib, unda demokratik davlatlarga xiyonat qilgan burjuaziyani, reaksiyon ruhoniylarni, sinfiy sudni va o'z-o'zini zo'rlagan Napoleon III ni ayanchli qoraladi. V.Gyugo o'z asarlarida chuqur hamdardlik bilan xalq haqida gapiradi, uning kuchi va kelajagiga chin dildan ishonadi. Surgun davrida V.Gyugo «Xo'rlanganlar», «Dengiz zahmatkashlari», «Kulayotgan odam» romanlarini yozadi.

XIX asrning eng o'tkir ijtimoiy muammolariga bag'ishlangan «Xo'rlanganlar» (1862) romani shular orasida alohida ahamiyatga ega. Savodsiz dehqon Jan Valjan, arzimagan ish evaziga og'ir mehnatga mahkum bo'lgani, fohishaga aylangan yosh Fantina taqdiri romanda yoritilib ijtimoiy adolatsizlik, burjua jamiyati illatlarining qurbonlari sifatida ko'rsatadi. Shu bilan birga yozuvchi insoniylik va rahm-shafqat ta'sirida odamni axloqiy qayta tug'ilishiga ishonadi. Jan Valjan va Fantinaning hikoyasi keng jamoatchilik fonida ochilgan.

V.Gyugo o'z asarlarida 1832 yilda Parijdagi barrikada janglarini tasvirlaydi. Yozuvchining hamdardligi qo'zg'olonchilar tarafida, u kurashning kuchi va ko'tarinki ruhini yoritadi, isyonchilarning g'ayratli obrazlarini yaratadi, ular orasida parijlik bola Gavrosh ham bor. Gavrosh – xalq inqilobiy ruhining jonli timsoli sifatida maydonga chiqadi.

1870 yilda V.Gyugo Fransiya qaytadi. Qamal qilingan Parijda u xalqni o'z vatanni himoya qilishga chorlaydi. Yozuvchi Parij kommunasining ahamiyatini tushunmadi, lekin u kommunarlarni g'alaba qozongan burjuaziya ta'qibidan jasorat bilan himoya qildi. 1874 yili yozuvchining Fransiya inqilobiga bag'ishlangan «To'qson uchinchi yil» nomli so'nggi romani nashr etildi. Romanda yosh respublikachilarning inqilobga qarshilar bilan kurashi tasvirlangan. Inqilobiy g'oyalarga xayrixoh bo'lgan V.Gyugo haligacha inqilobiy kurashning shiddatligi

va insonparvarlik tuyg‘usi, dahshat va shafqat o‘rtasidagi ziddiyatlarni to‘liq hal qila olmadi, va burjua olamining mayda illyuziyalarining asiri bo‘lib qoladi.

V.Gyugoning ijodiy merosi musiqa san‘atida keng aks etilgan. Uni bisotiga asoslanib turli milliy madaniyat va ijodiy yo‘nalishdagi kompozitor va librettistlar o‘zlarining musiqiy-sahnaviy asarlarini yaratishdi. Yozuvchining «Sevgi qiroli» va «Ernani» pyesalari asosida Djuzeppo Verdining «Rigoletto» (1851) va «Ernani» (1844) operalari; «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani asosida kompozitorlar Luiza Berten (1836), Aleksandr Dargomijskiy (1847), Fabio Kampani (1869) va Artur Goring Tomaslarning (1883) nomdosh «Esmeralda» operasi; «Mariya Tyudor» pyesasi asosida Djovanni Pachinining «Mariya Tyudor, Angliya qirolichasi» (1843), Maykl Balfning «Nantlik qurol ustasi» (1863) operalari; «Anjelo, Padua zolimi» pyesasi asosida Amilkare Ponkiyellining «Djokonda» (1876) va Saverio Merkadantening «Qasam» (1837) nomli operalarning librettolari shular jumlasidan.

V.Gyugo badiiy asarlarining ishqiy ko‘tarinki ruhiyati, yuksak va olovli tuyg‘ulari, rang-barang uslublarini qo‘llanilishi, fransuz madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan venger kompozitori F.Listning musiqiy g‘oyalariga hamnafas edi. Kompozitorning yangi dasturiy janrda yaratgan ikkita simfonik poemasi bevosita V.Gyugoning «Tog‘da nima eshitildi» (1847-1856) va «Mazepa» (1851) badiiy she‘riyati asosida ilhomlanib yozilgan. Ikkinchisi dastlab o‘ziga xos



*Avrora Dyudevan  
(1804-1876)*

qoralama shaklida yaratilgan va yozuvchiga bag‘ishlangan f-no uchun «Mazepa» konsert etyudi (1832-1847) misolida o‘z aksini topdi. Ma‘lumki, F.List fransuz shoiri so‘zlariga bir qator romanslar ham yaratadi. Ular orasida ishqiy lirika gavhari – «Lauraning ruhi kabi» (1842) asari alohida e‘tiborga molik. Shuningdek, V.Gyugo badiiy namunalari asosida XIX asr bir qator fransuz kompozitorlari – G.Berlioz, J.Bize, E.Lalo, S.Frank, G.Fore va boshqalar tomonidan ham ko‘plab romanslar dunyoga keldi. Taniqli fransuz simfonik kompozitori S.Frank yozuvchining syujeti asosida f-no va orkestr uchun «Jinlar» (1884) nomli simfonik poemani yaratadi.

Romantizmdagi demokratik yo‘nalishning ko‘zga ko‘ringan vakillari qatorida yozuvchi Jorj Sand (asl ismi Avrora Dyudevan, 1804-1876) faoliyati, o‘z davrining dolzarb ijtimoiy muammolarni ko‘tarishi bilan e‘tiborga tushdi. Jorj Sandning ilk romanlari – «Indiana», «Valentina», «Leliya», «Jak»da ayollarning oila va jamiyatdagi mavqeyini ko‘rsatilib, burjua axloqiga

qarshi chiqqan g'oyalari ochib berilgan. 1940 yillardagi ijtimoiy kurashning keskinlashuvi yozuvchi ayolni kengroq ijtimoiy muammolarga murojaat qilishga undadi. Endi uning asarlarida xalq ichidan chiqqan odamlar bosh qahramonlarga aylanadi. «Sayohat qilgan shogird», «Anjibolik tegirmonchi», «Janob Antuanning gunohi» romanlari mulkdorlarning xudbinligiga, burjua sivilizatsiyasiga qarshi qaratilgan bo'lib, xalqni azob-uqubatlarini ochib berishga qaratilgan. Sen-simonistlar va xristian sotsialistlariga ergashgan Jorj Sand, asarlarida ijtimoiy qarama-qarshiliklarni yumshatish, sinflarni yarashtirishni targ'ib qiladi.

Jorj Sand ijodining muhim romanlari qatorida 1940 yillarning boshlarida yozilgan «Oras» va «Konsuelo» asarlari e'tiborga molik. «Oras» romanida, birinchi avlod romantiklari nigohida maftunkor bo'lib tuyulgan burjua qatlamining «individualist» timsoli fosh qilinadi. «Konsuelo» romanining mavzusi esa sinfiy jamiyatda san'atning taqdiriga bag'ishlangan. Yozuvchi san'at va xalq o'rtasidagi uzviy bog'liqlik rishtalari mavjudligini ilgari suradi. 1848 yilgi inqilobi Jorj Sand ongida chuqur inqiroz tug'diradi. Sinfiy g'oyalarning yemirilishi yozuvchini asarlarida o'tkir siyosiy masalalarni ko'tarishdan bosh tortishga, shuningdek, ijtimoiy omillarni zaiflashtirishga olib keldi. Uning dehqon hayotidan hikoyalari ishchilar sinfiga chuqur hamdardlik bildirish bilan birga xalqni kamtarligi va itoatkorligini ideallashtiriladi.

XVIII asr oxiridan to XIX asr o'rtalariga qadar Fransiyada bo'lib o'tgan uchta inqilob, jangari siyosiy she'riyatning vataniga aylantirdi. Pyer-Jan de Beranje (1780-1857) salmoqli siyosiy qo'shiqlar yozuvchisiga aylandi<sup>5</sup>. Ma'lumki, Beranje Napoleon monarxiyasi davrida shoir sifatida faoliyat yuritgan. Uning «Qirol Iveto» (1813) qo'shig'ida u qo'shnilar bilan do'stlikda yashagan, xalqiga g'amxo'rlik qilgan mehribon patriarxal podshoh timsolini yaratadi. Bu qo'shiq Napoleonning harbiy sarguzashtlari va uning soliq siyosatiga qarshi qaratilgan bo'lgan. Restavratsiya davrida Beranje haqiqiy shoir – kurashchiga aylandi. U qo'shiqlarda xorijdan qaytgan va eski tartibni tiklashni orzu qilgan zodagonlarni, Fransiyada boshini ko'targan iyezuitlarni masxara qildi. Bu asarlari uchun Beranje ikki marta qamoqqa olingan. 1830 yildagi inqilob shoir hafsalasini so'ndirdi.

Uning qo'shiqlari endi boy va gullab-yashnagan filisterlikka qarshi qaratilgan. Burjuaziyaga keskin tanqidiy munosabat Beranjeda utopik sotsializmga bo'lgan qiziqish uyg'otdi. Beranjening siyosiy qo'shiqlari – quvnoq, jangovar, zukko, demokratiyaga to'yingan, jonli va milliylik bilan ajralib turuvchi – realistik she'riyatning ajoyib namunasi.

---

<sup>5</sup> Беранже П.-Ж. Песни для голоса в сопровождении фортепиано /перевод В.Дмитриева – М.: “Музыка”, 1980г.; Беранже Пьер-Жан. Песни для голоса с фортепиано в обработке Ф.Казадезюса Выпуск 2 /переводы и составление В.Дмитриева – М.: “Музыка”, 1964.

Shoir-qo‘shiqchi Pyer-Jan de Beranje she‘lari XIX-XX asrlar davomida ingliz va rus tillariga tarjima qilinib tanildi. Uning ijtimoiy-tanqidiy, qoraluvchi she‘riyati rus kompozitorlar, jumladan, A.A.Alyabyev («Kulba», «Tilanchi», «Qishloq qorovuli», «Mayxona») va A.S.Dargomijskiy («Qariya kapral», «Qurt»)larning ijodlarida muhim o‘rin egalladi. Bu asarlar rus vokal musiqasida paydo bo‘lgan ijtimoiy-tanqidiy va qoraluvchi omillar rivojiga asos soladi.

XIX asrning 30-40-yillari fransuz adabiyotida realizmning yuksalish davrini belgiladi. Bu pallada burjua demokratiyasi g‘oyalari bilan voqelik, kapitalizm rivojlanishi o‘rtasidagi ziddiyatlar alohida o‘tkir ko‘rinishda ochib berildi. Ommaning qashshoqlanishi, kambag‘al va boylarning o‘rtasidagi qarama-qarshiliklari, ijtimoiy keskinlikni kuchayishi – bularning barchasi burjuaziyaning siyosiy va‘dalari – erkinlik, tenglik va birodarlik haqidagi eng ko‘zga ko‘rinarli karikaturasi edi.



*Anri Beyl*  
(1783-1842)

XIX asrning 30-40-yillari romanida tanqidiy realizmning asosiy ijtimoiy mazmuni qarama-qarshiliklar orqali ochib berildi. Bu davrning buyuk realistlarining peshqadami bo‘lgan Benjamen Konstan (1767-1830), o‘zining «Adolf» (1816) romanida XIX asrning xudbin va hafsalasi pir bo‘lgan, faolsiz yigit ruhiyatini tasvirlab bergan.

Tanqidiy realizmning eng yorqin namoyandalaridan biri Anri Beyl (ijodiy taxallusi Stendal, 1783-1842), XVIII asr materialistlarining izdoshi bo‘lgan. U Gelvetsiyaning<sup>6</sup> insonning ichki dunyosi boyligining manbasini tashkil etuvchi ehtiroslar haqidagi ta‘limotini davom ettiradi. Stendal o‘z asarlarida Tiklanish davri va Iyul monarxiyasining mayda manfaatlaridan ancha uzoq bo‘lgan faol va kuchli ichki xarakterga ega bo‘lgan odamlar oldida ta‘zim qiladi. Bunday qahramonlarni muallif Italiyaning Uyg‘onish davri («Italiya solnomalari») namoyandalari safidan, Shekspir ijodidan, zamonaviy hayotda esa, atrof-muhitning qashshoqligini his qilish va undan nafratini ko‘rsatishga qodir bo‘lgan kuchli tabiatli shaxslar orasidan izlaydi.

O‘zining «Qizil va qora» (1830) romanida muallif qayta tiklanish davri fransuz jamiyati hayotini tasvirlaydi. Asarning bosh qahramoni, Jyulyen Sorel, past tabaqa toifasidan bo‘lib, Napoleon davrining ashaddiy tarafdori sifatida, ushbu davr

<sup>6</sup> Klod Adrian Gelvetsiy (fr. Claude Adrien Helvétius; 31 yanvar, 1715, Parij, Fransiya – 26 dekabr 1771, Parij, Fransiya) – Fransiyalik adib, utilitar yo‘nalishdagi falsafachi-materialist.

siyosati oddiy iste'dodli odamlarga hayotdagi yo'lini topishga imkon berishiga chindan ishongan. Tiklanish davr yillarida bu imkoniyatlar nihoyat kamayadi. Yuksak va sezgir qalbgga ega bo'lgan Jyulyen tashabbussiz ijtimoiy muhitni yengish uchun hamma narsaga tayyor. Biroq qahramon, tanlagan maqsadiga erisha olmaydi. Hukmron sinflar bosh ko'targan isyonchini qoralaydilar. Sud jarayonida ayblanuvchining so'nggi so'zi, unga tuhmat qilgan jamiyatni, sudni fosh qiladi.

Stendalni uchinchi, yakunlangan asari «Parma ibodatxonasi» (1839) romani



*Honoré de Balzac*  
(1799-1850)

bo'ldi. Uning voqealari Italiya knyazligi saroyida bo'lib o'tadi. Ushbu fonda yozuvchi qashshoq atrof-muhitga qarshi turgan yorqin va mustaqil personajlarni yaratadi. Aqlli, iste'dodli, teran hassos insonlarning ayanchli taqdirini ochilishining o'zida, reaksiyon davrning qoralanishi aks etilgan. Roman boshidagi jangovar sahnalar jahon adabiyoti tarixida yangi sahifa ochadi. Urushni Stendal o'zining bema'niligi bilan, nima bo'layotganini tushuna olmaydigan yosh yigitning ko'zlari bilan ko'rsatadi.

Onore de Balzak (1799-1850) ijodi G'arbiy Yevropa tanqidiy realizmi rivojlanishining eng yuqori nuqtasidir. Balzak birinchi fransuz inqilobidan to XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda fransuz jamiyati tarixini yoritish kabi

murakkab vazifani o'z oldiga qo'ydi. Yozuvchi 30-40 yillar davomida yaratgan monumental asar – «Inson komediyasi»<sup>7</sup> nomli romanlar va qissalar turkumi bo'ldi. Turkum Burbon tiklanishi va Iyul monarxiyasi davridagi frantsuz jamiyatini aks ettiruvchi real, fantastik va falsafiy syujetli romanlar va qissalarni o'z ichiga oladi.

«Inson komediyasi» o'z ichiga 140 ta «odob-axloq tasviri»ni kiritishi va bir biri bilan bog'liq 2000ga yaqin qahramonlar taqdirini xiqoyadan-xikoyaga ulab yoritishi lozim edi. Ammo, yozuvchi ko'zlagan maqsadni oxirigacha yetkazolmadi, faqat 91 tasini yozishga ulgurdi.

Balzak, rivojlanayotgan burjua qatlamini kuzatar ekan, iflos ehtiroslar g'alabasi va g'arazgo'y, poraxo'r jamiyatni o'sishi, xudbin kuchlarning buzg'unchi harakatini qoralaydi. Ammo Balzak burjua sivilizatsiyasini romantik inkor qilish pozitsiyasi va patriarxal harakatsizlikka qaytish g'oyasini targ'ib qilmaydi.

---

<sup>7</sup> Uyg'onish davri gumanizmining shakllanishida katta rol o'ynagan Italiyalik shoir, mutafakkir, ilohiyotchi Dantening qalamiga mansub mashhur «Ilohiy komediya» poemasi bilan farqli o'laroq Balzak o'z asarini «Inson komediyasi» deb atagani bejiz emas. Shu orqali Balzak o'z turkumida o'tmish bilan mifologik davomiylikni o'rnatdi.

Aksincha, u burjua jamiyatining rivojini tan olib, kapitalistik gullab-yashnashining buyuk istiqboliga ishonch bildiradi. Shu bois shaxsning ma'naviy tanazzulga olib keluvchi burjua munosabatlarining buzg'unchi kuchini cheklash maqsadida, Balzak o'ziga xos konservativ utopiyani rivojlantiradi. Uning fikricha, faqat qonuniy monarxiyagina xususiy manfaatlarni jilovlay oladi. Bu borada yetakchi o'rin cherkov va aristokratiya egallaydi. Ammo, hayotiy haqiqatni tasvirlagan buyuk realist ijodkor o'z asarlari bilan konservativ utopiyaga bilvosida qarama-qarshi chiqadi. U yaratgan jamiyat manzarasi aslida yozuvchining siyosiy xulosalaridan ancha chuqurroq bo'lgan.


Balzak romanlarida eski patriarxal va oilaviy rishtalarni buzuvchi, xudbin ehtiroslar bo'ronini qo'zg'atuvchi «moddiy qiymat» tamoyilining kuchi tasvirlangan. Bir qator asarlarida Balzak dvoryanlarning g'urur-sha'niga sodiq qolgan («Antikvar muzeyi»dagi markiz Degrinyon yoki «Vasiylik ishi bo'yicha» markiz Despar), ammo, pul bo'ronidan mutlaqo ojiz bo'lgan zodagonlar obrazlarini yaratadi. Ikkinchi tarafdin u yosh zodagonlar avlodini nomussiz, qat'iyatli va bir so'zli bo'lmagan odamlarga aylanishini ko'rsatadi («Gorio ota»sida Rastinyak, «Antikvar muzeyi»da Viktyurnen). Burjuaziya ham asta-sekin o'zgarmoqda. Qadimgi patriarxal ombor savdogari Sezar Biroto o'rnini yangi turdagi vijdotsiz yirtqich va o'g'ri avlod egallaydi. Balzakning «Dehqonlar» romanida yer egalarining mulklaridan ayrilishi oqibatida dehqonlarni qashshoq bo'lib qolishlari, mulk esa yirtqich burjuaziya qo'liga o'tishi tasvirlangan.

Yozuvchi yesh respublikachilarni olqishlar ekan, ularning orasida Mishel Kreten («Yo'qotilgan illyuziyalar») yoki qariya amaki Nizeron («Dehqonlar»)larni fidoyi va olijanob qahramonlar sifatida ko'rsatadi. Kapital hokimiyatining namoyandasi sifatida yoritilgan mashhur Gobsek bilan bir qatorda oliy maqsadga erishish uchun hamma narsasidan ayrilgan, san'at va fan fidokorlariga («Mutlaq izlash», «Noma'lum durdona») hurmat nigohi bilan qaraydi. Balzak o'z qahramonlariga aql, iste'dod, kuchli xarakterni ato etadi. Shu nuqtai nazardan uning asarlari chuqur dramatikdir. Yozuvchi doimiy kurashga botgan burjua dunyosini tasvirlaydi. Uning tavsifida bu – ziddiyatli va uyg'un bo'lmagan, turli to'ntarishlar va falokatlarga to'la dunyodir<sup>8</sup>.

---

<sup>8</sup> Bu haqda qarang: Лифшиц Мих. Художественный метод Бальзака. Собрание сочинений в трех томах. Том II. – М.: "Изобразительное искусство", 1986 – С. 294 - 348.

Bu davrning ko‘zga ko‘ringan realist yozuvchilari qatorida Prosper Merime (1803-1870) nomi alohida o‘rin tutadi. Muallif adabiyot tarixiga birinchi navbatda qisqa hikoya ustasi, ixcham, qat‘iy, nafis novellalar muallifi sifatida kirib keldi. Merime, xuddi Stendal singari, XVIII asrning ma‘rifiy g‘oyalariga yaqin turgan. Uning birinchi buyuk asarlaridan biri «Jakeriya» (1828) xronika pyesasi, XIV asr Fransiya dehqonlari harakati tarixiy sahifasini tasvirlaydi. Merime o‘zining yagona yirik romani «Karl IX zamonlari solnomasi»da (1829) katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi kurash va Varfolomey kechasi voqealarini ochib beradi. Skeptik va ateist, u ikkala urishayotgan tomonlarga kinoya bilan munosabatda bo‘ladi va fanatik murosasizlikni oshkor qiladi. O‘zining qisqa hikoyalarida romantiklar tomonidan adabiyotga kiritilgan mavzu va obrazlarga murojaat qilgan Merime, ularni real hayotiy talqin qiladi.



*Prosper Merime  
(1803-1870)*

Romantiklar singari, u o‘z asari uchun burjua taraqqiyotidan yiroq bo‘lgan mamlakatlarda kuchli va yorqin personajlarni qidiradi va sodda, yaxlit va kuchli his qila oladigan odamlarni tasvirlaydi. Bular “Karmen” va “Kolomba” novellalarining qahramonlari, korsikalik dehqon Mateo Falkone (xuddi shu nomdagi qissada) va boshqalar.

Ba‘zan Merime shuningdek, fantastik obrazlar dunyosiga (“Venera Ilskaya”) murojaat qilar ekan romantik qahramonlar va romantik vaziyatlarni hushyor, xotirjam ohanglarda tasvirlab, ularni istehzoli sharhlar va real motivatsiya tizimi asosida romantikadan bir muncha yiroq muhitga ko‘chiradi.

Realist yozuvchilar asarlari kelgusida qo‘plab ijodkorlarni ilxomlantirdi. Onore de Balzakni «Yo‘qotilgan illyuziyalar» asari asosida Boris Asafyev (1934) va Leonid Desyatnikov (2011)larning nomdosh baletlari, Prosper Merimening «Karl IX zamonlari solnomasi» romani asosida Jakomo Meyerberni “Gugenotlar”, “Karmen” novellasi asosida Jorj Bizening “Karmen” (1874), "Jakeriya" xronikasi asosida Eduar Laloning “Jakeriya”(1895) operalari dunyoga keldi.

1848-yil iyun barrikada janglari, XIX asr tarixidagi olamshumul voqeadir. G‘arbda burjuaziyaning inqilobiy roli nihoyasiga yetdi va endi ishchilar sinfiga qarshi chiqqan va mavjud tartibni saqlashga qaratilgan kuch sifatida o‘zini namoyon qiladi. Bu o‘z navbatida burjuaziya madaniyatini rivojiga katta ta‘sirini o‘tkazdi.

\*\*\*

**Teatr.** Butun insoniyatning ma'naviy hayoti rivojiga ulkan hissa qo'shgan XIX asr fransuz madaniyati, teatr san'ati o'rni va mavqeyi bilan ajralib turgan. Bu davr taniqli dramaturglar va yirik aktyorlar guruhini dunyoga tanitdi. Fransuz sahnasida teatrning asosiy badiiy yo'nalishlari shakllandi va yuksak kamolotga erishdi. Teatr janrlari, shuningdek, burjua jamiyatiga xos bo'lgan sahna ishini tashkil etishning yangi shakl va usullari rivoj topdi. Raqobat va tadbirkorlik faoliyati teatr hayotini tubdan o'zgartirdi. Fransiyada tadbirkor, antreprenorli tijorat teatrlari aynan Buyuk burjua inqilobining so'nggi yillarida shakl topdi va XIX asr fransuz teatri tarixida muhim rol o'ynadi.

Inqilob teatr faoliyatidagi saroy-byurokratik kabi eski rahbarlik tizimini ishdan chiqarib, gildiya monopoliyalari va qirollik imtiyozlarini yo'q qildi. Bu ma'lum ma'noda professional teatrlar rivojida to'sqin bo'ldi. 1791-yil 13 yanvarda Qonunchilik Assambleyasi tomonidan «Teatrlar erkinligi to'g'risida»gi qaror qabul qilinib, har bir Fransiya fuqarosi tomonidan teatr ochish va unda istalgan janrdagi spektakllarni ijro etish huquqi berildi. Dastlab inqilobiy g'oyalarni rivojlantirishda kuchli omil bo'lgan teatr, tez orada burjua ishbiarmonlari uchun shaxsiy boyitish vositasiga aylandi.

Inqilobning dastlabki yillaridanoq Fransiya teatri dramaturgiyasi va aktyorlik san'atida xalq ommasining qahramonlik va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otuvchi inqilobiy klassitsizmning yangi uslubi shakllandi. Qadimgi Rim va Spartaning buyuk vakillari ruhlarining ko'magida respublika jasoratining yuksak in'ikosi sifatida g'aydalangan. Inqilobiy klassitsizm fojialarini sahnalashtirishdan tashqari, yakobinchilar Diktatura yillarida (1793-1794) inqilob intilishlarini ifodalovchi ommaviy teatrlarni yaratishga birinchi urinishlarni amalga oshirdilar. Ular turli allegorik sahnalar, pantomimalar, oratoriyalar bilan to'ldirilgan yirik xalq sayillari va ommaviy tomoshalar uyushtiradilar. Bu yerda inqilobiy qo'shinlarning g'alabalari kuylanib, inqilob dushmanlari, shaharliklar va opportunistlarni qoralagan hajviyalar sahnalashtirilgan.

Konvensiya va Jamoat xavfsizligi qo'mitasining ko'plab qarorlari xalqning inqilobiy qahramonligini uyg'otadigan teatr yaratishga qaratilgan edi. Ammo fransuz teatri inqilobiy bahori qisqa umr ko'rdi.

Termidor reaksiyasi oilaviy axloqni o'ziga xos ulug'lash bilan filister sentimentalizmini hayotga qaytardi. Davrning asosiy vazifasi ommaning inqilobiy to'lqinlarini jilovlash, ularda yangi, burjua tuzumining idealligiga ishonchni singdirish edi. Bunga ko'ra har qanday kambag'alning omadi chopsa boy bo'lishi mumkin bo'lgan. G'oyalarning o'zgarishi melodrama kabi yangi teatr janrida o'z aksini topdi.

Dastlab, melodrama inqilobiy omma qarashlari bilan sug'orilgan va keskin antiklerikal (Jak Mari Monvelning «Ibodatxona qurbonlari» (1791)), antidespotik

(La Martelning «Robert, qaroqchilar atamani» (1792)) yoʻnalishga qaratilgan. Direktoriya va Konsullik davrida melodrama oʻzining isyonkor mazmunini yoʻqotib ijtimoiy ziddiyatlarni axloqiylarga alishtirgan holda, ayrim shaxslarning vahshiyliklarini tasvirlaydi.

Fransuz melodramasining bunday koʻrinishi Rene-Sharl Gilber de Pikserekur (1773-1844) tomonidan boshlab berilgan (eng yaxshi pyesalari – «Viktor, yoki oʻrmon bolasi» (1798), «Selina, yoki sirli bola» (1800), «Uch kishining odami» (1801)). Uning anʼanalarini oʻz ijodida Lui Sharl Kenye («Oʻgʻri-soʻngʻon» (1815)) va Viktor Dyukanj («Oʻttiz yil yoki Qimorboz hayoti» (1827)) davom ettirdilar. V.Dyukanjning «Oʻttiz yil yoki Qimorboz hayoti» melodramasi fransuz teatri tarixidagi keyingi, romantik davri ochib berilishiga poydevor boʻldi.

Vodevil – XIX asr fransuz teatrining inqilob yillarida tugʻilgan yana bir janri sifatida maydonga keldi. U quvnoq zakovatga toʻla boʻlib, I.Gersen taʼbiri bilan: «fransuz xarakterining muhim va goʻzal elementlaridan birini» oʻzida mujassam etgan. Kelajakda vodevil oʻzining jangovar ruhi va tanqidiy oʻtkiriligini yoʻqotib, sof koʻngilochar janrga aylandi. XIX asrning birinchi yillarida Vodevilda ikki xil oddiy obrazlar oʻrin olgan: sodda Jokriss va ayyor Kade-Russel. Vodevillar Parijda ikkita maxsus teatrda sahnaga qoʻyilgan: «Vodevil» va «Varyete».

Melodrama singari, fransuz vodevili butun Yevropada keng tarqalib yarim asrdan koʻproq vaqt davomida jahon sahnalarida hukmronlik qildi. Fransiyaning



mashhur vodevil aktrisasi Virjini Dejaze (1797-1875) E.Skrib, J.-F.Bayard, F.-F.Dumanuar, V.Sardu kabi dramaturglarning asarlarida oʻzining ijro nafisligi, yengil va nozik talqini bilan eʼtiborga tushib, hajviy dialoglarni olib borishda, vodevil

kupletlarini mahoratli ijrosi bilan ommaviy teatr tomoshabinlari qalbida alohida o‘rin egalladi.

Fransuz teatri tarixidagi yangi bosqich Napoleon imperiyasi davri bilan bog‘liq. «Teatrlar erkinligi to‘g‘risida»gi farmondan keyin Napoleon teatrlar qo‘lga kiritgan huquqlarni cheklab qo‘ydi, sonini qisqartirdi va politsiya nazorati va senzurasiga bo‘ysundirdi. Shu bilan birga u Fransiyaning eng qadimiy teatrlari «La Comédie Française», uchun maxsus yangi nizomlarni yaratib, Fransiya komediya janrini tiklanishiga turtki berdi va shu asosda u hozirgi kungacha faoliyat olib bormoqda.

Vodevil Imperiya davridagi fransuz dramasi klassitsizm qonunlariga amal qilgan, biroq demokratik mafkura, antiklerikal va antimonarxistik xususiyatlardan yiroq bo‘lgan. Renuar, N.Lemerse va boshqa ilg‘or yozuvchilari qalami ostida imperiya davridagi klassitsizm tragediyasi reaksiyon g‘oyalar bilan sug‘orildi, mavhum klassitsizm reaksiyon romantizm elementlari bilan eklektik tarzda uyg‘unlashtiradi.


XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi fransuz teatridagi yorqin aktyorlaridan biri Fransua-Jozef Talma (1763-1826) edi. Talma uzoq ijodiy yo‘lni bosib o‘tdi. U



inqilobiy klassitsizmning eng buyuk aktyori bo‘lib, fuqarolik qahramonlik va vatanparvarlik pafosni o‘z ijodida katta kuch bilan mujassam etgan. Inqilobdan keyingi yillarda esa bu davrga xos konservativ-monarxistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan «Imperiya» klassik teatrining etakchi ijodkoriga aylandi. Talma tinimsiz novator va teatr islohotchisi edi. U Fransiya Shekspirning fojiali qahramonlari

rollarining birinchi yirik talqinchisi bo'ldi. Ijodkor klassik aktyorlik texnikasini isloh qildi: qo'shiq o'qishdan voz kechdi, inqilobiy ma'ruzachilarning intonatsiyalarini sahnaga o'tkazdi, haqiqiy antik kostyumni tasdiqladi, fransuz teatriga portret makiyajini kiritdi va yuz ifodalari va imo-ishoralaridagi harakatlarda sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdi.

Klassitsizmning meyoriy estetikasi va shartli aktyorlik texnikasi bilan hali to'liq rishtalarni uzmagan Talma, fransuz teatrining realizm yo'lida rivojlanishiga poydevor soldi va davr hamda shaxsning ajralmas aloqasini yaqinlashtirishga intildi. Umrining so'nggi yillariga qadar yosh romantiklar (Lamartin, Gyugo) bilan uchrashib, yangi repertuardagi obrazlarni, xususan, Gyugoning «Kromvel» dramasida bosh qahramon obrazini ijro etishni orzu qiladi. Ammo, Talma «Kromvel»ning yozilib tugatilishiga qadar yashamadi. Asarni paydo bo'lishi esa Fransiyadagi teatrdagi progressiv romantizm davrini ochib berishiga asos bo'ldi.



*Fransua-Jozef Talma  
(1763-1826)*

Fransiyada ilg'or romantik teatrning shakllanishiga yirik yozuvchilar – Stal, Stendal, Gyugo, Merime ta'sir o'tkazdilar. Ulardan oxirgi ikkitasi eng yirik dramaturglar edi, barchasi romantik drama poetikasini nazariy asoslarini asoslashga hissa qo'shganlar. Ushbu yozuvchilarning o'ziga xos xususiyati janrlar o'rtasidagi aniq farqlarni rad etish, dramani lirika va epik janrlari bilan birlashtirish istagi, fojiani hajviylik, ulug'vorlikni grotesk bilan aralashtirishda (groteskning romantik dramaning estetik kategoriya sifatidagi ahamiyati birinchi marta Gyugo «Kromvel»dagi so'zboshida ta'kidlangan).

XIX asr Fransiya romantik dramaturglari orasida birinchi o'rinda Viktor Gyugo turadi. Uning «Marion de Lorm», «Ernani», «Qirolning hazillari», «Mariya Tyudor», «Ryui Blaz» kabi dramalarida ilg'or romantizmga xos bo'lgan omillar – ehtirosli insonparvarlik, hukmron sinflarni qoralash, oddiy odamlarga hamdardlik, tarixiy haqiqatga intilish, yuksak shoironalik o'rin olgan. O'z vaqtini taniqli dramaturgi Aleksandr Dyuma (ota) muvaffaqiyatga ochiq intilishi, yuzaki, soxta pozitsiyasi bilan ajralib turgan. Shunga qaramay, uning bir qator pyesalari, xususan, «Antoni» (1831), «Richard Darlington» (1831), «Kin, yoki sayyoh va dahoh» (1836) ijtimoiy tanqid tavsifi bilan ajralib burjua-zodagon jamiyatini qoralashga qaratilgan.

Taniqli fransuz romantik dramalari safidan Alfred de Vinining «Chatterton» (1835) dramasi o‘rin olib, burjua jamiyatida o‘ziga o‘rin topa olmagan shoirning fojiasini aks ettiruvchi psixologik dramani tashkil qiladi.

Juda iste’dodli (lekin kech qadrlangan) romantik dramaturg Alfred de Myusse qalamiga mansub «Mariannaning injiqliklari» (1833), «Muhabbat bilan hazil qilmaydilar» (1834) lirik dramalarini va «Lorenzacho» (1834) tarixiy dramalari ham bu borada e’tiborga molik.

Romantik dramaturglar orasida 30 yillar romantizmning radikal demokratik yo‘nalish asoschisi, mehnat va kapital ziddiyatlarini aks ettiruvchi ijtimoiy melodrama janrining yaratuvchisi Feliks Pia (1810-1889) alohida o‘rin tutgan.

Qayta tiklanish va Iyul monarxiyasi davrida Parijda aktyorlik san’ati yuqori cho‘qqiga ko‘tarildi «Molyer uyi» deb ataladigan «La Comédie Française» teatri buyuk Talma vafotidan so‘ng o‘zini yetakchilik mavqeyini yo‘qotdi. Parij bulvar teatrlarining repertuari bo‘sh ko‘ngilochar spektakllarga to‘lib ketgan bo‘lsada, demokratik g‘oyalar bilan boyitilgan spektakllar ham muntazam sahnalashtirildi. Mazkur teatrlari sahnalarida fransuz teatri romantizmning gullab-yashnashi bilan bog‘liq bo‘lgan, o‘z ijodida insonparvarlik g‘oyalari, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik e’tiroflarini o‘z ijodida namoyon etgan buyuk aktyorlar yetishib chiqqan.

Ushbu aktyorlar safida Friderik Lemetr (1800-1876) tomoshabinlarga – qimorboz Jorj Jermani, Ryui Blaz, Richarda Darlington, Kin, lattachi Jan va Iyul monarxiyasining ijtimoiy ramziga aylangan satirik tipdagi qaroqchi Rober Maker betakror rollarini ijro etishi bilan mashhur bo‘ldi.

Demokratik va respublikachi aktyor, kelib chiqishi bo‘yicha to‘quvchi bo‘lgan Per Bokaj (1799-1863)ning sahnaviy obrazlari biroz boshqacha ko‘rinishga ega edi. Uning talqinlari o‘yinining jo‘shqinligi, bo‘rttirishga moyilligi, kuchli ehtirolarni etkazish qobiliyati bilan ajralib turardi.

Fransiyada romantik dramaturgiya bilan bir vaqtda realistik dramaturgiya ham shakllana boshladi. U ikki turga bo‘linib Skribning tasviriy realizmi Merime va Balzakning tanqidiy realizmiga asoslangan.

Ejen Skrib (1791-1861) – XIX asr eng sermahsul Fransiyalik burjua dramaturgi edi. Muallif qalamiga ko‘plab vodevillar, melodramalar, opera librettolari, tarixiy va kundalik komediyalar tegishli. Uning tarixiy pyesalari orasida «Bertran va Raton» (1833), «Stakandagi suv» (1840) kabilar mashhur bo‘lib, siyosatni sahna ortidagi hiylalar orqali asosiy tarixiy voqealarni tushuntirib beradigan «kichik sabablar nazariyasi», mayda kundalik hodisalar orqali yoritgan. Skribning kundalik komediyalari orasida «Shon-sharaf narvonlari» (1837) nihoyat mashhur bo‘lib, burjua zodagonlarini va biznesmenlari mansab yo‘lidagi o‘zaro harakatlarni ochib beradi.

Tanqidiy realizm dramaturgiyasi burjua jamiyatining qarama-qarshiliklarini aks ettiruvchi, chuqur ijtimoiy ziddiyatlar va ijtimoiy shartli tavsiflarni ochishga intilib, beqiyos yuksak g'oyaviy darajaga ko'tarildi. Qayta tiklash davrida Prosper Merime «Klara Gasul teatri» (1825) nomi ostida nashr etilgan juda nozik, zukko realistik komediyalar (asosan bir harakatli) to'plamini yaratdi. Bu to'plamdagi pyesalar erkinlik muhabbati, antifeodal va antiklerikal tendensiyalar bilan



sug'orilgan.

Buyuk realist, dramaturg va yozuvchi Onore de Balzak pyesalarining sahnadagi taqdiri omadli bo'lmadi. Balzak «Votren», «Zukko Kinola», «O'gay ona» dramalarida savdo-sotiqqa asoslangan burjua jamiyatining qusurlari, pul makkor sinovlari, ochko'zlikni fosh qiluvchi ijtimoiy ziddiyatlarning aksida ochib beriladi. «Ish bilarmon» komediyasida u birjachi Merkade yashagan chayqovchilar dunyosida yorqin satirik holatlarni tasvirlab berdi. Balzak pyesalari o'z vaqtida zamondoshlari tomonidan tan olinmadi va taqiqlandi. Balzakning asarlari yozuvchi vafotidan so'nggina sahnaga qo'yilib faqat XX asrda qadrini topdi.

\*\*\*

**Tasviriy san'at.** XIX asr Fransiya rangtasvir, haykaltaroshligi va grafika san'ati Jahon badiiy madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Fransiyadagi ijtimoiy qarama-qarshiliklarning jadal va keskinlik bilan o'zgarishi badiiy hayot va badiiy yo'nalishlarda ham bir qator to'ntaruvlarni keltirib chiqardi. Ko'rib chiqilayotgan davrda hech bir o'zga mamlakat mafkuraviy va ijodiy izlanishlar bo'yicha Fransiya bilan tenglasha olmadi.

Fransiya yakobinlar klubi, keyin esa inqilobiy Konvensiya minbaridan klassitsizm yetakchisi bo'lmish Jak Lui David (1748-1825) «inqilobni yaqinlashtirgan» daho sifatida tan olindi. Rassomni inqilobdan oldingi va inqilob davridagi ijodi o'sha davrning qat'iy va qahramonlik ruhiyatini, shu bilan birga, umumxalq yuksalishdan tug'ilgan «aql imperiyasi» va adolatning yaqinda g'alaba qozonishi haqidagi illyuziyalarni kuchaytirgan.

Yangi tarixiy sharoitlarda Davidning klassitsizmi Pussen<sup>9</sup> an'analarini qayta tiklab, antik davrning gumanistik g'oyalariga sig'inish va insonning aql va jamiyat oldidagi burchi haqida bayon qilgan. Biroq, Pussen o'z san'atida faylasuf, axloqshunos va shoir sifatida maydonga chiqsa, David siyosiy minbarni egalladi. Uning inqilobdan oldingi asarlari ichida eng mashhuri «Goratsiyalar qasamyodi» (1784). Asar inqilob madhiyasiga aylangan Ruje de Lilning «Marseleza»si kabi odamlarni inqilobiy va vatanparvarlik harakatiga da'vat o'rnida yangraydi.

Davidning «Respublikaga xiyonat qilgan o'g'illarini o'limga mahkum etgan konsul Brut» (1789) kartinasi zamondoshlar tomonidan tasviriy san'atda fransuz inqilobining markaziy



*J.L. David*  
*«Goratsiyalar qasamyodi» (1784)*

epizodlaridan biri, 1789-yil 14-iyulda qal'a-qamoqxona Bastiliyaga bostirib kirishi sifatida qabul qilindi.

Jak Lui David kartinalarining qahramonlari va mavzularini qadimgi antik tarixining fojiali sahnalaridan olib, qat'iy va aniq shaklda, sovuq ranglarda, ammo, kuchli ifodaviylik bilan chizilgan voqealarni tasvirlagan. Go'yo, bo'layotgan say-harakatlar teatr sahnasida ochib berilayotgandek, qahramonlarining tavsifiga mutlaq muntazamlik va zarurat tavsifi bilan tasvirlangan.

Rassom o'z asarlarini inqilobiy ong va faollikni uyg'otish vositasi deb bilgan holda, o'zining badiiy va fuqarolik faoliyatini bir-biridan ajratmagan. U yakobinlar klubining a'zosi, Konvensiya a'zosi (ma'lum muddat raislik ham qilgan), Robesperring yaqin do'sti bo'lgani bois yakobin diktaturasi reaksiyon burjuaziya tomonidan ag'darilgan kezlarda boshi zo'rg'a omon qoldi.

<sup>9</sup> Nikolya Pussen (1594-1665) – buyuk fransuz rassomi, chizmachisi va nazariyotchisi, klassitsizm san'atining asoschilaridan biri.

David ijodining eng gullagan davri inqilob yillariga to‘g‘ri keladi. Qadimiy syujetlarni chetga surib, rassom o‘z zamondoshlari – buyuk ijtimoiy qo‘zg‘olon qahramonlari va shahidlarining ishlarini va jasoratlarini ulug‘lashga yuz tutadi. Rassomning eng yaxshi kartinasi «O‘ldirilgan Marat» (1793), ajoyib, yorqin realistik portretlarida «Ko‘kat sotuvchisi» (1789) va «Qora qalpoqli chol» (1790) kabi asarlarda klassitsizm tamoyillaridan voz kechib, 19-asrning yangi realizmiga asos soldi. Va u ispaniyalik Goya va ingliz Konstabl bilan birgalikda bu davrning Yevropa san‘ati rivojlanishidagi eng kuchli yo‘nalishning poydevori bo‘ldi.

Direktoriya, Konsullik va Imperiya yillarida David yana klassitsizmning mavhum, ideal va ulug‘vor uslubiga qaytishga harakat qilib Napoleon faoliyatini tarixiy progressiv tomonlari nuqtai nazaridan tushunishga harakat qiladi. Biroq, rassomning kech klassitsizmi uslubi jonsiz va samarasiz ko‘rinishga ega bo‘ldi: imperator eski yakobinga ishonmaganidek, David ham Napoleon harakatlarini oqlay olmadi.

XVIII-XIX asrlar oxirida fransuz me‘morchiligi borasida qat‘iy, klassik, lo‘nda va ulug‘vor uslubni izlashga intilgan Klod Nikola Ledu (1736-1806) Rim respublikasi davridagi qat‘iy obidalar va inshootlari shuningdek, o‘sha paytda ma‘lum bo‘lgan yunon san‘atining yodgorliklarini batafsil o‘rganib chiqadi. Biroq, uning aksariyat loyihalari amalga oshirilmadi. Napoleon hokimiyat tepasiga kelganidan so‘ng, arxitekturada spartalik soddalik emas, balki, Rim imperiyasining dabdabali ulug‘vorligi talab qilindi.

Napoleon davrida faoliyat ko‘rsatgan me‘morlar qatorida – SH.Persye, F.Fontena, J.-F.Shalgrena, P.-A.Vinyona ijodiy ishlarida rasmiylik va eklektizm ruhi o‘tib boradi va tez orada fransuz va butun Yevropa me‘morchiligida chuqur inqirozni yuzaga kelishiga olib keladi. Ushbu tanazzuldan chiqish yo‘li faqat XX asrning oxirida belgilandi.



*J.L.David*  
*«Birinchi konsul Sent-Bernard*  
*dovonida Alp tog‘larini kesib o‘tdi»*  
*(1801)*

Napoleon tasviriy san'atda muntazam ravishda, sovuq va yolg'on ideallashtirish ruhida harbiy jasoratlarini ulug'laydigan tantanali jangovar rasmlarni va namoyishkorona portretlarni buyurtma qilardi. Bu davr rassomlarining aksariyat asarlaridagi klassitsizm akademik qolipi iskanjasida ushlab turuvchi tizimga aylandi. Bunday asarlar ijtimoiy munosabatlarning bo'ronlar ostidagi beqarorligi, olimpiya xotirjamligi targ'ib qilgan holda o'zida Shatobrian ruhidagi reaksiyon elementlarni singdira oldilar.



*J.-O.-D. Engr*  
*«Msye Berten portreti» (1832)*

Chuqur inqirozning ta'siri Davidning yirik shogirdlaridan biri Jan-Ogyust-Dominik Engrni (1780-1867) chetda qoldirmadi. Eskirgan badiiy tamoyillarga jon berishga uringan rassom tarixiy va diniy mavzudagi yirik kartinalari bilan birin-ketin muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ammo Engr fransuz san'ati tarixiga o'z ijodining boshqa yo'nalishi bilan tanildi. U eng zo'r «realistik portret» yaratgan rassom sifatida nom qozondi. Rassomning sara asarlarida, jumladan «Msye Berten portreti»da (1832) chuqur umumlashtirilgan va yorqin tanqidiy ko'rinishga ega fransuz burjuaziyasining ma'naviy va axloqiy tavsifi ochib berilgan.

Shu bilan birga Engr go'zallikning haqiqiy tabiatini ko'raolgan ijodkor sifatida («Buloq» va boshqa asarlar) e'tiborga tushdi. Ajoyib rassom va chizmachisi Engr XIX asr fransuz san'atining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

XIX asrning ikkinchi o'n yilligi oxiriga kelib Fransiya san'atida kechki klassitsizmga qarshi kurashda reaksiyon tus olgan keskin romantik yo'nalish shakllana boshladi. Romantizm o'z ichida keskin ijtimoiy va tarixiy qarama-qarshiliklar va davrning dramatik ruhini o'zida mujassam etdi. Romantik maktab rassomlari ijodida borliqni murakkab va nomuvofiqligini anglash, ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv yo'nalishi odamlarning intilishlariga to'g'ri kelmasligidan tushkunlikka tushish g'oyalar bilan sug'orilgan. Bu ba'zi ijodkorlarni fatalizmga, umidsizlikka olib kelgan bo'lsa, ba'zilarini zamonaviylikdan she'riy fantastika olamiga, tarixga, Sharq olamiga qochishga, tor pessimistik individualizm doirasida qolib ketishga sabab bo'ldi.

Davrning ilg'or ijodkorlari faoliyatida zamonaviylik ziddiyatlarini tanqidiy tushunish, o'z san'atiga chinakam inqilobiy keskinlik va ko'tarinkilik berish istagida namoyon bo'ldi. O'zlarining bo'ronli va qahramonlik romantik kartinalarini hayotiy haqiqat va psixologik murakkabligi bilan to'ldirishga harakat qilganlar.

1819 yili Teodor Jeriko (1791-1824) tomonidan yaratilgan «Meduzaning rafti» kartinasida tasvirlangan okean to‘lqinlari orasida halokatga uchragan kema va najot kutayotgan odamlarni tasviri tom ma’nodan romantizm manifestiga aylandi. Jeriko uchun syujetlarni klassik tasnifga ko‘ra ulug‘vor va past tabaqalarga ajratish bo‘lmagan. Rassom bor g‘ayratini va shoirona hissiyotlarini real hayotda o‘rin olgan qahramonlik va ahamiyatli qirralarni izlanishga qaratdi. Albatta harakat va ehtirolarning kuchi klassik kompozitsiyaning ideal muvozanatini buzilishiga olib kelgan, rasmni asab bilan to‘ldirgan holda ritmning tezkorligi, yorug‘lik va soya kontrastlarining shiddati, ranglar palitrasini boyitilishiga keng yo‘l ochib berdi.



*T.Jeriko «Meduzaning rafti» (1819)*

Jeriko qisqa umrining so‘nggi yillarida ayanch va samimiylikka to‘la, hamdardlik hissi bilan ufuq turgan ruhiy kasallikka duch bo‘lgan bemorlarning portretlarini chizadi. Ularda o‘z davrining qiyinchiliklari va adolatsizliklari ostida ezilgan insonning dardi ifoda etilgan.

Ejen Delakrua (1798-1863) insonning katta irodasi, olijanoblighi va jasoratini ochib berishga yo‘lida eng dramatik vaziyatlarni izlab, nafaqat Dante, Shekspir, Bayron, Valter Skottning adabiy obrazlariga, balki, olovdek yonayotgan, isyonkor va erkinlikni sevgan xalqni ozodlik uchun kurashayotganini aks etadi.



*E.Delakrua «Ozodlik xalqni yetaklaydi» (1830)*

Uning ijodida inson erkinligi orzusi, zulm va zo‘ravonlikka qarshi ehtirolsi norozilik ifodalangan. 1824 yilning mart oyida ilk bor namoyish etilgan «Xiosdagi qirg‘in» kartinasida yunon xalqining turk zulmiga qarshi kurashining fojiali epizodi tasvirlagan. 1830 yilgi inqilob

ta'sirida yaratilgan rassomning «Ozodlik xalqni yetaklaydi» (yoki «Barrikadalaridagi Ozodlik») kartinasida esa xalq qo'zg'olonining qahrli go'zalligi ochib berilgan.

Delakrua haqli ravishda yangi davr tarixiy rang tasvirning yaratuvchisi hisoblanadi. Rassomni tarixiy jarayonning asl mohiyati, keng xalq ommaning to'qnashuvlari, o'zining konkret voqeligi bilan betakror zamon ruhiyati yaratgan vaqt qiziqtirgan. Delakruaning taniqli polotnolari orasida – «Salibchilarning Konstantinopolga kirishi» (1840) tarixiy rivojlanishning fojiali pafosi bilan to'ldirilgan. Delakruaning 1830 yilgi inqilob natijalaridan hafsalasi pir bo'lishida insoniyat taqdiri haqida mayus, ko'pincha ochiq-oydin pessimistik fikr yuritishiga sabab bo'lgan.

Iyul monarxiyasi davrida Fransiyada amaldorlarining inertligidan ilhom topolmay u jazoirlik va marokashliklarning patriarxal kuchi va go'zalligini o'z asarlarida kuylaydi. (Ijodkor rassom ularni 1832 yilda uyushtirgan safar paytida ko'rgan edi). Go'zal va qahramon shaxslarning idealini uzoq, Yevropa sivilizatsiyasi tegmagan o'lkalardan qidirdi.

Delakrua akademik dogmalarni rad etishdan tortinmadi, lekin uning uchun qadimiy san'at obrazlari hech qachon jozibali kuchini yo'qotmagan. «Ozodlik xalqni yetaklaydi» nomli kartinada zamonaviy parijsk ayol obrazini Samofrakiylik Nikaning klassik go'zalligi va qudratli kuchi bilan birlashtiradi.

Oydin soflik va badiiy shaklning uyg'unligi, ruhiy olamning nozik va hissiyotli qirralari uyg'unligi fransuz rassomi va chizmachisi Teodor Shasserio (1819-1856) ijodini ham bu davr ijodkorlari orasida ajratib turadi. Klassiklarning romantik ko'tarinki ruhi va tashvishli kechinmalari haykaltarosh – Fransua Ryuda (1784-1855) asarlarida ham yorqin ifodasini topdi. Uning «Marselyeza» monumental relyefi Parijning Yulduzli maydonida joylashgan Shon-sharaf arkasini bezatib turadi.

Romantik maktab, nafaqat rangtasvir va haykaltaroshlikning turli janrlarini boyitdi, balki XIX asrda Fransiya chizmachilik san'atini butunlay o'zgartirib, kitob illyustratsiyasi, litografik portret va akvarelning gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Fransuz romantizmi boshqa mamlakatlar ilg'or san'ati yutuqlari bilan chambarchas bog'liq edi, ayniqsa Goya va Konstebning bu borada ahamiyati alohida o'rin tutadi.

XIX asrning 30-40 yillaridagi ko'plab fransuz peyzajchi rassomlari – milliy realistik landshaft maktabi shakllangan yillarida Konstebning ta'sirini boshidan kechirganlar. Romantizm ijodkorlar e'tiborini milliy o'zlikni anglash masalalariga qaratib, ularda nafaqat xalq hayoti va milliy tarixga, balki, o'z ona tabiatiga bo'lgan chuqur qiziqishni uyg'otadi. Asta-sekin tabiatning g'ayrioddiy jozibasidan ozod bo'lgan «Barbizon maktabi» deb nom olgan peyzaj rassomchilari (ularning aksariyati ijod qilgan mahalliy qishloq nomi bilan atalgan) go'zallikni eng oddiy va

oddiy narsalarda topishga, xalqning kundalik hayoti va mehnati bilan bog'liq bo'lgan turli mamlakat aholisini tasvirlab ko'rsatadilar.


«Barbizon» maktabi rahbari Teodor Russo (1812-1867) va ayniqsa, ushbu rassomlar guruhining eng yosh vakili – Charl Dobini (1817-1878) chizgan manzaralari birinchi marta haqiqiy tabiatga qoyil qolish omilini o'z ijodida tasdiqladilar.

Peyzaj san'atining yanada yuqori pallaga ko'tarishda «Barbizonlar» bilan bir qatorda rassom Kamil Koroning (1796-1875) o'rni alohida ahamiyatlidir. Uning kartinalarida kompozitsiyaning klassik ravshanligi olamning shoirona hissiyoti, tabiat manzaralarini nafis jarangdorligi inson qalbi harakatlarining nozik harakatlari bilan uyg'unlashgan. Koro tufayli ochiq havoda («plenerda») rasm chizish an'anasi, fransuz rassomlarining merosiga aylandi. Rassom peyzaj san'atida yorug'lik muhitini o'tkazishda betakror qirralarini inkishof qilib kartinalarni go'yo jismonan aniq hayot nafasi bilan to'ldirdi.

Koro va «Barbizonchilar» faqat 1848 yildan keyingina keng jamoatchilikda tan olindilar. Bunga qadar ularning ijod namunalarini ko'rgazmalarda ko'rsatishga ruxsat berilmagan va burjua tanqidi tomonidan masxara qilindi. Ijodkorlarni tabiat haqida tinch mulohaza yuritishlari o'sha paytdagi burjua bachkanaligiga begona edi.

XIX asrning 40-70-yillarida, romantik davrdan realizmning gullab-yashnashigacha bo'lgan burilish nuqtasida buyuk fransuz rassomi Onore Domye (1808-1879) ijodi e'tiborga molik.

Domye XIX asrning rassomlari singari voqelikni oqilona, keskin tanqidiy tahlil qilishi o'zlarining ideallarini tasdiqlashning chinakam romantik pafosi bilan uyg'unlashgan holda burjua tuzumiga va uning barcha ijtimoiy, axloqiy, g'oyaviy va badiiy asoslariga nisbatan inqilobiy qarshilikni aks etgan. Bu borada rassomning qiziqishlari va his-tuyg'ulari doirasi juda katta, va haqiqatan ham universalidir.



*Onore Domye «Buni ozod qilish mumkin!, u endi xavfli emas» (1833)*

Domye o'z asarlarida burjua filistizmining mayda, ahamiyatsiz dunyosigacha tushib, uni yo'q qiluvchi vayronagarchilik va ommaviy masxaralarga bo'ysundiradi, yoki aksincha, eng yuksak insoniy orzularga, katta hissiy hayajon bilan singib ketgan yuksak insonparvarlikka ko'tariladi. Lekin uning hayot hodisalariga bergan barcha

baholari hamisha va doimo xalqning demokratik ruhi, tamoyillarga chuqur sodiqligi bilan ajralib turadi. Domye 30-yillarning boshida san'atga karikaturachi sifatida kirib, o'zining satirik sahifalarining olovini Lui Filipp burjua monarxiyasiga qarshi yo'naltirdi.

Goya bilan bir qatorda uni zamonaviy karikatura yaratuvchisi deb hisoblash mumkin. Litografiya san'atga qisqa vaqt ichida kiritilgan toshbosma texnikasi uning «Qonun chiqaruvchi bachadon», «Transnonen ko'chasi», «Matbuot erkinligi uchun kurashuvchi matbaa», «Sudlanuvchiga so'z berilgan», «Buni ozod qilish mumkin!, u endi xavfli emas» va boshqa asarlarini mashhur qildi. Ularda Domye o'zi yoqtirgan va yoqtirmagan narsalarini, ijobiy qahramonlarni shafqatsiz satirik qiyofalar bilan bir varaqada birlashtirgan. Domye toshbosmalari san'atda ilk bor yangi qahramon – inqilobiy ishchilar sinfini tasvirladi.

1835 yilda Lui-Filipp hukumati, matbuot erkinligiga qarshi bir qator qonunlar qabul qilgandan so'ng, Domye o'z ijodida siyosiy karikaturadan burjua hayoti karikaturasiga o'tishga majbur bo'ldi. Ammo uning grafikasining siyosiy keskinligi bundan kamaymadi. Bu borada karikaturachi, burjua odob-axloqi, pulning kuchi, ahmoqligi, saroyning mayus komediyalari va akademik «salon» san'ati farslarini fosh qiluvchi keng qamrovli tanqidini O.Balzakning «Inson komediyasi»ning oshkora tahlili bilan solishtirish mumkin.

1848 yilgi inqilob Domyeni qayta qo'rquvni va ikkilanishni bilmaydigan eng o'tkir siyosiy karikaturistiga, Ikkinchi imperiyaning ashaddiy dushmaniga aylantirdi. 40-yillarning oxiridan boshlab va umrining so'nggi kunlarigacha Domye rassom sifatida samarali mehnat qildi garchi uning asarlari zamondoshlari uchun deyarli noma'lum bo'lib qoldi, chunki ko'rgazmalar eshigi unga mahkam yopiq edi.



*O.Dome «Uchinchi toifali vagon» (1862)*

Uning his-tuyg'ulariga to'la rang tasvir kartinalari va akvarellari Fransiyaning oddiy aholisining og'ir hayotiga («Burlak», «Sho'rpa», «Uchinchi toifali vagon»), ularning hayot yo'lining buyuk maqsadiga («Og'ir yuk»), ichki dunyosining sofligiga («Kiruvchi») bag'ishlangan. Asarlarda xalq g'azabi («Isyon», «Kamil Desmulen xalqni qo'zg'olonga chorlaydi»), fransuz xalqi va ziyolilarining eng yaxshi qismining intellektual salohiyatining nafosati («Botsmani sevuvchi»,

«Rassomning ustaxonasida») o'chib berilgan. Rassom Domye asarlariga monumental yaxlitlik zehnni o'tkirligi, jo'shqin ifodaviy kuch va shu bilan birga lirik noziklik xos bo'lgan.

Mazkur davr rassomlari zamondashlarining yorqin portretlarini tarihdan muhrlab qoldirdilar. Shular orasida taniqli kompozitorlar va musiqa san'ati namoyandalari misol tariqasida keltirish mumkin. Ushbu portretlar tarixiy xronika sifatida bizga ijodkorlarning real qiyofasi bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Ejen Delakruaning «Frederik Shopen portreti» (1838), «Nikkolo Paganini portreti» (1832), Onore Viktoren Domyening «Gektor Berlioz portreti» (1860) Charl Fogtning «Adolf Adan portreti» (1850), Anri Lemann «Ferens List portreti» (1839), Karl Schmid «Djakomo Meyerber portreti» (1832) shular jumlasidan.



*Ejen Delakrua*  
*Friderik Shopen portreti (1838)<sup>10</sup>*

---

<sup>10</sup> EJEN DELAKRUA. Shopen <http://www.bibliotekar.ru/Kdelakrua/8.htm>



*Ejen Delakrua  
Nikkolo Paganini portreti (1832)<sup>11</sup>*

---

<sup>11</sup> Portret Paganini <http://www.bibliotekar.ru/Kdelakrua/17.htm>



*Onore Viktoren Domye  
Gektor Berlioz portreti (1860)<sup>12</sup>*

---

<sup>12</sup> Gektor Berlioz - Onore Domye <https://allpainters.ru/dome-onore/8215-gektor-berlioz-onore-dome.html>



*Karl Schmid*  
*Djakomo Meyerber portreti (1832)<sup>13</sup>*

---

<sup>13</sup> Giacomo Meyerbeer, composer, by Karl Schmid, 1832, Stadtmuseum Berlin | Portrait, Family history, History <https://www.pinterest.com/pin/families-of-the-world--470555861046117613/>



*Anri Lemann  
Ferens List portreti (1839)<sup>14</sup>*

---

<sup>14</sup> Category: Franz Liszt (Henri Lehmann - Musée Carnavalet) - Wikimedia Commons  
[https://commons.wikimedia.org/wiki/Category:Franz\\_Liszt\\_\(Henri\\_Lehmann\\_-\\_Musée\\_Carnavalet\)](https://commons.wikimedia.org/wiki/Category:Franz_Liszt_(Henri_Lehmann_-_Musée_Carnavalet))



*Sharl Fogt  
Adolf Adan portreti (1850)<sup>15</sup>*

XIX asrning birinchi yarmida fransuz rassomchilik maktabi Gʻarbiy Yevropa sanʼatida oʻzining ustuvorligini mustahkamladi. Yangi tasviriy madaniyatning ikki ilgʻor namoyandalari – ingliz rassomi Jon Konstebl va ispaniyalik Fransisko Goya – oʻz vatanlarida tan olinmadi, biroq, Fransiyada shogirdlar va izdoshlariga ega boʻldilar. Teodor Jeriko va Ejen Delakrua moʻyqalam ustalarining erkin uslubi va rang palitrasini ijobiy qabul qilib, impressionizm tugʻilishiga va shu tariqa zamonaviy rangtasvirning yangi bosqichi shakllanishiga zamin tayyorlab berdilar.

Yevropa davlatlari orasida Fransiya peshqadam turib badiiy hayotni demokratlashtirish borasida yetakchilik qiladi. 1791 yildan boshlab har bir muallif, akademiyalarga aʼzolidan qatʼi nazar, Luvr salonining koʻrgazmalarida qatnashish

---

<sup>15</sup> File: Adolphe Adam 1850 - Charles Vogt - Gallica.jpg – Wikipedia  
[https://en.m.wikipedia.org/wiki/File:Adolphe\\_Adam\\_1850\\_-\\_Charles\\_Vogt\\_-\\_Gallica.jpg](https://en.m.wikipedia.org/wiki/File:Adolphe_Adam_1850_-_Charles_Vogt_-_Gallica.jpg)

huquqini oladi. 1793 yildan boshlab Luvr muzeyining zallari keng jamoatchilik e'tiboriga ochildi. Asta-sekin davlat akademik ta'limi xususiy ustaxonalarda o'qitish amaliyoti bilan chetga surildi.



**tayanch so'zlar:** *ampir, romantizm, realizm, estetika, adabiyot, tasviriy san'at, arxitektura, inqilob, badiiy asar, ijodkor.*



**nazorat savollari:**

1. Fransiyada romantizmning badiiy va estetik xususiyatlarini aniqlab bering.
2. Yevropa romantizmining yetakchi vakillari ijodida qanday badiiy-estetik xususiyatlar yuzaga kelgan?
3. Romantizm namoyandalari ijodida romantik qahramon qiyofasining asosiy belgilari, syujeti va uslubini tavsiflab bering.
4. XIX asrning birinchi yarmida fransuz san'atida namoyon bo'lgan realizmning asosiy badiiy-estetik xususiyatlari ochib bering.
5. Yevropa san'atida realizm oqimi badiiy asarlarning xarakteri, syujeti va uslub talqiniga qanday ta'sir o'tkazgan?
6. Yevropa realizmining qaysi yorqin vakillari san'at rivojiga katta ulushini qo'shdilar?
7. Fransiya teatr madaniyatida romantizm davrining qanday tavsifiy belgilari yuzaga kelgan?
8. Romantizm davr teatri repertuarida qaysi asarlar opera syujetlarini yaratilishiga asos bo'ldi?
9. XIX asr boshlarida fransuz teatrining asosiy yo'nalishlari va xususiyatlarini aniqlab bering.
10. XIX asr boshlari fransuz adabiyotiga xos bo'lgan badiiy-adabiy yo'nalishlar va asarlari haqida ma'lumot bering.
11. XIX asr boshlarida fransuz rangtasvir san'atida qanday maktablar yuzaga kelgan?
12. XIX asr boshlarida fransuz rangtasvir san'atini yetakchi ijodkorlarini aniqlab bering.
13. Buyuk Fransuz inqilobining Jahon musiqa madaniyati taraqqiyotiga va o'zga san'atlar rivojiga o'tkazgan ta'sirini belgilab bering.
14. XIX asr boshlarida fransuz madaniyatida san'atlar aro ijodiy aloqalar ahamiyati va o'rnini ochib bering.



**Adabiyotlar:**

1. Аникст А. Теория драмы на Западе в первой половине XIX в. – М.: Наука, 1980.

2. Бенуа Ф. Искусство Франции эпохи революции и Первой империи. 1793-1814. – М.-Л., 1940.
3. Березина В. Французская живопись первой половины и середины XIX века в Эрмитаже: научный каталог – Л.: Искусство. Ленинградское отделение, 1983.
4. Берковский Н. О романтизме и его первоосновах // Проблемы романтизма. 1973. Вып. 2. С. 8.
5. Данилин, Ю. Очерк французской политической поэзии XIX в. – М.: Наука, 1993.
6. Державин К. Театр французской революции. – М., 1937.
7. Европейское искусство XIX века. 1789-1871 / Л.С.Алешина, Ю.Д.Колпинский, Е.И.Марченко, В.В.Стародубова. – М.: Искусство, 1975
8. Живопись французского романтизма. – М.: СХ, 2020.
9. Живопись французского романтизма: выставка произведений из собраний музеев Франции: каталог / сост. Элен Туссен. – М.: СХ, 1968.
10. Зарубежная литература. XIX век. Романтизм. Критический реализм. – М.: Просвещение, 1979.
11. Минье Ф. История Французской революции с 1789 по 1814 гг.. – М., 2006.
12. Обломиевский Д. Французский романтизм. – М., 1947.
13. Раздольская В. Европейское искусство XIX века: классицизм, романтизм. – СПб: Азбука-классика, 2005.
14. Эстетика раннего французского романтизма: Сб. пер. с франц. / Сост., вступ. ст. и коммент. В.А.Мильчиной. – М.: Искусство, 1982.

## II BOB

### XIX ASR BIRINCHI YARMI FRANSIYA MUSIQA SAN'ATI

#### **Fransiya musiqa san'ati rivojlanishining o'ziga xos tavsifiy omillari.**

Napoleon diktaturasi (1799-1814) va Tiklanish (1814-15, 1815-30) davrlarida fransuz musiqasi mafkuraviy tanazzulga uchrab, san'atning boshqa sohalari kabi unda Birinchi imperiyaga<sup>16</sup> xos bo'lgan ampir uslubi (Sharl Simon Katelning «Semiramida» operasi (1802) va b.) hukmronlik qiladi. Bu yillarda, ayrim istisnolardan tashqari, muhim ijodiy namunalari yaratilmadi. Dabdabali, hashamdor va soxta qahramonona asarlar manzarasi kesimida Jan-Fransua Lesyuyorning «Ossian yoki Bardlar» (1804) va Etyenn Megyulning «Iosif» (1807) operalari o'ziga e'tibor tortadi.

Ushbu namunalarning tarixiy va qahramonlik syujetlarida dabdabali ko'tarinkilik, bo'rttirilgan dekorativlik, katta jang sahnalari Birinchi imperiya davri operasining tashqi tavsifini targ'ib qilishga qaratilgan. Harbiy marsh ohanglarini operada ishlatilishi unga soxta tantanaviylik shukuhini ato etgan.

Tashqi ko'rgazmalik, opera uslubning yorqin vakili Gaspard Luidji Pachifiko Spontini (1774-1851) ijodida ko'rish mumkin. Uning asarlari o'sha davr talablari va estetik didini to'liq namoyon etgan. Kompozitorning operalarida («Vestalka» (1805), «Fernand Kortes yoki Meksikaning zabt etilishi» (1809) va b.), K.V.Glyukning qahramonona an'analari davom ettirilgan.

«Vestalka»ning musiqiy dramaturgiyasi bu borada katta opera (Grand Opera) janrini shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Mazkur opera dekorativ spektaklning tashqi jihozlarini saqlab qoladi. Ammo, musiqasi Napoleon davrida gullab-yashnagan sovuq rasmiy san'at chegarasidan tashqariga chiqishga muvaffaq bo'ladi. Musiqa orqali kompozitor inson ehtiroslarini ochib, harbiy-qahramonlik ko'rinishdagi operani sevgi fojiasiga aylantiradi. Tuyg'ularni ifodalovchi sahnalarida G.Spontini simfonik rivojlanish yo'llariga murojaat qilgan.


Mazkur opera fransuz musiqasi tarixida katta rol o'ynadi. Uning musiqiy dramaturgiyasi uzoq yillarga milliy katta opera turining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirishga turtki berdi. Bu borada «Vestalka»siz nafaqat J.Meyerber operalarini, balki, G.Berlioz ijodini ham tasavvur qilib bo'lmaydi.

1831 yilda Lion to'quvchilarining, 1832 yilda esa Parij ishchilarining qo'zg'olonlari va undan so'ng, ko'tarilgan qator qo'zg'olonlar xalqning inqilobiy g'ayratini yangi hukmron sinfi – burjuaziyaga qarshi yo'naltiradi. Xalq g'azabining ikkinchi to'lqini 1848 yilgi inqilobda o'zining cho'qqisiga chiqadi.

---

<sup>16</sup> Birinchi imperiya (fr. Le Premier Empire) – Napoleon Bonapartning Fransiyada hukmronlik qilgan davri (1804-1815 yy.).

### *G.Spontini “Vestalka” (1807)*



Fransiyadagi keskin sinfiy janglar ta'sirida inqilobiy to'liqlar bostirilgan bo'lsada, biroq, aks sadosi sifatida butun Yevropani (1830 yil – Germaniya, Polsha, 1848 yil – Germaniya, Avstriya, Vengriya, Italiyani) larzaga soladi.

Xuddi shu keskin kurash muhiti fransuz madaniyatining barcha sohalarida o'zini namoyon qiladi: turli g'oyalarning gullab-yashnashi, jasorat va ijodiy izlanishlarning xilma-xilligi hayratlanarli darajada kamol topadi.

«Yevropa sivilizatsiyasi o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan, unda butun Yevropa tarixining asab tolalari birlashib, ma'lum vaqt oralig'ida elektr razryadlari chiqib, butun dunyoni silkitgan...»<sup>17</sup> shahar ayna Parij edi. Uning notinch ijtimoiy va intellektual hayoti boshqa mamlakatlarning ko'plab yetakchi arboblarni Fransiya poytaxtiga jalb qildi. Shu bois Parij, Yevropaning boshqa shaharlaridan ko'ra o'z madaniyatida turli milliy xalqlarning badiiy yutuqlarini mujassam etib o'zlashtirishi, uning tavsifiy o'ziga xosligini ta'minladi.

Musiqiy janrlar orasida opera yetakchi o'rinda turadi. Operada romantik omillar g'oyaviy rang-baranglik, lirik kechinmalarni sodda ifodalashda, musiqa tilining serjiloligi va demokratlashuvi namoyon bo'lgan.

Bu yillarda keng ommalashgan hajviy opera janri ham romantizm ta'siriga uchradi. Bu yo'nalishda yaratilgan eng sara hajviy asarlar qatoriga Fransua Adriyen Bualdyoning (1775-1834) ijodini keltirish mumkin. Muallifning eng yorqin asarlaridan biri «Oq xonim» (1825) operasi, o'zining patriarxal – ideallashtirilgan

---

<sup>17</sup> История зарубежной музыки. Вып. 3. Германия, Австрия, Италия, Франция, Польша с 1789 года до середины XIX века / В. Конен. — 5-е изд. — Москва: Музыка, 1981. — С. 387 (tarjima bizniki – R. T.)

kundalik sahnalari va romantik fantaziyasi bilan ajralib turadi. Hajviy operaning romantizm bosqichi keyingi pallada lirik boshchilikni kuchayishi, hamda xalq kuylaridan keng va unumli foydalanishi uning uslubini boyitadi. Xususan, Daniel-Fransua-Espri Ober (1782-1871) tomonidan hajviy operaning o‘tkir syujetli va tez rivojlanayotgan harakatlarining voqeliklari, musiqada maishiy kundalik qo‘shiq va raqslarga asoslanishi bilan ajralib turgan («Fra-Dyavolo», 1830; «Bronza ot»,

Hajviy opera janrida ijod qilgan kompozitorlar qatorida – Lui Jozef Ferdinand Gerold («Sampa yoki marmar kelin» (1831)), Jak Fransua Fromantal Eli Galevi («Chaqmoq» (1835)), Adolf-Sharl Adan («Longjyumodan kelgan pochta» (1836)) nomlarini keltirish mumkin. Ular keyinchalik balet san’atida rivoj topgan romantik yo‘nalishni tasdiqlab berdilar (A.Adan «Jizel yoki Villislar» (1841), «Korsar» (1856)). 1835; «Qora domino», 1837 va boshqalar).

### ***F.Ober «Fenella, yohud Portichidan soqov» (1828)***



Xuddi shu (1830-1840) yillarda tarixiy, vatanparvarlik va qahramonlik mavzularida yaratilgan katta opera (Grand opera) janri shakl topadi. 1828 yilda D.Oberning «Portichidan soqov» («Fenella») operasi sahnalashtirildi, uning syujetida o‘sha vaqtda jamiyatda hukm surgan 1830 yil Iyul inqilobi arafasidagi kayfiyatlar boshchilik qiladi. Unda ilk bor qadimgi an’anaviy qahramonlar o‘rniga oddiy odamlarning taqdiri ochib berilgan. Musiqaning o‘zi ham, qahramonlik janrlarining tantanali ko‘rinishdan farq qilgan. Bu borada «Portichidan soqovi» xalq-qahramonlik va romantik opera janrining yanada rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Feodal zulmiga qarshi isyon ko'targan Neapollik baliqchilar hayotidan olingan lavha opera syujeti uchun asos qilinib, o'zining inqilobiy mafkurasi bilan fransuz xalqining kayfiyatiga mos tushgan. Oddiy odamlar obrazlari mavhum tarixiy va mifologik qahramonlar o'rnini bosib, asarga realistik yo'nalish ato etdi. Operada tez rivojlanayotgan harakat uni dramatik teatrga yaqinlashtirdi.

Operaning musiqasi qahramonlik janrlarining ulug'vorligi va tantanasidan keskin ajralib turadigan xususiyatlari bilan farqlangan. Neapoldagi bozor maydonining tasviri va rang-barang ko'rinishdagi go'zal tarantella raqsi, operaga shoirona folklor janri elementlarini kiritdi. Qahramonning his-tuyg'ularini sharhlovchi rivojlangan simfonik epizodlar ifodali chiqqan. Qo'zg'olon sahnasida tasviriy tafsilolarning realistik aks etish asnosida kuchli dramatik effektga erishiladi. Umuman olganda musiqada, katta operaning sovuq tantanasi va hajviy operaning yengil janrdagi tavsifiga birdek uzoq bo'lgan, hissiyotlar kuchayishini ko'rishimiz mumkin.

Joakkino Antonio Rossini (1792-1868) tomonidan Parij uchun yozilgan "Vilgelm Tell" (1829) operasida qo'llanilgan ilk ayrim dramaturgik usullar katta operada o'rin oldi. Fransiyada yashab ijod qilgan italiyalik kompozitor J.Rossini, mamlakatning madaniyatidan ko'p narsalarni o'rganib, ijodida qo'lladi va bir vaqtni o'zida fransuz musiqachilarga ham ta'sirini o'tkazdi. Kompozitor Jakomo Meyerber (1791-1864) shular jumlasidan.




### ***J.Rossini «Vilgelm Tell» (1829)***

Romantizm davrida dunyoga kelgan fransuz katta operalarining qahramonona tantanaligi, yuksalish tuyg'ulari, sahna effektlarining dabdabasi va yuzaki tashqi dekorativlik bilan uyg'unlashgan. Bu borada, ko'p yillar davomida fransuz

madaniyati bilan o'z faoliyatini bog'lagan, tarixiy-romantik operaning ko'zga ko'ringan namoyandasi J.Meyerberning ijodi e'tiborga molik. Uning kompozitorlik uslubi aniq, birmuncha bo'rttirib chiqarilgan yozma xati, sahnaviy personajlarning yorqin tavsiflari va tizimli musiqiy dramaturgiya (jumladan, harakat rivojlanishining avj nuqtasi va asosiy lavhalarini ko'rsatish) bilan ajralib turgan. Musiqaning tilini eklektik ko'rinishiga qaramay (uning musiqiy tili turli millatlarning madaniyati ta'sirida shakllangan), J.Meyerber shiddatli dramatism bilan ajralib turuvchi, ajoyib ko'rgazmali effektlariga boy operalar yaratdi.

Fransuz musiqasining butun tarixiga xos bo'lgan jihatlar, ya'ni, teatr va musiqa san'ati o'rtasida o'rnatilgan uzviy bog'liqlik rishtalari ayniqsa J.Meyerber ijodida yorqin ifodasini topdi. Kompozitor ijodi romantik drama (ayniqsa V.Gyugo asarlari) ta'sirida shakllangan, biroq, muallifning opera uslubining shakllanishida yetakchi o'rin o'sha davrning buyuk dramaturgi E.Skrib egalladi. Dramaturg keyinchalik muallifning sahnaviy asarlarining doimiy librettistiga aylandi.

J.Meyerberning Parijda yaratgan operalari, jumladan «Robert Iblis» (1830)da, katta fransuz operasining shakl tuzilish tamoyillari tasdiqlandi, «Gugenotlar» (1835)da fransuz romantik operasining yorqin cho'qqisi o'z ifodasini topdi. «Payg'ambar» (1849) va «Afrikalik ayol» (1864) operalarida esa katta opera janrining tanazzulga uchrash belgilari ko'zga tashlanadi.



***J.Meyerber "Payg'ambar" (1849)***

Barcha yutuqlar bilan birga J.Meyerberning ijodiy uslubidagi qarama-qarshiliklar katta opera janrida o'rin olgan real haqiqatni sahnaviy dabdabadorlik oldida bo'lgan zaifligi ko'zga tashlanadi.

Katta opera bilan bog‘liq ijodkorlar orasida fransuz kompozitori Fromantal Galevi (1799-1862) nomini ham qayd etish lozim («Yahudiy ayol» (1835), «Kipr malikasi» (1841), «Karl VI» (1843)).

XIX asr Fransuz musiqiy romantizmining ilg‘or va buyuk ijodkorlari safidan Gektor Berliozning (1803-1869) nomi alohida ustun bo‘lib turadi. Kompozitor nomi bilan dasturiy romantik simfoniya asos solindi («Fantastik simfoniya» (1830), tom ma‘noda fransiya romantizm manifestiga aylangan «Garold Italiyada» (1834) shular jumlasidan)<sup>18</sup>.

G.Berlioz ijodi teatr bilan yaqinlashishi asosida simfonik asarlarida Virgiliy, U.Shekspir, J.Bayron, I.Gyote bisotlarining adabiy obrazlari aks etilishi bilan e‘tiborni tortadi. Teatrlashtirish masalasi kompozitorning har bir asarida turli yo‘llar bilan hal qilinadi: «Romeo va Julyetta» dramatik simfoniya (1839) bu borada oratoriya (asarga solistlar va xorning kiritilishi tufayli) va opera harakatining elementlarini o‘z ichiga olsa, «Faustning hukmi» dramatik afsonasi (1846) esa, murakkab opera-oratoriyali-simfonik janrni (solistlar, xor va orkestr uchun)tashkil qiladi. G.Berlioz simfoniyalarda keng qo‘llagan monotematizm tamoyili ma‘lum darajada teatr bilan bog‘liq bo‘lib, operadagi leytmotiv tavsiflaridan kelib chiqadi.

Yevropa simfonik musiqasi rivojlanishining muhim yo‘llaridan biri G.Berliozning dasturiy simfonizmi orqali ochib berildi. Kompozitor musiqasida qalb lirikasi, fantastik va janr obrazlari bir vaqtning o‘zida fuqarolik-inqilobiy mavzular bilan uyg‘unlashtirildi. Bu borada muallif Buyuk Fransuz inqilobining ommaviy va demokratik san‘ati an‘analarni tikladi («Rekviyem» (1837), «Fojiaviy-g‘olibona simfoniya» (1840)).

Buyuk novator G.Berlioz milliy ohangning yangi turini yaratdi (kuylar qadimiy uslublarga moyilligi, fransuz nutqining o‘ziga xos xususiyatlaridan ta’sirlangan holda o‘ziga xos ritm bilan ajralib, ba’zi ohanglari baland notiq nutqiga o‘xshab yangraydi). Kompozitor musiqiy shakl borasida ham yangi qadam bosdi. Cholg‘ushunoslik sohasida inqilobiy ishlarni amalga oshirdi (simfonik partiturada orkestr-tembr elementi boshchilik qilib, musiqiy tilning boshqa tarkibiy qismlari – ritm, garmoniya, shakl, faktura o‘nga bo‘ysunadi).

G.Berliozning ayrim operalari fransuz musiqali teatrida alohida o‘rin egalladi. Jumladan, «Benvenuto Chellini» (1837) asari hajviy opera an‘analarini davom ettirsa, «Troyanslar» dilogiyasi (1859) – romantik tusdagi K.V.Glyukning qahramonona talqinini davom ettiradi.

Yirik dirijyor, kompozitor va atoqli musiqa tanqidchisi bo‘lgan G.Berlioz nemis kompozitori R.Vagner kabi yangi dirijyorlik maktabining asoschisiga aylandi.

---

<sup>18</sup> Kompozitorning musiqiy tafakkuri va fransuz milliy madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan rishtalari bobning so‘nggi faslida yoritiladi.

Mazkur sohada qiziqarli va e'tiborga loyiq asarlar, yaratdi. L.V.Betxoven va K.V.Glyukning ijodi tadqiq qilish bilan bir qatorda dirijyorlik («Orkestr dirijyori» (1856)) va cholg'ulashtirishga bag'ishlangan (Asboblar haqida buyuk risola», (1844)) qo'lyozmalarni yozib qoldirdi.

G.Berliozning bu sohadagi peshqadam faoliyati yorqin ma'shaldek musiqa olamida charaqlab, XIX asr simfonik janrda ijod qilgan qator fransuz kompozitorlarni ortda qoldirdi.

XIX asr o'rtalarida simfonik janr sohasida samarali ijod qilgan kompozitorlar orasida Felisyen Sezar David (1810-1876) nomi, Fransiya musiqa san'ati rivojida o'z o'rniga ega bo'ldi. Uning «Sahro» (1844), «Xristofor Kolumb» (1847) kabi Oda-simfoniyalari va boshqa asarlari fransuz musiqasida sharqona yo'nalish, oreintalizmga asos soladi.



***Parij pianinochilarning yosh maktabi (Maurin litografiyasi).***

***Yuqori qatorda: Y.Rozenxayn, T.Deler, F.Shopen, A.Dreyshok va S.Talberg;***

***Pastki qatorda – A.Volf, A.fon Genzelt va F.List.***

Shunday qilib, xulosa o'rnida shuni qayd etish lozimki, XIX asrga kelib Parij shahri, Jahon musiqa madaniyatining markaziga aylangan holda o'zga mamlakatlardan ko'plab yetakchi san'atkorlarni o'ziga jalb qiladi. Mazkur davr musiqa ijodi avj olgan pallasini belgilaydi. Bu vaqtda fransiya sahnalarida F.Shopen va F.List pianistik san'ati, xonandalar P.Viardo-Garsiya, M.Malibran, sozanda N.Paganini va boshqa ko'zga ko'ringan ijrochilarning san'ati olqishlarga sazovor bo'ladi. Fransiyalik san'atkorlar orasida Parij skripkachilar maktabi – P.Rode,

P.M.Bayo, R.Kreyser Jahonga tanilib shuhrat qozonadi. Romantik opera bilan bog'liq bir qator taniqli xonanda ayollar – L.Damoro-Chinti, D.Arto va erkak xonandalar – A.Nurri, J.L.Dyupre dunega tanildilar. Bir qator nufuzli musiqa jamoalari ham tashkil qilinadi.

1828 yil Parijda dirijyor F.Xabenek tomonidan «Parij konservatoriyasining konsert jamiyati»ga asos solinib, mazkur jamoaning simfonik konsertlari Fransiyada Lyudvig van Betxoven ijodini targ'ib qilishda katta rol o'ynadi. 1828-1831-yillar mobaynida Parijda L.V.Betxovenning barcha simfoniylarini o'z ichiga olgan turkumli konsertlar berildi. G.Berliozning turkumli konsertlari tarkibida ilk muallif qalamiga mansub asarlar jamoa e'tiboriga havola etildi («Fantastik simfoniya», «Romeo va Julyetta», «Garold Italiyada»).

Simfonik konsert-festivallarni tashkil qilgan G.Berlioz, keng ko'lamda dirijyorlik faoliyatini (1850-1851) uning tashabbusi bilan tuzilgan Parij Katta Filarmoniyasida olib boradi. Asta-sekin cherkovlardan konsert zallarining sahnasiga ko'chgan xor ijrochilik san'ati ham rivoj topadi. Bu borada «Orfeon» jamiyati o'z atrofida xor san'ati muxlislarini o'z safiga birlashtirgan.

\*\*\*

**XIX asr birinchi yarmida Fransiyaning musiqiy – tanqidiy hayoti.** Adabiyot va musiqa orasida asrlar qa'ridan o'rnatilgan uzviy rishtalar va ijodiy aloqalar hammaga ma'lum. Badiiy adabiyot va musiqaning o'zaro ta'siri azaldan kompozitorlar, xonandalar, yozuvchilar, adabiyotshunoslar, tanqidchi va jurnalistlarni ilhomlantirib, adabiy va musiqiy asarlar yaratishga, olimlarni esa tadqiqotlar yaratishga undagan. San'at bilan shug'ullangan ko'plab namoyandalar o'zligini nafaqat bir sohada balki parallel ravishda o'zga ijod turlarida, yoki turdosh kasb yo'nalishlarda topganlar.

Romantizm davri ijodkorlari bu borada o'zini serqirra faoliyati bilan e'tiborga tushgan. Mazkur davr kompozitorlarining aksariyati mohir sozandalar, dirijyor va tanqidchilar bo'lib, o'z asarlarini birinchi targ'ibotchilariga aylanganlar. Davrning g'oyaviy mafkurasi sahna, konsert maydonida ijodkorlarni o'z fikr-munosabati va qarashlarni tasdiqlash, muhim ijtimoiy va ijodiy g'oyalarni targ'ib qilishga xizmat qilgan.

Fransiya romantizmining o'ziga xosligi shundaki, u dastlab estetika va tanqidda tug'ilgan, shundan keyingina nasr, she'riyat va dramaturgiyada rivojlangan.

Mazkur davrda musiqiy tanqid sohasini jadal rivoj topishi va bu borada ko'plab kompozitor va sozandalarning faoliyati davrning asosiy estetik va badiiy mezonlarini anglashda qaratilgani e'tiborga molik.

Fransiyada yashab ijod qilgan ko‘plab san‘atkorlarning faoliyati musiqiy tanqid va publitsistika sohasini jadal rivojiga zamin yaratib, qo‘lga kiritgan yutuqlari bilan ahamiyatlidir. Aynan mazkur soha o‘z davrining real «ko‘zgu»si bo‘lib, hayotda o‘rin olgan madaniy va musiqiy hodisa va voqeliklarga xolisona nazar bilan boqishga, bo‘layotgan jarayonlarni o‘rganib tahlil qilishga, qolaversa, ijodkorlarni qiziqtirgan va e‘tiborini tortgan masalalar va muammolarga munosabat bildirishga, shaxsiy ijodiy qarashlarini targ‘ib qilishga qaratildi. G.Berlioz zamondoshlari bo‘lgan deyarli barcha taniqli san‘atkorlar, kompozitor va sozandalar, dirijyor va musiqa namoyandalari bu davrda qo‘llariga qalam oladilar (A.Adan, R.Vagner, F.List, R.Shuman va b.).

Musiqaning demokratlashtirish g‘oyasi ushbu davr musiqiy tanqid sohasi olib borgan jadal harakatlarni asosida yotdi. Eng avvalo o‘tkir qalam va nutq mualliflarning bayonotlari publitsistik va demokratik belgilari bilan ajralib turardi. Davriy nashrlarda maqolalar chop etish istagi murakkab va maxsus mavzularni imkon qadar mantiqan sodda shaklda taqdim etishga yetakladi. Bu borada nafaqat maqolalar balki risolalar ham oddiy tilda yozilib, keng kitobxonlar ommasidan idrok etishi uchun chop etildi. 1821 yil oktabrda «Revue encyclopedique» (Ensiklopedik sharh) gazetasida tanqidchi F.Frankerning fikri bu haqda dalolat beradi: “Musiqqa hatto quyi tabaqa odamlariga ta’lim berib o‘qitilishiga munosibdir”<sup>19</sup>.

Parijdagi ko‘plab davriy nashrlar o‘z sahifalarini bahs-munozaralar maydoniga aylantirish uchun taklif qilgan. Bular asosan ixtisoslashgan yoki siyosiy tavsifdagi nashrlar bo‘lib, badiiy tanqid uchun keng eshiklarni ochib berdi. Bu davr Fransiyaning ko‘zga ko‘rinarli va nufuzli gazetalari orasida «L’Artiste» (San‘atshunos), «Revue des Deux Mondes» (Ikki dunyoni ko‘rib chiqish), «Globe» (Globus), «Revue encyclopedique» (Ensiklopedik sharh) va «Journal des Debats» (Munozaralar jurnali) kabilarni keltirish mumkin. Ushbu nashrlardagi maqolalar muhokama qilingan masalalarni ko‘lami kengligi va rang-barangligi bilan ajralib turgan.

«L’Artiste» gazetasida J.Janening «Maxluq rassom» va A.Joanoning «Tanqid nuqtai nazari» (1831), J.B.Parfondrining «San‘at haqida ta’limot. Maxsus tanqid», «San‘atga nazar» (1836-1837), A.Giyoning «Ilhom nima?» (1837) nashr yuzini ko‘rgan maqolalari katta qiziqish uyg‘otgan.

«Revue des Deux Mondes» gazetasi sahifalarida esa E.Kinening «San‘at ruhi haqida» (1839), T.Gotening «San‘atdagi go‘zallik haqida» (1847), E.Delakruaning

---

<sup>19</sup> Солодовникова Т. Музыкальная критика первой половины XIX века на страницах периодических изданий Франции / Коммуникация в современном мире. Материалы всероссийской научно-практической конференции (16-мая). – Воронеж, ВГУ, 2006. С.110-112.


«Go‘zallar muammolari» (1854) kabi musiqiy tanqidiy maqolalari chop etildi. 1830-1846 yillar mobaynida «Globe» gazetasi L. Vitening «Tasviriy san‘at, adabiy-badiiy tanqid» nomli maqolasi va yana bir qator san‘at masalalariga bag‘ishlangan qiziqarli nashrlarni o‘z sahifalarida havola etadi.

Asr boshidagi eng yorqin publitsistlar orasida Fransua-Jozef Fetis (1784-1871) nomi ajralib turadi. Olim, musiqa yozuvchisi va tanqidchisi, kompozitor o‘z ijodida musiqa estetikasi masalalariga katta e‘tibor qaratib musiqa ta‘limi targ‘ibotchisi va tarixiy konsertlar tashkilotchisiga aylangan.

1827 yili F.-J. Fetis tashabbusi bilan Fransiyada birinchi haftalik «Revue musicale» (Musiqiy sharh) jurnaliga asos solindi. Mazkur nashr musiqa san‘ati muammolariga bag‘ishlangan. Muallif shuningdek, bir vaqtning o‘zida «Temps» (Vaqt) va «National» (Milliy) gazetalarining musiqa sharhlovchisi bo‘lib faoliyat olib boradi.

Shuni qayd etish lozimki, Fransiya musiqiy tanqidining ilk bosqichida savodsiz yondashuv va havaskorona yondashuv mavjud edi. Aynan F.-J. Fetis birinchi bo‘lib kasbiy ixtisoslashtirilgan nazar bilan zamonaviy musiqiy tanqidga asos soldi. Uning maqolalarida musiqa tarixi, nazariyasi va falsafaning turfa va xilma-xil masalalari, shuningdek, zamonaviy musiqa madaniyatining keng doiradagi hodisa va voqealari bilan tanishtirish kabi targ‘ibotchilik ishlari amalga oshirilgan.

F.-J. Fetisning qiziqarli ishlaridan biri «Musiqi falsafasi va poetikasi haqida»gi maqolasi ilk bor 1828 yili «Revue musicale» jurnalida chop etildi. Yuqorida muallifni musiqa san‘ati haqida keltirilgan ta‘riflari qatoriga ushbu satrlarni ham qo‘shish mumkin: «Musiqi nafaqat ifoda etish, balki, hayajon keltirishga qodir san‘atdir»<sup>20</sup>.



g‘oyalarni quvvatlagan musiqa va adabiyot arboblarni o‘z safiga birlashtirdi. 1833



*Fransua Jozef Fetis  
(1784-1871)*

<sup>20</sup> O‘sha manba: 110 bet (tarjima bizniki – R.T.)

yildan boshlab nashr etiladigan «Menestrel» (Ministrel) jurnali bu borada betaraf pozitsiyani egalladi.

XIX asr boshlarida kompozitorlar o'rtasida o'z ijodini bosma nashr, so'z yordamida asoslash va himoya qilish, hamfikrlar ijodini qo'llab-quvvatlash, raqiblar ijodini tanqid qilish borasida an'ana shakllandi. Bu kompozitor-tanqidchilarning chiqishlariga publitsistik va munozaralik qirralarni ato etdi.

Musiqqa muammolarining mutlaq yangi talqini kompozitor Gektor Berlioz tanqidiy opuslarida namoyon bo'ldi. Ma'lumki, o'zini musiqiy publitsistik, tanqidiy faoliyati davomida u ko'plab maqola va felyetonlar yozgan. Ular qirq yildan ortiq (1823-1864) vaqt davomida Parij gazetalari sahifalarida deyarli har kuni bosib chiqarilgan: 1823 yildan «Corsaire» (Korsar), 1829 yildan e'tiboran «Correspondent» (Muxbir), 1834 yildan esa «Gazette musicale de Paris» va «Journal des Debats» nashrlari shular jumlasidan.<sup>21</sup> Fransiyada mashhur bo'lgan nashriyotlari tomonidan muallifning tanqidiy bisotining katta qismi chop etildi.

G.Berlioz o'z maqolalarida «Musiqada his-tuyg'u va aql bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi» faqat «bilim va ilhom uyg'unligi san'atni tashkil qiladi», deb ta'kidlagan. Nemis kompozitori L.Betxovenning timsoli G.Berlioz uchun san'atda eng yuksak, erishib bo'lmaydigan jasorat ramzi sifatida qayd etilib, tanqidiy asarlarida ochib berilgan<sup>22</sup>.

Gektor Berliozning musiqqa tanqidiy qarashlariga venger kompozitori Ferens Listning «Parij» davridagi adabiy va publitsistik faoliyati (1834-1840) yaqin turadi.

1835 yil maydan to oktabr oyiga qadar «Gazette musicale de Paris» nashrida fransuz tilida «San'atda odamlarining mavqeyi va ularning jamiyatda yashash sharoitlari to'g'risida» nomli umumiy sarlavha ostida chiqqan bir qator maqolalarda F.Listning musiqiy – tanqidiy qarashlari yaqqol namoyon etildi.<sup>23</sup> Maqolalarda kompozitor musiqiy ta'lim va ma'rifat zarurligini qayd etib, estetik va axloqiy tomonlarga katta urg'u beradi. San'atning chinakam go'zalligi faqat yuksak axloqiy g'oyalar bilan bog'liq ekanini qayd etib, musiqqa san'ati odamlarni bir-biriga bog'lovchi va birlashtiruvchi kuch, deya insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiluvchi muhim vosita ekanini ta'kidlaydi.

F.Listning ko'plab maktublari aynan ushbu gazetada nashr yuzini ko'radi. Xususan, 1835 yil 6 dekabrda «Jorj Sandga», 1838 yil 25 martda «Lui de Ronsho»,

---

<sup>21</sup> Gazette musicale de Paris: Free Download, Borrow, and Streaming: Internet Archive <https://archive.org/details/gazettemusicaled18342pari/page/n5/mode/2up?view=theater>

<sup>22</sup>Гектор Берлиоз: Избранные статьи. – М.: МУЗГИЗ, 1956; Большой трактат о современной инструментовке и оркестровке – М.: Музыка, 1972; Избранные письма. В двух книгах. Книга 1. 1819-1852. – Л.: Музыка, 1984; Книга 2. 1853-1868. – Л.: Музыка, 1982.

<sup>23</sup>Ференц Лист: Ф.Шопен – М.: МУЗГИЗ, 1956; Избранные статьи /Ред.Я.И. Мильштейна. – М.: Госмузиздат, 1959.

1838 yil 8 iyulda «Genrix Geynga», 1839 yil 24-oktabrda «Gektor Berliozga» yozilgan maktublar keng jamoatchilik e'tiboriga havola etildi.

Ushbu xatlar, shu yillari davriy nashrlari sahifalarida shiddat bilan olib borilgan bahs-munozaralar dalili sifatida, Parijda faoliyat olib borgan kompozitorlar ijodini baholashga qaratilgan maqolalarga o'ziga xos javoblar bo'ldi. Xatlar, har doim ham ijobiy «do'stona» murojaat shaklida bo'lmagan. Masalan, F.Listning G.Geynega yozgan maktublari ular o'rtasida munosabatlari buzilishi va 1844 yil aprel oyida batamom yakunlanganidan dalolat beradi.

Har qanday sohada e'tirofga sazovor bo'lgan san'atkorda, ma'lum vaqt o'tib erishgan yutuqlariga baho berish, ularni tahlil etish, qolaversa, hozirgi natijalari bilan solishtirish istagi beixtiyor paydo bo'ladi. Taniqli fransuz kompozitori va musiqa tanqidchisi Adolf Charlz Adan (1803-1856)<sup>24</sup> ijodini bu borada misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, kompozitorning tanqidiy va adabiy merosi alohida e'tiborga molik. Uning barcha asarlari u hamkorlik qilgan gazeta va jurnallar uchun

maxsus yozilgan edi. Bularga nafaqat musiqiy – tanqidiy janrlar: maqolalar, sharhlar, qissalar, balki «Felyeton» rukni ostida bosilib chiqqan hikoyalar ham o'rin oldi. A.Adan og'zaki merosi zamondoshlari tomonidan munosib baholangan. G.Berlioz bilan birga u XIX asrning birinchi yarmidagi Fransiyaning eng yirik musiqa tanqidchilariga aylandi. Kompozitorning vafotidan so'ng uning publitsistik va adabiy asarlari 2 jildga birlashtirilib «Musiqachining xotiralari» (1857) va «Musiqachining so'nggi xotiralari» (1859) kabi to'plamlarda chop etildi.

XIX asrning birinchi yarmidagi ayrim taniqli yozuvchilarning musiqa haqidagi fikr – mulohazalari katta qiziqish uyg'otadi.

Stendal musiqani o'zining eng katta ishtiyoqi deb atagan. U o'z ishini Parijning



<sup>24</sup> Adolf Charlz Adan (24 iyul, 1803 – 3 may, 1856) – fransuz kompozitori va musiqa tanqidchisi. Opera va balet janrida sermahsul ijod qilgan. Taniqli baletlari orasida: “Jizel” (1841) va “Korsar” (1856, so'ngi ijod asari), operalari: “Longjumodan kelgan pochta” (1836), “Toreador” (1849), “Agar men shoh bo'lsam” (1852) va “Rojdestveo madhiyasi” (Minuit, chretiens!) shular jumlasidan.

ko‘plab davriy nashrlarida maktublar shaklida nashr qilib, keyinchalik «Gaydn, Motsart va Metastazio hayoti» to‘plamiga (1817) barchasini jamladi.

Musiqqa haqidagi asarlarida Stendal munozarachi sifatida maydonga chiqdi. U musiqqa san‘atining yangi ko‘rinishini romantizm belgilarida ko‘rgan. Muallif musiqqa tarixiga sayohatlar, asarlar tahlili, kompozitorlar va xonandalar ijodlarini tanqid qilib keldi. Y.Gaydn, V.A.Motsart, P.Metastazio, D.Chimaroza, J.B.Pergolezi, J.Rossini ijodlarini o‘rganish haqidagi muallifning fikr-mulohazalari, yangi musiqqa san‘ati namunasi qiyofasini idrok etishga xizmat qiladi deb uylagan. Xususan romantizm belgilarini musiqada ko‘rinishi borasida Stendal shunday yozadi: «Agar bir qarashda romantizm musiqaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin emas deb tuyulsa, bu faqat uning o‘ta qo‘llanishiga moyiligidandir»<sup>25</sup>.

Stendal ba’zida musiqiy atamalarga noto‘g‘ri ta’riflar bergan, ayrim ta’riflar esa juda eskirgan. Yozuvchining badiiy-tanqidiy baholari ham kasbiy yondashuvdan yiroq va o‘z didiga asoslangan. Shu bilan bu asarlarda o‘tgan davrning ruhiyati, buyuk yozuvchining izlanuvchan ongi va estetik qarashlari, hamda uning badiiy ijodini ko‘p jihatdan ochib beradigan o‘ziga xos musiqiy tajribasini qo‘rish mumkin.

Italiya opera teatrlarining spektakllarga muntazam tashrif buyurgan yozuvchi O.Balzak ham, musiqqa haqida o‘z fikriga ega bo‘lgan. Muallif qalamiga mansub ikkita hikoyasi, jumladan, «Gambara» (1837) va «Massimilla Doni» (1839) bu borada musiqiy va estetik muammolar masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu ishga bo‘lgan jiddiy munosabati haqida, yozuvchini professional sozandalar maslahatlariga murojaat qilgani guvohlik qiladi. O.Balzak «Gambara» hikoyasida: «Musiqaning o‘zi bizni tinchlantiradi, qalbimizda cheksizlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Qolgan san‘atlar esa bizga cheklangan quvonch keltiradi» deb, musiqqa san‘ati mohiyati va tabiatini idrok etishga undaydi.<sup>26</sup>

Xristian Iogann Genrix Geyne (1797-1856) ham musiqqa tanqidchisi sifatida faoliyat yuritgan. Uning 1830-1840 yillardagi Parij musiqiy hayoti haqida yozib qoldirgan jonli va quvnoq yozishmalari, o‘sha davr g‘oyaviy-estetik munozaralarining qiziqarli va qimmatli hujjati hisoblanadi. Ularda musiqadagi romantik yo‘nalish vakillari – F.Shopen, G.Berlioz, F.List san‘ati muallif tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlangan. N.Paganini ijrosi haqida uning ishtiyoq bilan bildirgan fikrlari qimmatlidir.

Albatta, yozuvchilar va rassomlarning matbuotdagi chiqishlari biroz boshqacha tavsifga ega bo‘lgan. Ular professional musiqqa ilmi va qarashlarga ega

---

<sup>25</sup> Музыканты наших дней. Стендаль и музыка / Р.Роллан; переводчики Ю.Вейсберг, И.Кунин, Е.Кунина. – М.: Издательство Юрайт, 2023. – 212 с. (tarjima bizniki – R. T.)

<sup>26</sup> Солодовникова Т. Музыкальная критика первой половины XIX века на страницах периодических изданий Франции /Коммуникация в современном мире. Материалы всероссийской научно-практической конференции. – Воронеж, ВГУ, 2006. С.110-112.

bo'lmagani bois, bu borada asosli erkin fikr-mulohazalar olib bormagan, ammo, ishtiyoqi baland musiqa ixlosmandlari bo'lganlari uchun musiqiy premyeralarda muntazam qatnashib, jamoatchilikning didi va qarashlarini shakllantirishda o'z hissalarini qo'shdilar.

1820 yillarning professional musiqa tanqidchilari orasida, ko'zga ko'ringan yirik arboblari, Fransiya musiqashunoslari va tanqidchilari qatorida kompozitor va noshir Kastil-Blaz (haqiqiy ismi Blaz Fransua Anri Jozef (1784-1857), Jyul-Gabriyel Janen (1804-1874) va Eten Jan Deleklyuz (1781-1863) nomlarini qayd etish mumkin. Ularning barchasi «Journal des Debats» gazetasining doimiy tanqidchilari bo'lib faoliyat olib borganlar. Keyinchalik Kastil-Blaz o'rnini kompozitor va tanqidchi G.Berlioz egalladi. Bu gazeta sahifalarida Kastil-Blaz musiqiy felyeton janrini yetakchisi bo'lsa, J.-G.Janen opera teatrida qo'yilgan baletlar haqida, E.-J.Deleklyuz tomonidan Italiya opera teatridagi spektakllari haqidagi maqolalari va bayonotlari nashr qilingan.



*Fransua-Anri-Jozef  
Blaz (1784-1857)*



Shunday qilib, XIX asr boshidagi fransuz davriy nashrlarining maqola mavzulari, mualliflarning faoliyat va qarashlar doirasini o'rganib, quyidagi xulosalar chiqarildi:

- musiqa tanqidchilari va jurnalistlar madaniy hayot rivojida muhim o'rin tutgan. Ko'plab kompozitor va ijrochi – sozandalar ularning bildirgan fikr-mulohazalari va tanqidlariga katta e'tibor bergan;
- XIX asr boshidagi fransuz musiqa tafakkuri ijodiy va ijrochilik amaliyoti bilan uzviy ravishda taraqqiy etadi;
- asosiy ijod g'oyalarni maqola mualliflari Parijning real musiqiy hayotidan olgan.

XIX asrda musiqiy tanqidiy faoliyat ko'lami sezilarli darajada o'sib, musiqiy amaliyotga bo'lgan ta'siri kuchayadi. Muayyan ijodiy yo'nalishlar bilan bog'liq bo'lgan va o'zaro bahs-munozaraga kirishgan qator maxsus matbuot organlari paydo bo'ldi. Musiqiy hayot voqealari mazkur tahlil etilayotgan davrda fransuz nashriy vositalarda keng va tizimli ravishda yoritilib kelindi.

\*\*\*

**Opera san'ati.** Teatr san'ati mamlakatning badiiy hayotida hamisha alohida o'rin tutib kelgan. XIX asrning birinchi yarmida ko'plab yangi, romantik izlanishlar aynan teatr bilan uzviy bog'liq kechdi. Fransuz romantizmining «jarchisi» bo'lmish, buyuk yozuvchi va dramaturg Viktor Gyugo «Kromvel» dramasi yozgan kirish qismida romantik teatrning asosiy estetik tamoyillarini yoritib, unga asos soladi. Teatr sahnalari – yangi san'at uchun keng kurash maydoniga aylandi. V.Gyugo va uning izdoshlarining g'oyalari mazkur davr opera namunalarida yorqin ifodasini topadi. Bu borada XIX asr birinchi yarmidagi fransuz opera san'ati ikkita asosiy janr misolida gavdalanadi. Bular hajviy va katta opera janrlaridir.

Ma'lumki, A.A.Bualdyo, F.Ober, F.Gerold, F.Galevi, A.Adan nomlari bilan bog'liq bo'lgan fransuz hajviy opera, tarixan XVIII asrda paydo bo'lgan va mazkur janr yangi pallada romantik omil va talablarni to'liq ado etolmadi. Romantizmning ta'siri bu borada faqat lirik boshchilikni kuchayishida namoyon bo'ldi (misol tariqasida A.Bualdyoning «Oq xonim» operasini keltirish mumkin).

Fransuz musiqiy romantizmining yorqin ko'rinishi 1830 yillarda Fransiyada rivoj topgan yangi janr – Grand opera (katta opera) misolida o'z aksini topdi. Grand opera – aksariyati tarixiy syujetlarga asoslangan, dabdabali monumental uslubda bajarilgan, shuningdek, ommaviy sahna (xor)larni ko'llashda o'z mahorati bilan ajralib turuvchi janrga aylandi. Mazkur operalarning ilk namunalariga F.Oberning «Portichidan soqov» operasi (1828)ni kiritish mumkin. 1830 yillarga kelib katta opera yetakchi o'rin egallab, o'zining namunalari misollari bilan (J.Meyerber «Gugenotlar» va «Payg'ambar», F.Galevi «Yahudiy ayol» operalari) nom qozondi.

Katta fransuz operasining uslubi ko‘p jihatdan qirol operasi maqomini o‘zida saqlab qolgan va aristokratik tomoshabinlarning didlarini qondirishga qaratilgan san‘at sifatida maydonga chiqdi. Buyuk fransuz operasi uchun shak-shubhasiz klassik fojia janri va uning musiqiy ekvivalenti bo‘lgan lirik tragediya (J.-B.Lyulli, J.-F.Ramo) yonma-yon turgan. Katta operaning 5 sahna harakatidan iborat kompozitsion tuzilishi, spektakl sahnalashtiruvda katta dabdabasi klassitsizm teatri an‘analariga borib taqaladi. Klassik fojia janridan tashqari katta opera syujetlari tarixiy voqealarga asoslangan bo‘lib, an‘anaviy talablarga muvofiq tarixiy personajlarning majburiy ishtiroki bilan taqdim etilgan. (masalan, «Gugenotlar»da qirolicha Margo personaji). Katta operaning o‘ziga xos «tashrif qog‘ozi» sifatida opera tarkibiga J.-B.Lyulli tomonidan o‘z vaqtida joriy qilingan katta balet syuita va monumental xor epizodlarining kiritilishi bo‘ldi.

Katta fransuz operasi asosan V.Gyugo tomonidan ishlab chiqilgan romantik drama estetikasiga tayanib uni o‘zlashtiradi. Bu avvalo: opera syujetini, drama singari, tarixiy voqealar va personajlarning murakkab taqdiri bilan bog‘lashda; tarixiy sahnaviy butaforiyalarning ahamiyati va rolini kuchaytirishda; opera dramaturgiyasida voqealarni bo‘rttirib bezashga bo‘lgan intilishida ko‘rinadi.

1820 yillarda Yevropada tarixiy roman janri mashhurlik cho‘qqisiga ko‘tarildi (V.Skott, P.Merime, V.Gyugo). Tarixiy roman zamondoshlar tomonidan «yuqori» janr sifatida, maqomi xuddi ilmiy tadqiqot o‘rnida e‘tirof etilgan. Aynan tarixiy syujetlar katta fransuz operasi uchun eng muhim tavsifiy belgisi bo‘lib qoladi. Bu borada Grand opera katta xalq harakatlarni aks etuvchi mavzularga murojaat qiladi.

Yangi opera janrining shakllanishida fransuz librettochisi Ejen Skrib katta rol o‘ynadi. Aynan mazkur janrning eng yorqin namunalari muallifiga aylandi. Ma‘lumki, E.Skrib kompozitor J.Meyerberning doimiy ijodiy hamkori bo‘lgan. O‘z vaqtida F.List ham E.Skribni opera dramaturgiyasining eng yirik vakilini sifatida tan olib, librettochini: «yaxshi tayyorlangan o‘yin ustasi»<sup>27</sup> deb bejiz ta‘riflamagan.

E.Skrib, romantik tarixiy romanning shoirona talqinini mukammal tarzda o‘zlashtirib, o‘z librettolarida adabiy prototipga tayangan holda qo‘llagan (masalan, «Gugenotlar» librettosi P.Merimening “Charlz 1X davrlari solnomasi” asosida yaratilgan).

Odatda, katta opera janrining syujet dramaturgiyasi tarixning mashhur lavhasi fonida rivoj topayotgan ishqiy munosabatlarni yoritadi. Xususan, an‘anaviy melodramatik harakat ikki, qarama-qarshi turgan dramaturgik kuchlarning taqqoslanishi (jang sahnalarini kiritilishi), shuningdek, vakillari orasida paydo bo‘lgan muhabbat o‘ti tufayli asarning dramatik, fojiali tavsifini kuchaytirib beradi.

---

<sup>27</sup> Bu haqda qarang: Ф.Лист Большая опера // Музыкальная жизнь. – М., 2001, № 12.


E.Skrib librettolari nisbatan shartli ko‘rinishga ega. Bu borada uning ijodida turg‘un syujet motivlarini belgilab ko‘rsatish mumkin:

- fojiali tushunmovchilik yoki asossiz ayblov;
- qasos;
- yashirin xayrixohlik;
- majburiy turmush;
- fitna uyushtirish;
- fidoyilik.

Bu borada E.Skrib yangi opera libretto turning yaratuvchisiga aylandi. Undan oldingi klassik namunalari italyan opera seriyasining librettolaridan olingan bo‘lib (asosan tarixiy yoki afsonaviy syujetlar bilan bog‘liq), italyan dramaturgi P.Metastazioga nomi bilan e‘tirof etiladi. Biroq, italyan operasida qahramonlarning his-tuyg‘ulari doimo birinchi o‘rinda turgan. Hissiyot holatlarni aks etuvchi nomerlar, musiqiy janrning dramaturgik asosini tashkil qilgan ariyalar misolida gavdalanadi.


Yangi omillarni his qilgan E.Skrib, tarixiy syujetdagi kutilmagan va ba‘zan hayratlanarli vaziyatlarni namoyish etishga qaratilgan voqeliklarga urg‘u beradi. Vaziyatdan vaziyatga qadar kutilmagan hodisalarni yoritilishi, tom ma‘noda musiqiy dramaturgiya qonuniyatlarini o‘zgarishiga olib keldi.

Musiqiy harakatdagi vaziyatlarning aniqlashda ansambllar, xorlar, to‘qnashuv guruhlar, hattoki, ommaning musiqadagi qarama-qarshi turishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Aynan monumental ommaviy sahnalar katta operaning o‘ziga xos uslubini belgilab berdi va jamoatchilikning tasavvurini hayratda qoldirdi. Bu janrning zaiflik tomoni personajlarning musiqiy tavsifi nisbatan sust yoritilishida ko‘rinadi. Katta opera ruhiyatni nozim qirralarini ochib beruvchi hissiyotlar olami bilan emas, balki, tashqi dabdabadorlik va ko‘zni qamashtiruvchi effektlari orqali tomoshabinlarni hayratda qoldirgan.



*Ejen Skrib  
(1791-1861)*

Katta opera ijodkorlarning ssenografiya borasida kiritgan yangiliklari o‘z vaqti uchun o‘ta novatorlik ahamiyatga molik bo‘lib, klassik interyerlarni tabiiy landshaftlarga o‘rin bo‘shatishida ko‘rinadi. Operada shuningdek zamonning so‘nggi texnikaning kashfiyot va yutuqlaridan foydalanilgan. Masalan, «Portichidan soqov»dagi Vezuviy vulqonini uyg‘onish tasviri, «Yahudiy ayol»ning tantanali yurish sahnasida 250 ortiq chavandozlar qatnashishi va «Payg‘ambar»da teatr sahna dizayni tarixida «elektr quyosh»(elektr energiyasi)dan ilk bor foydalanilishi jamoatchilikni hayratga solgan.



*Daniel-Fransua-Espri Ober*  
(1782-1871)

Katta operaning yana bir muhim qirrası dahshat va falokatlarning hayratlanarli ko‘rinishini sahnalashtirish bo‘ldi («Gugenotlar»dagi Varfolomey kechasi sahnasi).

Katta operaning kompozitsion dramaturgik tuzilishi tomoshabinlar psixologiyasi (charchab qolishlari)ni inobatga olgan. Opera keng ko‘lamli bo‘lishiga qaramay (an‘anaviy kompozitsiya 5 ta harakatdan iborat), musiqa va sahna ko‘rinishlarda nisbatan qisqa, yorqin kontrastli dekoratsiya va nomerlardan tashkil topishi lozim edi.

L.Kerubini shogirdi, keyinchalik hamkori, vaqt o‘tib Parij konservatoriyasining direktori (1842-1871) bo‘lgan F.Ober, katta opera janrini asoschisi hisoblansa, janrning gullagan cho‘qqisi J.Meyerber ijodi bilan bog‘liq.

F.Oberning «Portichidan soqov» («Fenella») operasi bu borada birinchi tugallangan janr namunasi hisoblanadi. 1828 yil sahnaga qo‘yilgan mazkur opera san‘ati tarixida burilish nuqtasini belgiladi.

1829 yilda Parijda istiqomat qilgan J.Rossining «Vilgelm Tell» asari yozildi, italiyalik ijodkorning asari ko‘p jihatdan buyuk fransuz operasining estetikasi va uslubiga tayanadi.

Janrning keyingi rivojlanish pallasi J.Meyerber nomi bilan uzviy bog‘liqdir («Robert Iblis» (1831), «Gugenotlar» (1838), «Payg‘ambar» (1849), «Afrikalik ayol» (1838-1865)). Bu janrda J.Meyerber bilan bir qatorda F.Ober va F.Galevi ham samarali ijod qilganlar (1930 yillarda F.Oberning «Gustav III, yohud Bal-maskarad» va F.Galevining «Kipr malikasi», «Karl VI», «Yahudiy ayol, yohud kardinal Qizi» operalari yaratildi).

Fransuz milliy klassik opera va vokal maktabining asoschisi – atoqli kompozitor J.B.Lyulli bo‘lib, uning opera teatri o‘z vaqtida P.Kornel va J.-B.Rasin fojialari ta’sirida oyoqqa turdi. Ma’lumki, J.-B.Lyulli teatr xonandalardan ta’sirchan deklamatsiyani talab qilgan. Ushbu ijro uslub fransuz qo‘shiqchilik maktabida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, XVIII asrda J.F.Ramo va Italiya kompozitorlarining operalari ijro etilgan jarayonda o‘tmishdan dong urgan arxaik tus taraldi. K.V.Glyuk ijodi bu borada Italiya va Fransiya opera teatri estetikasidagi inqirozni yengish imkonini ochib berdi.

Qoliplarga qarshi kurash yo‘lida kompozitor operalari ilg‘or tarixiy ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, XVIII asr oxiridagi Fransiya opera san’ati, vokal ijro mahorat rivoji nuqtai nazardan Italiya maktabidan ancha ortda qolgan. Fransiyalik xonandalarda ovoz go‘zalligi, kantilena kuylash va yuksak darajali mahorat yetishmagan.

Sahnada J.Meyerberning «Gugenotlar» misolida katta fransuz opera janrining istiqboli belgilandi. Kengaytirilgan kantilenali ariyalar paydo bo‘lib, mahoratli ijro parchalar bilan to‘ldirildi. Qarama-qarshi kontrast dramaturgiya asosida xonandalarning ovoz tabiati va ijro talqini takomillashib bordi.

# G. Spontini "Vestalka" (1807)

**LA VESTALE**  
*Tragedie Lyrique en trois Actes,*  
*de M. de Souy,*  
 Mise en Musique  
*Par*  
**GASPARD SPONTINI,**  
*Chantier de l'Ordre Royal de la Légion d'Honneur,  
 et de l'Ordre de la Maison de S. A. R. le Grand Duc de Baden-Darmstadt,  
 Compositeur Dramatique ordinaire du Roi de France,  
 Pensionné de sa Majesté,  
 Premier Maître de Chapelle de Sa M. le Roi de France,  
 Membre de l'Académie Royale de Musique de Suède, R. S. A.*

*Représentée pour la première fois, sur le Théâtre de l'Académie Royale de Musique, le 15 Décembre 1807*

Prix : 80<sup>r</sup>

A PARIS, Chez M. les Crand, Rue du Mail, N.° 13.  
 A la Haye, chez F. J. Weygodt.

Propriété des Editeurs. Déposé à la D<sup>m</sup>e de la Lib<sup>r</sup>e  
 ( - 00 )

**OUVERTURE**

And.<sup>te</sup> sostenuto.

1<sup>re</sup> Violon  
 2<sup>e</sup> Violon  
 2 Flûtes  
 2 Hautbois  
 2 Clarinettes  
 2 Cors en Re  
 2 Cors en Fa  
 2 Trompettes en Re  
 2 Bassons  
 1<sup>re</sup> et 2<sup>e</sup> Trombones  
 3<sup>e</sup> Trombone  
 Timbales en Re  
 Altos  
 Violoncelle  
 C-Basse

And.<sup>te</sup> sostenuto. 700

**LA VESTALE**  
 ACTE PREMIER

Le théâtre représente le Forum. A gauche l'Atrium, ou logement particulier des Vestales, qui communique par une colonnade au temple de Vesta; sur le même côté et vis-à-vis l'Atrium le palais de Numa et une partie du bois sacré qui l'entoure. Le fond représente le mont Palatin et les rives du Tibre. On voit sur la place les préparatifs d'une fête triomphale. (Le jour commence à peine)

SCÈNE PREMIÈRE.  
 LICINIUS, CINNA.

(Pendant la ritournelle, Licinius est appuyé contre une des colonnes de l'Atrium; Cinna sort du bois sacré.)

And.<sup>te</sup> sostenuto.

1<sup>re</sup> Violon  
 2<sup>e</sup> Violon  
 2 Hautbois  
 2 Clarinettes  
 2 Cors en Mi b  
 2 Bassons  
 1<sup>re</sup> et 2<sup>e</sup> Trombones  
 3<sup>e</sup> Trombone  
 Altos  
 Licinius  
 Cinna  
 1<sup>re</sup> et C-Basse

And.<sup>te</sup> sostenuto. 700

**BALLET**

Larghetto sostenuto.

1<sup>re</sup> Violon  
 2<sup>e</sup> Violon  
 Hautbois  
 Clarinettes  
 Cors et Tromp en Mi b  
 Bassons  
 Timbales en Mi b  
 Altos  
 Vclles et C-B.

Larghetto sostenuto. 700

# F. Ober «Fenella, yohud Portichidan soqov» (1828)

Edition Eulenburg


No. 689

## AUBER

### La Muette de Portici

The Dumb Girl of Portici  
Die Stumme von Portici

#### Overture



Ernst Eulenburg Ltd.  
London - Zürich - Mainz - New York

Printed in England

La Muette de Portici

Overture

Allegro assai. D. F. E. Auber. 1782-1871



Flauto piccolo  
2 Flauti  
2 Oboi  
2 Clarinetti in C  
2 Fagotti  
I II  
4 Corni in B III IV  
2 Trombe in D  
3 Tromboni  
Ophicleide  
Timpani in D-G  
Triangel  
Piatti  
Tamburo militare  
Violino I  
Violino II  
Viola  
Violoncello e Contrabasso

№ 689. E. E. 3779 Ernst Eulenburg Ltd., London - Zurich

14

### ДѢЙСТВІЕ ПЕРВОЕ. АКТЪ ПЕРВЫЙ.

ИНТРОДУКЦИЯ И АРІА. №1. INTRODUCTION ET AIR.

Allegro maestoso. (♩ = 132)

PIANO.



Сопраны.  
Теноры.  
Басы.

Да зарав - стнуеть нашъ князь мал.  
Du prince, ob-jet de notre a -

Да зарав - стнуеть нашъ князь мал.  
Du prince, ob-jet de notre a -

11041

28

### КОРЬ. №2. СЕНСОР.

Allegro maestoso. (♩ = 132)

АЛЬФОНСЪ.  
ALPHONSE.

Видѣлъсь будущею радостъ - савуелью - лова приташенный съ вѣрь.  
Mets du cor. te regardes-tu en ce jour tendant les accents so - lea.

ЛОРЕНЦО.  
LORENZO.

бѣть!  
сенс.

PIANO.

(уходить)

пудусть въ танъ все оста. ет. савуельши въ Вожій храмъ, да от цемъ, а пойду.  
nets; cher Lorenzo, de la pri. des orgueilleux rejoints - dre mon père et nous suivre aux au. tels.

L'istesso tempo.



11042

# J. Rossini «Vilgelm Tell» (1829)



## GUILLAUME - TELL

Ноты с сайта [www.notarhiv.ru](http://www.notarhiv.ru)

### OUVERTURE

Andante (♩ = 55)

PIANO

**Нар**

### TRIO.

All<sup>o</sup> maestoso (♩ = 120)

PIANO

GUILLAUME.

Quand l'Helvé-tie est un champ des suppli-ces Oû il on mois-

son - ne ses en - fants, Que de Géa-

ler - tes ar mesoient rom - pli ces Combats et meurs pour nos - ty-

- rans combats et meurs com - bats et meurs pour nos ty-

### SCÈNE et FINAL.

Moderato.

GUILLAUME

Je te bénis en répandant des larmes,

PIANO

Et je reprends ma force sur ton sein; Le calme de ton cœur a raffermi ma

main. Plus de faiblesse, plus de larmes, Qu'on me rende mes

ar - mes. Je suis Guillaume Tell en fin!

# J. Meyerbeer "Pag'ambar" (1849)

**Der Prophet**

Grosse Oper in fünf Aufzügen

composé par

von

**GIACOMO MEYERBEER.**

Vollständiger Klavierauszug.

Eigenthum der Verleger.

Leipzig: Breitkopf & Härtel.

Paris, G. Brandus & S. Dufour. London, Cramer, Beale & Co.  
Mailand, L. Ricordi.

Pr. 4 Thlr. netto.

Eingetragen in das Verzeichniss

**DER PROPHET**

Oper in fünf Akten  
von  
**GIACOMO MEYERBEER.**

+  
**AKT I.**

Das Theater stellt eine holländische Gegend in der Umgebung von Dortrecht vor. Im Hintergrund bemerkt man die Maass, zur Rechten ein festes Schloss mit Zugbrücken und Thürmchen, zur Linken zu dem Schlosse gehörige Pachtgüter und Mühlen. Auf derselben Seite, im Vordergrund, Kornäcker, ländliche Tische, Bänke u. s. w.

**NO 1. EINLEITUNG und CHOR der LANDEUTE.**

Bei dem Anfang des Vorhangs ist das Theater leer. Ein Schäfer kommt und geht mit seiner Schale, wie das Zeichen. Ein anderer Schäfer (in den Couliissen) antwortet ihm von fern. Hierauf öffnen sich die Thüren der Hütten, die Bauern kommen mit ihren Werkzeugen heraus, die Müller mit Mehlsäcken auf dem Rücken, u. s. w.

Allegretto moderato. M. M.  $\frac{2}{2}$  = 83.

Pianoforte.

Der Vorhang geht auf.

**ARIE.**

Un poco meno mosso.  $\frac{3}{4}$  = 138. (mit Begeisterung.)

Harfen. Fides. Wirf dei\_nes

Lichts bli\_tzen\_den Strahl in sei\_ne Ser\_le, der Wahr\_heit

Glanz lau\_tre sein Herz von Schuld und Feh\_le! Wirf dei\_nes

Lichts bli\_tzen\_den Strahl in sei\_ne Ser\_le, ja lau\_tre

**CAVATINE.** Timp.

Andantino cantabile.  $\frac{3}{4}$  = 80. con portamento. dim.

O du, der mich ver\_las\_sen, mein Herz, mein Herz, ent\_waff\_net

ist's, ent\_waff\_net ist's! Die Mut\_ter kann nicht has\_sen, lebwohl, lebwohl, lebwohl, leb

wohl, mein Kind! Die Mut\_ter hat Ver\_ge\_bung nur, Ver\_ge\_bung

mir für dich und Schmerz! Ich ha\_be Al\_les dir, ja

Bass Clar. Clar. Str. 1. Cor. Bass Clar. dolce



Bu borada XIX asrda Fransiya opera rivojiga hissa qo'shgan kompozitorlarning ro'yxatini keltiramiz:

- Lui Abadi (1814-1859)
- Fransua Bazen (1816-1878)
- Gektor Berlioz (1803-1869)
- Berten Luiza (1805-1877)
- Alfred Bryuno (1857-1934)
- Fransua Adriyen Bualdyo (1775-1834)
- Pyer Gavo (1761-1825)
- Aristid Ginyar (1822-1898)
- Feliks Godefrua (1818-1897)
- Mark Antuan Madlen Dezojye (1772-1827)
- Viktoren Jonsyer (1839-1903)
- Kastilb-Blaz (1784-7857)
- Sharl Lekok (1832-1918)
- Jan-Fransua Lesyuyor (1760-1837)
- Arman Limnander de Nivengove (1814-1892)
- Jak Fereol Mazas (1782-1849)
- Jyul Massne (1842-1912)
- Edmon Odran (1842-1901)
- Ernest Reyer (1823-1909)
- Vinchenso Fyokki (1767-1845)
- Pyer Jozef Giyom Simmerman (1785-1853)
- Moris Emmanuel (1862-1938)
- Kamil Erlanje (1863-1919)

\*\*\*

**Balet san'ati.** Romantik adabiyotida subyektivizm, voqeliklardan qochish, o'tmishni ideallashtirish, ekzotik mamlakatlar bilan bog'liq mavzularga qiziqish, sof fantastika olamiga chekinish ko'zga tashlanadi. San'atda ijtimoiy hayotda hukmronlik qilayotgan va yovuzlikka qarshi turgan yolg'iz qahramon obrazi tasdiqlanadi. Bu borada V.Gyugo romantizmning yetakchi nazariyotchisi va yozuvchisi edi.


Simfonik va opera musiqasida romantizm omillari jadal rivoj topadi. Operalarda raqs tasvirlarining o'rni kengayib romantik balet partiturasini rivojiga zamin yaratdi (D.Ober, J.Meyerber va boshqa kompozitorlarning operalari shular qatoridan).

Balet san'atida romantizmning rivojlanishi adabiyot va falsafiy yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Qadimgi antik mavzulardan chekinish, voqelikning murakkab ziddiyatlarini aks ettirish, insonning ichki qarama-qarshi dunyosini

ochishga murojaat qilish boshchilik qiladi. Orzu va haqiqat o'rtasidagi fojiali ziddiyatni ochish maqsadi ushbu turdagi baletlarning syujet qurilishining asosiy tamoyiliga aylandi. Bu borada nazariyotchi, tanqidchi, ssenarist Teofil Gotye (1811-1872) ijodiy faoliyati e'tiborga molik.

Romantizm davrida raqsda uslubiy va kompozitsion texnikalarni yangilanishi ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, xoreografiya partiturasining asosini klassik raqs tashkil etadi, ammo muhim o'rin pantomimaga berilgan. Hissiy raqsning tasdiqlanishi, barmoq texnikasining takomillashuvi, ayol raqsi mavqeyi o'sishi romantik baletida ustun qildi. Raqs shakllarining takomillashuvi, plastik mavzular va leytmotiv harakatlari rivoji simfonik raqs janrini paydo bo'lishiga asos soldi. Sahnada yakka va guruhli parvozlar uchun keng moshineriyadan<sup>28</sup> foydalanildi. Romantik baletlarning musiqiy dramaturgiyasi ham yangi topilmalar bilan boyitildi.

Balet musiqasi rivojida Adolf Adanning o'rni alohida e'tiborga molik. Uning balet musiqasi raqs san'atining mohiyatini to'g'ri tushunish, musiqaning ritmik ravshanligi va shoironaligi, musiqiy obraz ifodaviyligi bilan ajralib turgan. O'z asarlarida kompozitor milliy kuylardan foydalanishga harakat qildi. Simfonizm elementlari birinchi marotaba muallifning «Jizel» partiturasida ochib berilgan. O'z vaqtida rus kompozitori P.I.Chaykovskiy uning baletlarini yuqori baholagan.



*Adolf Adan  
(1803-1856)*

A.Adan Fransiyaning eng mashhur va sevimli kompozitorlaridan biri bo'lgan. Uning opera va baletlari jamoatchilik orasida katta muvaffaqiyatlarga erishdi, ijodkor sifatida shuhrati Jahonga tanildi. Kompozitorning ijodiy bisotida 46 dan ortiq opera, 18 balet (shu jumladan «Dunay bokira qizi», «Korsar», «Faust») o'rin olgan. Kompozitor musiqasining ohanglari go'zal va betakror bo'lib, o'zini plastikasi, orkestr cholg'ulashtirilishi borasida nozik didi bilan ajralib turgan.

A.Adan Parijda, pianist-sozanda oilasida dunega keldi. Parij konservatoriyasida musiqa ta'limini oldi. F.Bualdyo<sup>29</sup> bilan ijodiy uchrashuvi va keyinchalik uning sinfida musiqa sir-asrorlarini o'rganib takomillashtiruvchi, kompozitorlik qobiliyatini kashf qilishda muhim o'rin tutdi.

A.Adan ko'lgaga kiritgan yutuqlari orasida 1825 yili nufuzli Rim mukofoti bo'ldi. Ustozi F.Bualdyo tavsiyasi bilan A.Adan o'z ijodiy nigohini teatr musiqasiga

<sup>28</sup> Mashineriya – sahna harakati uchun mo'ljallangan mexanizm uskunalari.

<sup>29</sup> F.Bualdyo o'sha davr fransuz kompozitorlarining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan.

qaratadi. Bu borada ustoz va shogirdni uzoq yillar mobaynida ijodiy hamkorlik bog‘lab kelgan.

Kompozitorning birinchi hajviy operasi rus tarixi syujetidan olingan bo‘lib, Petr I hayotidan lavhalarni gavdalaydi. Asar «Petr va Yekaterina» deb nom olgan. Taniqli hajviy asarlari qatorida «Kulba» (1834), «Lonjyumotadan pochta» (1836), «Ivetolik qirol» (1842), «Kaliostro» (1844) kabilarni keltirish mumkin. Kompozitor vaqt nuqtai nazardan tez va samarali ijod qilgan. Jumladan, «Kulba» operasini 15 kunda, «Jizel» baletini 3 haftada, «Agar men qirol bo‘lganimda» operasini esa 3 hafta ichida yozib nihoyasiga yetkazdi. Bu ijodiy qirrasini uning katta iste’dodidan voqif qiladi. Ijodiy bisoti orasida «Jizel» (libr. T.Gotye va G.Korali) baletining hayoti, fransuz romantik balet san’atiga asos soldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

A.Adan nomi Rossiyada ham o‘z vaqtida tanilgan. Kompozitor ko‘pchilik uchun faqat «Jizel» (1841) va «Korsar» (1856) baletlarining ijodkori sifatida tanilgan.

A.Adan ma’lum muddat davomida kompozitorlik faoliyatini chetga surib asosiy e’tiborini musiqiy tanqidga qaratadi. Hajviy opera teatri direktori bilan murosa topolmay A.Adan o‘zining Milliy teatrini ochishga qaror qildi. Biroq, bir yildan so‘ng teatrning moliyaviy ahvoli inqirozga uchragach, u qayta kompozitorlik ishiga ko‘l o‘radi. Aynan 1847-1848 yillar uning ijodida ko‘plab maqola va felyetonlar bosma nashrlarda chiqishi va tez orada o‘z kitobxon shinavandalarga ega bo‘lgani ma’lum. 1848 yildan e’tiboran otasi Parij Konservatoriyasida, professor lavozimida faoliyat olib boradi.

Filipp Talyoni (1777-1871) – romantik baletning birinchi raqs ustalaridan biri edi. U Parijga kelib (1799) taniqli J.-F.Kulon sinfidagi ta’lim olgan va Yevropaning turli teatrlarida ijodiy faoliyat olib borgan. Uning ilk spektakllari Vena teatri sahnasida qo‘ygan («Terpsixora saroyida yosh nimfani qabul qilish marosimi» (1822)).

F.Talyoni Parij opera teatri uchun D.Ober musiqasi, E.Skrib librettosi asosida «Xudo va Bayaderka» opera-baletini (1830) sahnalashtirdi. J.Meyerberning «Robert Iblis» operasidagi «Rohibalar baleti» sahnasi ilk bor romantik balet xoreografiya partiturasini yozishga turtki bo‘ldi.

«Silfida» (1832) – romantik yo‘nalishdagi dasturli spektakl sifatida nom qozondi.<sup>30</sup> Baletda J.Shneysxoffer musiqasining ohangdorligi va raqs tabiatiga mosligi, ikki qarama-qarshi mavzuning rivojlanish tamoyillari, shuningdek, rassom P.Sisei dekoratsiyalari, E.Lamingning liboslari haqiqiy va fantastik olamning kontrastini ochishda yetakchilik qildi. Teatr tarixida mazkur balet «Jizelning katta

---

<sup>30</sup> Il ovaga qarang

singlisi» deb nom qozonishi bejiz bo‘lmagan. Mazkur asar balet san’atida haqiqiy inqilobni amalga oshirdi. «Silfida»ni qadami bilan sahnaga romantizm baleti ko‘tarilib, raqs san’ati haqidagi eski tasavvurlarni chetga surdi va biz bilgan bugungi kun klassik balet qonuniyatlarini shakllantirdi. Baletda ayol raqsi boshchilik qilib, o‘ziga xos uslub va xoreografiya tili orqali, fantastik dunyo obrazlariga haqiqiy real qahramonlar taqqoslangan. Pantomima va grotesk raqslar yangi xususiyatlarga ega bo‘ldi. Kompozitsiyaning yangi tamoyillari kordebalet<sup>31</sup> raqsini qo‘shilishi bilan tavsiflanadi. Adajio<sup>32</sup> ham alohida ishlab chiqiladi. Bu baletni ijro etgan taniqli raqqoslari qatorida M.Talyoni (Silfida) va J.Mazile (Djeyms) nomlarini keltirish mumkin.



*Filippo Talyoni*  
(1777-1871)

F.Talyoni sahnalashtirgan asalari qatorida «Natali, shveysariyalik sutchi» (1832, A.Giroves, M.E.Karafa musiqasi), «Seraldagi qo‘zg‘olon» (1833, T.Labarra musiqasi), «Dunay qizi» (1836, A.Adan musiqasi) va «Soya» (1840, L.Maurer musiqasi) mashhur bo‘ldi.<sup>33</sup> Ularda mavzu va dramaturgiyaning nisbatan birxilligi, xoreografiyada mavhum, fantastik obrazlarga intilishi seziladi. Asarlarning yutug‘i – klassik raqsning qo‘llanilishi va birinchi marotaba barmoq texnikasini joriy qilinishi bo‘ldi.

Taniqli xoreografning qizi Mariya Talyoni (1804-1884) ham Fransiya bilet san’atining yorqin yulduziga aylandi. Romantik baletning eng muhim uslubiy xususiyatlarini ifoda etgan balerina dastlabki ta’limni J.-F.Kulon<sup>34</sup> sinfida olgan bo‘lsa, so‘ng klassik ekzersis<sup>35</sup> tizimini otasi F.Talyoni qo‘l ostida o‘zlashtirdi (aslida F.Talyoni qizi ijro etgan barcha baletlarning bosh ustози va xoreografiga aylandi).

M.Talyoni debyuti 1827 yili Parij operasi sahnasida o‘tdi. Raqqosa yaratgan «Silfida» obrazi romantik balet rivojida muhim bo‘lib, Jahon shuhratining

<sup>31</sup> Kordebalet – balet spektaklining ommaviy personaji. Shuningdek, balet truppasining eng quyi va eng ko‘p sonli qismi. Bu so‘z fransuzcha "balet tanasi" dan olingan.

<sup>32</sup> Baletda "adajio" so‘zi raqsning sekin qismini anglatadi.

<sup>33</sup> F.Talyoni shogirdi, fransuz klassik raqs maktabining gullagan davrining so‘nggi vakillaridan biri bo‘lmish Leopold Adis o‘zining "Teatr raqsi nazariyasi" (1859) kitobida bu voqealarni batafsil ochib bergan.

<sup>34</sup> Jan-Fransua Kulon (1764-1836) – mashhur fransuz balet artisti va o‘qituvchisi. U Parij milliy operasi teatri sahnasida chiqish qildi.

<sup>35</sup> Ekzersis – jismoniy mashqlar bo‘lib klassik raqs darsining asosini tashkil yetadi. Unga mushaklarning kuchini, va egiluvchanligini ta’minlab beruvchi, rivojlantirishga qaratilgan turli xil o‘quv mashqlari majmuasi kiradi.

boshlang'ich qadami edi. M.Talyoni sahna chiqishlarining tashqi ko'rinishiga xos bo'lgan tabiiylik va yengillik, mahorat va ibosi tanqidchilar tomonidan alohida ta'kidlanib, uning romantik timsoli she'riyat, tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalarida o'z aksini topdi.

Balerina 1837-1842 yillar mobaynida Rossiyada gastrol safarlari bilan bo'ldi. 1859-1870 yillarda Parij operasida pedagogik faoliyatini olib bordi. Iste'dodli shogirdi Emma Livri (1842-1863) uchun J.Offenbax musiqasiga yozilgan «Kapalak» (1860) baletini sahnalashtirdi.

Klassik balet rivojida M.Talyoni ijrochilik faoliyatining ahamiyati katta. Bu borada «Jizel» (1841) romantik baletning cho'qqisi hisoblanadi.

Ma'lumki «Jizel», T.Gote va J.-D.Sen-Jorjlarning ssenariysi G.Geynening vilislar haqidagi afsonasi asosida yaratilgan. Kompozitor A.Adan musiqasining dramatik va lirik shiddati, partiturada maishiy raqslarni kiritilishi balet rejissyorlari J.Perro va J.Koralli zimmasiga alohida mas'uliyat yukladi. Ular raqs tasvirni rivojlantirishga, unga ta'sirchanlik va hissiylik urg'usini berishga intildilar. Bu borada balet muvaffaqiyatini «jinnilik sahnasi»da pantomima va raqsning ajralmas birligida, «vilis raqsi»ning simfonik tamoyiliga asoslanganligida ko'rish mumkin. «Jizel» baletining talqini yorqin raqqoslar – Karlotta Grizi (Jizel) va Lyusyen Petipa (Albert) ijrosida tanildi.



*Mariya Talyoni*  
(1804-1884)



*Jyul Perro*  
(1810-1892)

Vaqt o'tib romantik baletning janr imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengayib boradi. V.Gyugo va J.Bayron asarlaridan suujet uchun mavzular tanlanadi. Ushbu davr baletlarida shiddatli qahramonga, milliy-tarixiy koloritga, xalq raqslarini qayta ishlashga va ommaviy ta'sirchan sahna ko'rinishlarini rivojlantirishga bo'lgan qiziqish ko'zga tashlanadi.

Dastlab pantomima-akrobatik rollar ijrochisi sifatida ijodini boshlagan raqqos-xoreograf Jyul Perro (1810-1892) romantik balet san'atini rivojida ham muhim o'rin egalladi. Xoreografiya ta'limini O.Vestris sinfida olgan J.Perro – Parij operasining yirik raqqosasi M.Talyonini sahnadagi sherigi edi (1830-1835).

Uning ijrosi virtuoz mahorati bilan ajralib, yorqin dramatik ekspressivlik bilan uyg'unlashtirilgan. J.Perro birinchi sahnalashtirgan spektakli – «Kobold» (1938) hisoblanadi. K.Grizi bilan ijodiy uchrashuvi uni Parijda «Jizel»ni sahnalashtirishiga sabab bo'ldi.

J.Perro ijodi demokratik omillari bilan ajralib turgan. U sahnalashtirgan baletlari uchun real voqeyilik, kuchli irodali personajlar tavsifi, keskin dramatik vaziyatlar va fojiali yechim xarakterli edi. Xoreograf fantastik qahramonlariga insoniy tuyg'ularni ato etgan. Balet sahnalarida dramatik va hajviy boshchilikni birlashuvi – harakatchan raqs, pantomima va o'yin raqslarini rivojlantirishga, kordebalet raqslarining o'ziga xosligi esa syujetdagi vazifasini puxta ishlab chiqishga turtki bo'ldi.



***Karlotta Grizi***  
**(1819-1899)**



***Fanni Elsler***  
**(1810-1884)**



***Fanni Cherrito***  
**(1817-1909)**

J.Perroning xoreograf va dramaturg sifatida faoliyati balet san'atida yorqin sahifaga aylandi. Uning kompozitor S.Puni bilan hamkorligi o'ta samarador bo'ldi: «Undina» «Esmeralda» «Katarina, yohud Qaroqchining qizi» «Rassom orzusi, yohud Jonlangan portret», «Eolina, yohud Driada» baletlari va bir qator xoreografik raqs namunalari.

Sezar Puni (1802-1870) musiqasi raqs tabiatiga moyil bo'lib o'zini ohangi, raqsga tushish harakatlari, personajlarning hissiy holatini ifodalash va xalq ohanglarini qayta ishlash bo'yicha o'ta tabiiy edi. Kompozitor balet musiqasi turli davrlarda o'ziga ijodkorlar asarlarida kompilyativ tarzda ishlatgani muallif asarlarining mavqeyidan dalolat beradi.

Kompozitor xoreograflar Jyul Perro, Artur Sen-Leon, Pol Talyoni<sup>36</sup> bilan hamkorlik qiladi va o‘z asarlarini Karlotta Grizi, Mariya Talyoni, Fanni Cherrito, Fanni Elsler, Lyusil Gran kabi davr baletining yorqin yulduzlari uchun maxsus yaratdilar.

J.Perroning dasturiy baletlari «Alma, yoxud o‘lik qiz» (1843, maxsus Fanni Cherrito uchun sahnalashtirildi), «Undina, yohud Nayada» (1843), «Esmeralda» (1844), «Paris sudi» (1846) London sahnasida yaratilgan. Muallifning «Undina, yoxud Nayada» (1843) baleti romantik «Silfida»ning aksidir. Romantik mavzu J.Perro ssenariysida haqiqiy psixologik kuchi bilan ochib beriladi. S.Puni musiqasidagi dramatik elementlar, italiya ohanglari va xalq raqslaridan foydalanishi sahna asarining barcha raqslariga obrazlilik ato etib, personajlar tavsifi ochilishining asosi bo‘ldi. Ayniqsa, Undinaning «soya raqsi» ahamiyatga molik.

Ma‘lumki, V.Gyugoning «Parij Bibi Maryam ibodatxonasi» romani asosida dunyoga kelgan S.Puni «Esmeralda» baletining partiturasini bir qator hissiy hayajonli va jo‘shqin ta’sirchan bo‘lgan musiqiy sahnalari bilan e’tiborni tortadi. Personajlarning o‘ziga xosligi leyt mavzular hamda, spektaklning xoreografik partiturasini orqali raqsdagi dramatik harakatning rivojlanishiga, shuningdek, o‘rta asr Parij aholisining chinakam «olomon» ko‘rinishida yaratilishiga yordam beradi.

«Esmeralda» baletida qatnashgan yorqin va taniqli raqqoslari qatorida Esmeralda – K.Grizi, Grenguar – J.Perro, Feb – A.Sen-Leon nomlarini qayd etish lozim. Mazkur balet 1848 yil balerina F.Elsler bilan Peterburg sahnasida ham qo‘yildi, so‘ng M.Petipa tomonidan 1866 va 1868 yillarda mobaynida qayta talqindan havola qilindi.

Shuningdek, J.Perro Rossiyada yashab ijod qilgan yillarida (1848-1860) Imperator baleti sahnasida o‘n ikkita baletini qo‘ydi. Ularning eng muvaffaqiyatlilari badiiy-adabiy asosga ega bo‘lgan: «Esmeralda» (V.Gyugo), «Faust» (I.Gyote) va «Korsar» (J.Bayron) edi. Oxirgisi muallifning Sankt-Peterburgdagi so‘nggi spektakliga aylandi. Undan keyin Marius Petipa Imperator baletining bosh xoreografi lavozimini egalladi.

Peterburg baleti sahnasida Esmeralda obrazini yaratgan raqqosa Fanni Elsler (1810-1884) – romantik baletdagi realistik omillarining namoyondasi edi. Balerina J.-P.Omer qo‘l ostida Vena shahrida tahsil olgan. Italiya va Londonda singlisi Tereza (1808-1878) bilan yonma-yon spektakllarda ishtirok etgan. 1934 yili Parij operasida debyut chiqishi bo‘ldi.

F.Elslerning ijro uslubi va mahorati o‘ziga xosligi bilan ajralib turardi. Bu avvalo raqslarining dramatik va psixologik boyligi, emotsional ekspressivligi, noyob mimika qobiliyati, parter harakatlarini mohirona ijrosi, barmoqlarda kichik

---

<sup>36</sup> Mashhur italyan balet sulolasining vakili. O‘qituvchi va xoreograf Filippo Talyoni o‘g‘li.

harakatlarning tezligi va sifati tomoshabinlarni lol qoldirgan. Balerina «tavsifiy klassika» janrining asoschisi edi. U klassik raqsning qat'iy qoidalarini erkin tavsifidagi raqs shakli bilan uyg'unlashtirgan. Shuningdek, Amerika shinavandalarini klassik balet bilan ilk bor tanishtirgan raqqosa hisoblanadi (1840).

F.Elser turli xalqlar raqslarida milliy ruh va serqirra xarakterlarni ochib berish qobiliyati bilan e'tiborni tortgan. Balerina dramatik, fojiviy va hajviy rollarni ijro etgan. Raqqos, xoreograf-dramaturg J.Perro bilan ijodiy hamkorligi samarali bo'ldi. Balerina 1848-1851 yillar davomida Rossiya sahnalarida yulduzdek porlagan.

Jan Koralli (1779-1854) – asli italiyalik bo'lgan fransuz raqqosi, baletmeysteri va librettochisi. 1831 yildan boshlab Parij operasining xoreografi bo'lgan. Ijodkor «CHO'loq iblis» (1836, A.-R.Lesajning «Oqsoq iblis» romani asosida) va «Tarantul» (1839, yozuvchi E.Skrib bilan hamkorlikda) sahnalashtirgan baletlari orqali romantizm g'oyalarini ochib bergan. U «Jizel» baleti sahnalashtirilishida ishtirok etgan.

Romantizm davrining italyan prima-balerinasi, «Jizel» baletidagi bosh rolning birinchi ijrochisi Karlotta Grizi (1819-1899) – raqsda parvozlik va yengillikni (M.Talyoni), kuchli barmoq texnikasi va ijro uslubidagi dramatik ekspressivligi (F.Elsler) bilan uyg'unlashtirgan raqqosa hisoblanadi. 1841 yili Parij operasida debyut chiqish qildi. Balerina J.Perro, J.Koralli, J.Mazile baletlarida ijro qilgan. Ijodiy faoliyati davomida Rossiyada konsert safarlari bilan bo'lgan.

Fanni Cherrito (1817-1909) – romantik baletning so'nggi vakillaridan biri. K.Blazis shogirdi bo'lgan. Ijro talqinida yuz imo-ishoraning boyligi, katta mohirlik va ekspressiv raqsi bilan ajralib turgan. «Marmar go'zallik» baletida 1947 yil Parij sahnasida debyut qilgan. A.Sen-Leone sahnalashtirish uslubi raqqosaning balet harakatlari tavsifiga ta'sirini o'tkazgan.

1830-1840 yillar romantik baleti, XIX asr – Yevropa teatrining eng yuqori gullagan cho'qqisini tashkil qilib fransuz klassik raqs maktabi mavqeyini tasdiqladi.

Teatr san'atining har qanday asarida yana bir to'laqonli va eng muhim hammuallif – tomoshabin bor, uning idroki spektaklni tahrir qilish, o'zgartirish, urg'ularni siljitishga qodir. Tomoshabin ba'zan spektaklning umumiy ma'nosi va g'oyasini tubdan o'zgartira oladi. Asarni tomoshabinlar tomonidan qabul qilinishi uning muvaffaqiyati yoki inqirozi, sahnaviy taqdiri va hayotini belgilashga qodir.

# A. Adan «Jizel» (1841)

ЖИЗЕЛЬ

7 10

Действие первое

А. АДАН  
(1803—1856)

Сцена представляет деревушку, окруженную лесами и виноградниками. Золотая осень. Утро. На первом плане слева — дом Жизели, справа — дом, снятый оруженосцем для Альберта.

Вступление

№ 1. АЛЬБЕРТ И ГАНС

*Allegro con fuoco*  
Piano *ff*

Альберт и оруженосец  
*Allegro*  
вст. (Замес)

*p*

Выход Альберта

*pp*

Выход оруженосца

*A1*

№ 3. ЛЮБОВЬ

110

№ 11. НОВАЯ ВИЛИСА — ЖИЗЕЛЬ


Альберт  
*Allegro non troppo*  
*pp*

*mf* *pp*

Выход Жизели  
*Allegro non troppo*  
вст. *pp*

*Moderato*  
*A*  
*ppp*

*A. Adan «Korsar» (1856)*



PAS D'ACTION

А. АДАН, Р. ДРИГО

Moderato

*p*

Andagio

*p*

*simile*

ВАРИАЦИЯ МЕДОРЫ

А. АДАН, Р. ДРИГО

Moderato

*mp*

*f*

*p*

*p*

*p*

PAS DE TROIS

Р. ДРИГО, Ц. ПУНИ

Andantino

*p*

*f*

*p*

S.Puni «Esmeralda» (1844)



**ESMERALDA**  
Ballet de Puni  
pour le Piano  
**S. ПУНИ**  
Propriété de Krich & Co  
S.PETERSBOURG. chez KRICH & Co.  
Commissionnaires de S. St. Pétersbourg.  
Perspective de St. Michel, au coin de la petite  
Morskou, № 12.  
et chez F.L. Thamm, Litaine, maison Kasnikowsky.

ПА ДЕ ДЕ  
из балета «Эсмеральда»  
Выход

С. ПУНИ  
(1802—1870)

Allegro



*mf* *legato sim.*

Вариация Дианы

Allegretto



Poco meno mosso



Вариация солистки  
из балета «Эсмеральда»

С. Пунн



4 8 11 15

Fransiya kompozitorlari musiqiy-sahnaviy janrlar rivojiga munosib hissa qo‘shib balet taraqqiyotini belgilashda katta rol o‘ynadilar. Bu borada XIX asr Fransiya baleti rivojiga hissa qo‘shgan kompozitorlar nomlarini keltiramiz:

- Adolf Adan (1803-1856)
- Alfred Bashele (1864-1944)
- Fransua Benua (1795-1878)
- Nikolya Boksa (1789-1856)
- Ferdinan Gerold (1791-1833)
- Leo Delib (1836-1891)
- Eduar Deldevez (1817-1897)
- Eduar Lalo (1823-1892)
- Daniel Ober (1782-1871)
- Jak Offenbax (1819-1880)
- Sezar Puni (1802-1870)
- Gaston Salver (1847-1916)
- Jan-Madlen Shneysxoffer (1785-1852)

\*\*\*

**Parij konservatoriyasi faoliyati.** XVIII asrning ikkinchi yarmida Parij butun Yevropaning musiqa markaziga sifatida ijrochilik borasida mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Fransiyada ijrochilik tamoyillari targ‘iboti va pedagogik tizimini takomillashtirish borasida, Parij skripka maktabi yetakchilik qiladi va birinchi o‘ringa ko‘tariladi. Bu borada mohirona ijrochilik san‘ati rivoji va taraqqiyoti uchun Parijda eng qulay shart-sharoitlar yaratilgan edi. Aynan Parijda 1795 yili dunyodagi birinchi yangi turdagi konservatoriya ochilib, deyarli yuz yil davomida Yevropaning yirik o‘quv maskaniga aylandi.

Eslatib o‘tish lozimki, 1789 yilga qadar Fransiyada musiqa ta‘limining asosiy muassasasi katolik cherkovi bo‘lgan. Ko‘plab cherkov maktablarining maqsadi – metriz deb ataladigan cherkov xorlari uchun xonandalarga bilim berib, savodxonligini va ijro ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan.

Darhaqiqat, cherkov xizmatlarini o‘tkazish jarayoni eng avvalo musiqiy repertuarining ijrosi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, xonandalarga kontrapunktning boshlang‘ich asoslari, nazariy bilim va ijrochilik amaliyotini rivojiga asoslangan ba‘zi tavsiyalarni o‘z ichiga olishi mumkin edi. Cherkov xizmatlarida musiqa asboblari chalish ham ijrolik san‘atini targ‘iboti va rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Bu yerda fransuz musiqa pedagogikasining uchta asosiy yo‘nalishlarini qayd etish mumkin<sup>37</sup>:

1. 1661 yilda Lyudovik XIV tomonidan tuzilgan Qirollik raqs akademiyasining maqsadi, sozandalar va raqs o‘qituvchilarini tayyorlashga qaratiladi. Qirollik musiqa akademiyasi (1672) ham bu borada rasmiy yordam ko‘rsatadi. Unda J.-B.Lyulli raqslarga jo‘r bo‘ladigan jo‘rnavoz sozandalar, va orkestr tarkibiga kirgan asboblarda chalishni o‘rganadigan maktab tashkil qilishni maqsad qilgan edi. Ko‘p yillar akademiya raqqoslar uchun jo‘rnavoz skripkachini tarbiyalashga urg‘u bergan.

2. Oilaviy ta‘lim shakli muhim rol o‘ynagan (J.-F.Rebel, Fr.Dyuval, J.-B.Ane, J.-B.Sefleytaye, Fr.Frankyor, J.-M.Lekler, P.Gavine oilalari). Asosan oilaviy va xususiy ta‘lim tizimi joriy qilingan bo‘lib, oxirgisi samarador bo‘lishiga qaramay tizimli xususiyatga ega bo‘lmagani. Bu borada oilaviy vorislik o‘zini sermahsul natijalarini ko‘rsatgan<sup>38</sup>.

3. Fransuz pedagogikasida italyan an‘analarining o‘rni va ahamiyati katta bo‘lgan (T.Vitali – J.-B.Senaye sinfida, A.Korelli – esa J.-B.Ane va h.z). Ayniqsa Dj.Tartinining pedagogik tamoyillaridan Fransiyada ham keng foydalanilgan.

Konservatoriya tashkil qilishdan avvalgi davrning eng muhim yutuqlari P.Gavine nomi bilan bog‘liq bo‘lib u yaratgan maktab faoliyati bilan qiyoslanadi. Parij konservatoriyasining yaratilishidan oldin kechgan uzoq muddatli davr mamlakatda umumiy cholg‘u ijrochilik san‘atini rivoji, jumladan, skripka ta‘limining oyoqqa turishi va gullab rivoji uchun uning poydevoriga asos solindi.

1789 yilgi inqilob Parijning butun hayot tarzini o‘zgartirdi. Metrizarlar yo‘qolib, o‘rniga fuqarolikni namoyon bo‘lishiga qaratilgan davlat ta‘lim tizimi joriy qilinadi. Hukumat musiqa ta‘limi oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Ommaviy tadbirlarga jalb qilinishi mumkin bo‘lgan xonanda va sozandalar, aktyorlar va raqqosalar, shoir va rassomlarning yetishmasligi dolzarb masalalar qatorida turadi.

Shunday qilib, butunlay yangi tizim shakllandi. 1784 yilda xonanda va deklamatsiya Qirollik maktabi ochilgan bo‘lib (rahbari F.-J.Gossek), u yerda qo‘yilayshdan tashqari, skripka va klavishali cholg‘ularda chalish o‘rgatilgan. 1792 yilda rasmiylar hukumat homiyligida Milliy gvardiya kapitani Bernar Sarret tashabbusi bilan Milliy gvardiya musiqa maktabi tashkil etildi. 1793 yilda bu muassasa Milliy musiqa instituti bilan birlashtirildi, 1795 yildi esa Parij Oliy milliy musiqa va raqs konservatoriyasiga aylantirildi.

---


<sup>37</sup> Подмазова П. Жанр концерта в контексте французского скрипичного искусства на рубеже XVIII - XIX веков. Автореферат кан. дис. – М., 2019.

<sup>38</sup> Турсунова Г. К вопросу исследования феномена музыкальных династий // Проблемы Науки. 2019. №4 (137). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-issledovaniya-fenomena-muzykalnyh-dinastiy>

1795-yil 3 avgustdagi Konvensiya qarori konservatoriyani tashkil etish to'g'risidagi qonunchilik aktiga aylanib, yangi Fransiya uchun ijodkorlarni shakllantirishga qaratildi.

Tashkilotning tantanali ochilish marosimi 1796-yil 22 oktabrda bo'lib o'tdi. O'shanda konservatoriyaning birinchi direktori Bernar Sarret chiqish nutqida konvetning asosiy talab holatlarini bayon qildi: «...Musika san'atiga munosib boshpana berib, siyosiy himoya bilan ta'minlash; ...cholg'u ijrochilikni takomillashtirish, ayniqsa, puflama asboblarda ijrochilik mahoratini rivojlantirish, musiqaga oid har qanday asarlar, shuningdek, qadimiy va xorijiy cholg'ulari kolleksiyalarini o'z ichiga olgan kutubxona yaratish»<sup>39</sup> lozimligi qayd etilgan.

### *Parij konservatoriyasi*



Shunday qilib, konservatoriya musiqa ta'limi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan birinchi nufuzli ta'lim muassasasiga aylandi. Talabalar kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, Fransiyaning turli vohalaridan qat'iy nazar tanlov asosida qabul qilindi (600 talaba o'qitilishi nazarda tutilgan). 1797 yilda konservatoriyada 125 nafar o'qituvchi faoliyat olib borgan. B.Sarretning taklifiga binoan muassasaga Parijning eng kuchli musiqa san'ati namoyandalari – F.-J.Gossek, A.Gretri, J.-F.Lesyuyor, E.Megyul, L.Kerubini, N.Daleyarak, B.Romberg, P.Gavine, R.Kreyser, P.Rode, P.Bayo va boshqalar faoliyat uchun taklif qilindi.

<sup>39</sup> Bu haqda qarang: Подмазова П. Французское классическое скрипичное искусство и парижская консерватория <https://cyberleninka.ru/article/n/frantsuzskoe-klassicheskoe-skripichnoe-iskusstvo-i-parizhskaya-konservatoriya>

XIX asrda fanlar tizimi kengayib, ularni o'qitish uslubiyoti takomillashib boradi. Parij konservatoriyasida barcha an'anaviy cholg'u asboblari ijrochiligi bo'yicha bilim berish, xonandalik, dramatik san'at, musiqa tarixi va nazariyasi fanlaridan saboq beriladi. 1812 yilda Parij konservatoriyasi qoshida pansionat tashkil etilib, kambag'al talabalar uchun stipendiyalar ta'sis etildi. Shu vaqtda konservatoriya teatri ochilib, spektakl repetitsiyalarining ochiq naymoyishi o'tkaziladi. Talabalarni konsertlari uyushtirildi. 1817-yilda boshlab konservatoriya qoshida Boshlang'ich xonandalik maktabi ochildi.

1828 yilda "Parij konservatoriyasining konsert jamiyati" tashkil topadi, hozirgi kunga qadar poytaxtning musiqiy hayotida muhim rol o'ynab kelmqoda (simfonik yig'ilishlar tashabbuskori va rahbari F.Xabenek edi). Konsertlar konservatoriya binosida, vaqti-vaqti bilan opera teatrlar sahnalarida bo'lib o'tgan.

Parij konservatoriyasining maqomining muhim xususiyati abituriyentlarning yoshi chegaralanmagani, tanlov sinovlari, mukofotlash va rahbatlantirish tizimini o'ziga xosligida bo'lgan. 1803 yildan e'tiboran kompozitsiya kursini muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar "Rim mukofoti" bilan taqdirlanganlar.

XIX asr boshlaridayoq Parij konservatoriyasi Fransiyaning musiqiy – ma'orif faoliyatining markaziga aylandi. Lill (1810) va Tuluz (1826) shaharlarida ochilgan, so'ng Dijon, Lion, Nansi kabi shaxarlardagi o'rta ta'lim muassasalari ham konservatoriya nazoratiga o'tkazildi. Ularni boshqarish Parij konservatoriyasining yetakchi professorlar orasidan tayinlangan bosh inspektor zimmasiga yuklatildi.

1801 yili tashkil qilingan Parij konservatoriyasi kutubxonasida Fransiya'dagi eng yirik musiqaga oid kitoblar kolleksiyasi (jumladan, Rim mukofoti uchun tanlovlarda taqdim etilgan kompozitsiyalarning avtograflari) o'rin oldi.

Parijskaya konservatoriyasi tadqiqot markazi sifatida ham muhim o'rin egalladi: 1940-70-x yillarda musiqa nazariyasi, musiqiy tahlil, musiqiy estetika kabi fanlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Odatda Parij konservatoriyasining skripka sinflarini shakllanish jarayoni ikki davr misolida tahlil qilinadi. Birinchisi (1795-1800) Pyer Gavine, ikkinchisi (1800-1842) esa Rodolf Kreyser, Pyer Bayo va Pyer Rode faoliyatlari bilan bog'liq.

Sakkizta skripka sinfida ta'lim bergan pedagoglari orasida uchtasi Milliy musiqa institutidan o'tgan – F.Blazius, P.Blazius va R.Kreyser, biri xonanda va deklamatsiya maktabidan – M.-A.Genen; qolgan to'rttasi ovoz berish yo'li bilan pedagogik lavozimlariga saylandi – P.Gavine, SH.Berio, J.-F.Lesyuyor, P.Rode.

Pyer Gavine konservatoriya tashkil etilishining birinchi yillaridan boshlab skripka sinflarini boshqarishga taklif qilindi, garchi u allaqachon keksa yoshni qarshilagan va betob holatida bo'lsa ham. Zamondoshlarining ta'kidlashicha, kuchli g'ayrat bilan katta faollik ko'rsatgan Pyer Gavine fidoyilik bilan shogirdlariga 58 mahorat usullarini o'rgatib ularda zukkolik, samimiylik, his-tuyg'ularning tabiiy

ifodasini ijroda ko'rsatishni o'rgatgan, o'z shogirdlarini qo'llab-quvvatlagan holda o'zlariga ishonch hosil qilishni tarbiyalagan.



***Pyer Rode***  
**(1774-1830)**

Uning pedagogik faoliyatining natijasi mashhur etyudlari to'plamida aks etilib, XIX asrga qadar ma'lum bo'lgan ijro mahorat yo'llarini umumlashtirgan nashrni tashkil qildi. Shuningdek, to'plamda o'sha davr uchun yangi bo'lgan badiiy konsert etyudining yangi janri o'z aksini topdi.

Parij konservatoriyasining skripka sinflari rivojlanishining ikkinchi muhim bosqichi uning yetakchi professorlari – P.Rode, P.Bayo va R.Kreyserlarning jadal konsert, pedagogik va uslubiy faoliyati bilan qiyoslanadi.

Pyer Rode (1774-1830) – mohir va yorqin sozanda bo'lib, uning ijrosi P.Bayo fikri bilan aytganda tovush go'zalligi, ohanglarning sofligi va shtrixlarni nozik jilosi bilan ajralib turgan. Sozanda ijrochilikda sentimental-romantik yo'nalishini rivojlantirgan.

O'z vaqtida «Berlin musiqa gazetasi» P.Rode ustoz bo'lgan buyuk J.-B.Viotti an'analarini o'zlashtirgani va o'z ijro talqinida maksimal ravishda yumshoqlik va - mayinlik ato etganini yozadi.



***Rodolf Kreyser***  
**(1766-1831)**

Rodolf Kreyser (1766-1831) o'ttiz yildan ko'proq vaqt davomida muassasada yetakchi professor bo'lib xizmat qildi, ajoyib fransuz skripka virtuoz sozandalarini tarbiyaladi. Uning pedagogik an'analari skripkachining mashhur shogirdi – Lamber Jozef Massar faoliyatida davom ettirildi. Yorqin virtuoz P.Rode, Rossiyaga (Sankt-Peterburgga) ketgunga qadar (1802) birinchi darajali professorlardan biri edi.

Dunyoga tanilgan R.Kreyserning «42 kapris etyudlar»i XIX asr pedagogikasida yangi yo'nalishni belgilab berdi, va bugungi kunga qadar skripkachilarning konsert repertuarini ajralmas asari bo'lib qoldi. R.Kreyser tarbiyalan sozandalar avlodi Fransiyaning yorqin, davrning buyuq sozandalari bo'lib yetildilar. Ular Shar Filipp Lafon (1781-1839), Lamber Jozef Massar (1811-1892).

XIX asrning birinchi yarmida Fransiyaning eng yorqin yakkaxon va ansambl sozandalaridan biri bo'lgan P.Bayo, qirq yetti yil (1795-1842) davomida Parij

konservatoriyasida ta'lim berib, skripka bo'yicha yetakchi professor hisoblangan. Uning sinfidan mashhur skripkachilarning bir necha avlodlari tarbiyalagan. Ular orasida F.-A.Abenek, J.-F.Mazas, E.Soze, SH.Dankl va boshqalar. Parij konservatoriyasining torli cholg'u ijrochiligi bo'yicha uslubiy asoslarini tadqiq qilgan guruhga rahbarlik qilishni aynan P.Bayoga topshirishdi.

Professor o'z hamkasblari bilan J.-B.Viottning badiiy-estetik tamoyillariga tayangani uchun «Uslubiyoti» kitobida musiqachining rivojlanishi uchun muhim bo'lgan musiqiy-estetik tamoyillarini o'zaro birligida rivojlantirish masalasiga urg'u berilgan. Tovush madaniyati, musiqiy didni shakllantirish, ijro shtrixlarini mahorat darajasi, ifoda vositalar tizimini asarni mazmunidan kelib chiqqan holda talqin qilish kabi muhim masalalar ishlab chiqildi.

Taniqli shogirdlari – SH.Lafon, J.-B.Mazas, Belgiya skripka maktabi asoschisi SH.Berio, hamda J.-B.SH.Dankl, F.Xabenek, J.-P.Moren, M.K.Oginskiy, N.L.Veri, A.Robberexts va boshqa nomalar Jahon skripka maktabi dovrug'ini ko'tardilar.

1802 yilda P.Bayo, P.Rode va R.Kreyser hammuallifligi ostida – Parij konservatoriyasi maktabining skripka uslubiyoti («Methode du Violon») nashri qilindi. Uning XIX asrdan boshlab rus tiliga tarjima qilingan to'liq sarlavhasi quyidagicha: «Skripka bo'yicha qo'llanma yoki skripka uchun to'liq nazariy va amaliy maktab» (1868 yilda Avgust Kyundinger tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va shu yilning o'zida nashr qilingan). Mazkur nashr o'sha davrning yangi estetikasini aks ettirgan holda ijrochidan «ommani egallash», tinglovchilarning «ruhini ko'tarish» va shu kabi muhim ijroviy qirralarni o'rganishni talab qilgan. Ikkinchidan, uslubiyot nuqtai nazaridan uni malakali pedagog kadrlari tarbiyalash, undagi qiyinchiliklar yengish «mexanizm» bilan namoyish qilib berilishi ishning qiymatini yanada ko'tardi.

Parij konservatoriya maktabining o'qitish uslubiyoti Jahonda tanildi va uning asosida turli Yevropa mamlakatlarda musiqiy ta'lim muassasalari ochildi: Milan (1807), Neapol (1808), Praga (1811), Bryussel (1813), Florensiya (1814), Vena (1817), Varshava (1821), London (Qirol musiqa akademiyasi, 1822), Gaaga (1826), Lyeje (1827), Gente (1833), Jeneva (1835), Leypsig (1843), Myunxen (1846) shular jumlasidan.

Mazkur maktab namoyandalari qo'l ostida «skripka jarangi rang-barang va serjilo tavsifga ega bo'lgan: Koreyelii barmoqlari tagida skripka jarangi sodda va kuychan, Tartini kamoni ortida to'liq jozibali, nafis va garmonik, Gavine ijrosida yoqimli va toza, Punyanida tantanali va harakatchan; Viotti barmoqlari ortida olovli, kuchli va g'ayratli shiddati bilan ajralib turadri...»<sup>40</sup>

---

<sup>40</sup> O'sha manba.

XVIII-XIX asrlar oxirida Parijda bir nechta ajoyib «ibratli» to‘plamlar nashr etildi: P.Gavinening «Kaprislari», R.Kreyserning «40 etyudlari» (1796), A.Brunining (1787) etyudlari ko‘rinishidagi Italiya kaprislari va F.Fiorilloning skripka uchun etyudlari shular jumlasidan.

XIX asr boshlarida P.Bayoning «12 ta kapris va etyudlari» (1803), P.Rodening «24 ta kaprislar»i (1813) nashr yuzini ko‘radi. Ushbu barcha etyudlarida yangi davrning vazifalari – texnik mahoratni badiiy g‘oyaga bo‘ysundirish, nafaqat mohirlikni, balki sozandaning musiqiy iste’dodini ham rivojlantirish maqsadi qo‘yilgan.

Dunyodagi ilk professional konservatoriya bir asr davomida jahon musiqa pedagogikasida yetakchilik qildi. So‘nggi davr buyuk skripkachi-sozandalar safi – G.Venyavskiy, P.Sarasate, SH.Lafon, L.Massar, J.-B.Mazas, D.Alyar, Y.Lonar, F.Ondrjichek, I.Loto, F.Kreysler, J.Enesku, K.Flesh, J.Tibo kabi nomlar bilan to‘ldirilib, Parij skripka maktabining eng sara an‘analarini ta’sirida kamol topadi.

Bu vaqtga kelib, Parij ijrochilik san’atining mahorati yuqori bo‘lgan eng yirik markazga aylandi. List va Shopen boshchiligidagi deyarli barcha taniqli pianistlar faoliyati, ma’lum ma’noda Fransiya madaniyati bilan bog‘liq bo‘ldi. Parij konservatoriyasining fortepiano sinflari Jahon miqyosida shuhrat qozondi<sup>41</sup>.

Fransuz virtuoz maktabining asoschisi kompozitor, pianist-sozanda va pedagog Lui Adan (1758-1848) hisoblanadi. XIX asrning birinchi yarmining eng yirik namoyandalari qatorida F.Kalkbrenner va A.Gers nomlari turadi.

Fridrix Kalkbrenner (1785-1849) asli germaniyalik bo‘lib, Parij konservatoriyasida Adan sinfida ta’lim olib, so‘ngra Vena shahrida o‘qishni davom ettirgan. Bir fursat Londonda yashab, so‘ng Parijga ko‘chib bu yerda fortepiano ijrochiligi va pedagogik san’atining obro‘si katta bo‘lgan ijodkor sifatida tanildi.

F.Kalkbrennerning "Qo‘llanma yordamida fortepianoda o‘qitish uslubiyoti" (1830) kitobi XIX asrning birinchi yarmida mashhur bo‘lgan nashrlar qatorida o‘rin egalladi. Unda, barmoqlarni takomillashtirish mexanizmlari ochib berilgan, shuningdek, mashg‘ulotlar paytida barmoqlarni sun’iy mustaqil bo‘lish yo‘llari o‘rin olgan. Muallif birinchilar qatorida, aynan uslubiy adabiyotda



*Fridrix Kalkbrenner*  
(1785-1849)

<sup>41</sup>Bu haqda qarang: Алексеев А. История фортепианного искусства: Учебник для очных, заоч. и веч. отд-ний высш. муз. учеб. заведений: В 3 ч. – М.: Музгиз, 1962

pedallarning ifodaviy imkoniyatlarini ochib berdi, xususan, o'ng pedal fortepiano tovushini obertonlar bilan boy etib "jonlanishiga" hissa qo'shishini ko'rsatdi.

Anri (Genrix) Gerts (1803-1888) fransuz madaniyati bilan o'z faoliyatini bog'lagan taniqli nemis musiqachilar oilasining yirik vakili. A.Gerts Rossiya, Shimoliy va Janubiy Amerika bo'ylab ko'plab konsertlar bergan. Muallif yaratgan asarlar ro'yxati «La belle Moscovite ("Go'zal Moskvalik qiz"), "«La belle Bohemienne» ("Go'zal venger" qiz), «Rondo alia Cosacca» nomi bilan tanilgan mashhur polkalari raqslari bor. Biroq, tinglovchilar ularda xalq-milliy xislatlarni topolmaydi, aksincha ushbu asarlar yengil kayfiyatli va bir biriga o'xshash asarlardir.

1930-1840-yillarda maydonga chiqqan fransuz kompozitorlari va pianist-sozandalari orasida Sharl Valentin Alkan (1813-1888), Emil Prudan (1817-1863) va Anri Sharl Litolf (1818-1891)larni ham eslash joiz. Ular kontsert faoliyatlarini jadal olib borib fortepiano uchun ko'plab asarlarni yozib qoldirganlar. SH.V.Alkan va A.SH.Litolf ijodida romantizm xususiyatlari, E.Prudan asarlarida esa salon san'ati belgilari ustunlik qilgan. A.SH.Litolf musiqa nashriyotchisi sifatida ham keng jamoatchilikda tanilgan.

Lemuanlar oilasi musiqa nashriyoti bilan shug'ullangan fransuz musiqachilari bo'lgan. Uning vakillaridan biri Antuan Anri (1786-1854) fortepiano pedagogikasida shuhrat qozondi. Uning sara etyudlari hanuzgacha bolalar musiqa maktablarida chalinib kelinmoqda.

Venger bastakori va pianist sozandasi Stefan Xeller (1813-1888) ham uzoq yillar Parijda istiqomat qilgan. F.Shopen, F.List va R.Shumann bilan do'stona munosabatda bo'lgan san'atkor o'z ijodida buyuk zamondoshlari ta'sirini o'zida o'tkazdi. Uning salmoqli ijrochilik bisotida 24 prelyudiyalar, "Bolalar sahnalari", "Oq tunlar", "Darbadar sayillari" kabi o'rin olgan. Ayrim etyudlari saqlanib qolgan. Mazkur asarlar pedagoglar tomonidan o'quvchilarni romantik adabiyotning murakkab asarlariga tayyorlash bosqichida repertuarga kiritiladi.

XIX asr Fransiya vokal pedagogikasi, birinchi navbatda, vokal san'atining uchta eng yirik vakili – qo'shiqchi-islohotchi Jilber Lui Dyupre (1806-1896), olim Manuel Garsia-o'g'il (1805-1906)ning pedagogik uslubi va nihoyat, opera qo'shiqchisi, Parij konservatoriyasi professori Jan-Batist Fore (1830-1914) nomlari bilan bog'liq.

L.Dyuprening vokal va pedagogik faoliyati uning opera sahnasidagi chiqishlar kezlaridan boshlangan. 1842-1850 yillarda u Parij konservatoriyasida yakkaxon xonandalik sinfi professori bo'lib, 1853 yilda o'z maktabini – «Vokal instituti»ni ochadi va ko'plab taniqli xonandalarni tarbiyalaydi. L.Dyupre 1855 yilda opera sahnasini tark etdi.

Birgina L.Dyuprening serqirra faoliyati misolida fransuz vokal san'ati sozanda, xonanda, pedagog, shuningdek, opera, oratoriya, messalar, rekviyem va mashhur qo'shiqlar muallifi, yosh iste'dodlarning homiysiga ega bo'ldi. Kompozitor qizi Karolin Dyupre ajoyib xonanda sifatida tarixda nom qoldirdi.

L.Dyupre Fransiya vokal san'ati tarixiga xonandalik ijro mahoratining islohotchisi sifatida kirib keldi. Uning taniqli asari «Xonandalik san'ati» (Parij, 1846)<sup>42</sup> J.Rossiniga bag'ishlangan bo'lib, taniqli italyan kompozitori tomonidan e'tirof etilgan. Bu nashr o'z davrining vokal pedagogikasida muhim bosqichga aylandi. Unda xonandalar ovozi aralash registrini maqsadli shakllantirish va erkak ovozi diapazonining yuqori qismini yopiq shaklda ijro qilish zaruriyati ta'kidlangan. Bu usul bugungi kunda ayol ovozlari shakllantirish uchun ham amaliyotda qo'llaniladi.

Manuel Garsia-o'g'il nomi haqli ravishda XIX asrning taniqli vokal maktabining yorqin namoyandasiga aylandi. Uning o'qitish uslubi bo'yicha bugunda ham amaliyotda opera xonandalari tarbiyalanmoqda.

1847 yilda o'zining «Xonandalar ovozi haqida eslatmalar» (1840) asari asosida «Xonandalik san'ati haqida to'liq risola» asari nashr etildi. 1850 yilda M.Garsia Fransiyadan Londonga ko'chib, Qirol musiqa akademiyasida xonanda o'qituvchi lavozimini egalladi. Hayotining so'nggi damlarigacha u Angliyada yashab istiqomat qildi.



*Jilber Lui Dyupre  
(1806-1896)*

Vokal pedagogikasi bo'yicha risolasi ijodini yakuniy asari bo'lib, eski italyan va yangi fransuz (K.Dyupredan keyin) vokal maktablari tamoyillarining eng yorqin an'alarini mujassam etgan holda, XVIII asr oxiri, XIX asr boshlari va o'rtalarining vokal ijrochiligi an'alarini o'zida payvand etdi.



**tayanch so'zlar:** opera, balet san'ati, Parij konservatoriyasi, kompozitor, skripka va fortepiano ijrochilik, pedagogik faoliyat, musiqiy-tanqid.



**nazorat savollari:**

1. XIX asrning qaysi fransuz kompozitorlari opera asarlari bilan mashhur bo'lgan?
2. XIX asr musiqiy romantizmini qanday omillar belgilab beradi?
3. Musiqada romantizmning paydo bo'lishining sabablarini aniqlab bering.

<sup>42</sup> Bu haqda qarang: [Вокальные новации Жильбера Дюпре](https://studylib.ru/doc/2705670/vokal._ne-novacii-zhil._bera-dyupre)

4. Romantizm davrida qanday yangi musiqiy janrlar paydo bo'ldi?
5. Romantik ijodkorlar musiqasida qanday milliy xususiyatlar aks etilgan?
6. Romantik san'at zamon va o'tmish bilan qanday bog'liqlik rishtalariga ega?
7. XIX asr musiqasiga qanday dastur elementlari xos edi?
8. XIX asr birinchi yarmida Fransiya opera san'atining asosiy turlariga tavsif bering
9. «Grand Opera» qanday paydo bo'lgan?
10. Fransuz hajviy opera janri qaysi kompozitorlar faoliyati bilan qiyoslanadi?
11. «Grand Opera»ning qanday mashhur namunalari paydo bo'ldi?
12. Parij konservatoriyasi XIX asr musiqa hayotida qanday rol o'ynagan?
13. Romantik balet janri qanday xususiyatlarga ega?
14. Qaysi romantik balet namoyandalari (xoreograf va kompozitorlar) mashhur bo'lgan?
15. Skripka ijrochiligi maktabining uslubiyoti mazmun-mohiyatini ochib bering.
16. Mashhur Parij skripkachilari maktabi namoyandalari haqida ma'lumot bering.



#### **Adabiyotlar:**


1. Адан А. Воспоминания музыканта. Перевод с франц., сост. и прим. Е. Овчаренко-Чернодубровской. – М.: МАКСПресс, 2003. – 104с.
2. Берлиоз Г. Избранные письма /Перевод с французского: В 2-х книгах. Составление, перевод и комментарии В.Александровой, Е.Бронфин. Книга 1: 1819-1852. – Л., Музыка, 1981.; Книга 2: 1853-1868. – Л., Музыка, 1982.
3. Берлиоз Г. Избранные статьи / Перевод с франц. Составление, переводы, вступительная статья и примечания В.Александровой и Е.Бронфин. – М., Музгиз, 1956.
4. Грусинова А. Западноевропейский романтический балет как явление музыкального театра /Автореферат доктор. дис. 17.00.02 – М., 2012.
5. Жесткова О. Вокальные новации Жильбера Дюпре [https://studylib.ru/doc/2705670/vokal.\\_nye-novacii-zhil.\\_bera-dyupre](https://studylib.ru/doc/2705670/vokal._nye-novacii-zhil._bera-dyupre)
6. Жесткова О. Французская большая опера как художественно-эстетическое и социально-политическое явление: 1820-1830-е годы /Автореферат док.дисс 17.00.02 – Казань, 2018.
7. История зарубежной музыки. Вып. 3. Германия, Австрия, Италия, Франция, Польша с 1789 года до середины XIX века / В. Конен. - 5-е изд. – М.: Музыка, 1981.
8. Конен В. Берлиоз - критик // Этюды о зарубежной музыке -М.: Музыка, 1968. - С. 161-167.
9. Конен В. История зарубежной музыки. Вып 3. С 1789 года до середины XIX века. Издание пятое – М.: “Музыка”, 1981.
10. Левик Б. Музыкальная литература зарубежных стран. Вып.IV – М.: “Музыка», 1978.
11. Музыкальная эстетика Франции XIX века 1974 / под ред. Шестаков В.П. – М.: Музыка, 1974.
12. Новоселова Е. Поэтика "больших опер" Э.Скриба - Дж.Мейербера /Автореферат канд.дисс 17.00.02 – М., 2007.
13. Подмазова П. Жанр концерта в контексте французского скрипичного искусства на рубеже XVIII - XIX веков. Автореферата кан. дис. – М., 2019.
14. Радиге А. Французские музыканты эпохи Французской революции / Пер. с фр. Г.М.Ванькович, Н.И.Игнатовой Под ред. проф. М.В.Иванова-Борецкого – М., 1934.
15. Ф.Лист Большая опера // Музыкальная жизнь. – М., 2001. № 12.

### III BOB

## XIX ASR BIRINCHI YARMI FRANSIYA MUSIQA MADANIYATIDA G.BERLIOZ VA J.MEYERBERNING O‘RNI VA AHAMIYATI

XIX asrning ilg‘or namoyandalari qatorida **Gektor Berlioz** nomi romantizm musiqa san‘ati ufqlarini kengaytirgan yetakchi novator sifatida, milliy simfonik madaniyatning shakllanishiga poydevor solgan serqirra ijodkor timsolida gavdalanadi. Uning ijodiy faoliyati 1789 yil Fransiya inqilobi natijasida ozod qilingan xalqning ma‘naviy kuchi bilan oyoqqa turdi.

Gektor Berlioz romantik san‘atning keyingi rivojlanishiga chuqur va samarali ta‘sir ko‘rsatgan dasturiy simfonizmning yaratuvchisi sifatida tarixga kirib keldi. Fransiyada milliy simfonik madaniyatning tug‘ilishi uning nomi bilan bog‘liq. G.Berlioz serqirra ijodkor – kompozitor, dirijyor, musiqa tanqidchisi sifatida tanilib, 1830 yil Iyul inqilobining demokratik g‘oyalarni o‘z asarlarida himoya qilgan.



*Gektor Berlioz*  
(1803-1869)

Ommaviy inqilobiy musiqaning demokratik monumental uslubi bilan yaqindan tanishish kompozitor tafakkuri va dunyoqarashiga kuchli ta‘sir ko‘rsatdi. Ammo G.Berliozning Fransiyaning inqilobiy san‘ati bilan chuqur aloqasi bu bilan cheklanib qolmaydi. Uning ijodkor sifatida shakllanishida Reaksiya yillarida ilg‘or doiralarda hukm surgan norozilik, qarshilik muhiti hal qiluvchi omil bo‘lib qoldi.

XIX asr o‘rtalarida Fransiyaning ro‘y bergan yangi uyg‘onishi mamlakatning ilmiy va badiiy tafakkuri rivoji va gullab-yashnashiga olib keldi. Mafkuraviy ufqlar kengayib, badiiy serqirralik va yangiliklar borasida bitmas-tuganmas g‘oyalar olg‘a surildi.

San‘atning xilma-xil yo‘nalishlarida va turli sohalarida ijod qilgan G.Berliozning ko‘plab zamondoshlari, o‘tmishning eski an‘analariga qarshi kurash va yangi yo‘llarni jasorat bilan tasdiqlash borasida birlashadilar.

Fransuz romantiklari va realistlari bir-biridan qanchalik uzoqda bo‘lmasin, xususan, O.Balzak va V.Gyugo, P.Beranjer va I.Gyote, E.Delakrua va T.Jerikoning estetika va dunyoqarashi tizimlari qanchalik farq qilmasin, bari bir ularning ijodi inqilobning umumiy ta‘siri ostida shakllangan va so‘nmas oppozitsiya ruhiyati bilan sug‘orilgandir.

Musiqada G.Berlioz, inqilob ruhida tug‘ilgan san‘atning munosib vakilidir. Ammo, milliy madaniyat nuqtai nazaridan, u o‘z davrining yetuk, yorqin rassomlari safidan egallagan ijodkorlaridan biri edi faqat.

G.Berliozning musiqiy obrazlari, o‘ziga xos yozish uslubi Fransiyaning ilg‘or ijtimoiy doiralarining g‘oyalari va kayfiyatlaridan ajralmas holda rivoj topgan. Eng yorqin romantizm namoyandalariidan biri bo‘lgan kompozitor o‘zga mamlakat ijodkorlari bilan juda ko‘p umumiy jihatlarga ega edi. Ammo, nemis va avstriyalik kompozitorlardan farqli o‘laroq, uning san‘atida samimiy so‘zlar, fantastik va janrli tasvirlar bilan bir qatorda, fuqarolik-inqilobiy mavzular qat‘iyat bilan ajralib turardi. Bu jihat ommaviy inqilobiy janrlarga bevosita yaqin bo‘lgan asarlarda o‘z aksini topdi. Hatto subyektiv romantik dasturga ega bo‘lgan simfoniyalar tarkibiga fuqarolik pafosi va monumentallik kirib keldi.

Berliozni milliy madaniyatga unchalik aloqasi bo‘lmagan kompozitor degan fikrlar aslida noto‘g‘ri. Bunday fikr mulohazalarni olib borilishiga qisman sabab, uning ijodiy faoliyatida yetakchi bo‘lgan simfonik musiqasi inqilobdan oldingi yillarda Fransiya opera kabi mavqeyi baland bo‘lmaganida ko‘rinadi. G.Berlioz o‘zini nafaqat taniqli vatandoshlari hamnafasi, balki, umumlashtirgan holda L.V.Betxoven, U.Shekspir, J.Bayron, I.Gyotening merosxo‘ri deb o‘zini e‘lon qilganida ham bu borada rol o‘ynadi.

Butun ijodi davomida Fransiyaning akademik va rasmiy musiqachilari doiralariiga keskin qarshilik pozitsiyasini ko‘rsatgan. Lekin, aslida, G.Berlioz ijodi o‘z xalqi san‘atiga eng yaqin turib, zamondosh bo‘lgan har qanday kompozitor ijodidan ko‘ra to‘liqroq va mukammalroq bu jihatlarni aks ettirishga erishgan shaxs bo‘ldi.

Hatto Berlioz musiqasining baynalminalligi XIX asr Parij madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks etdi. Ma‘lumki, kompozitor yashab ijod qilgan kezarida Parij umumevropa badiiy markazlaridan biriga aylangan. U yerda I.Geyne va L.Byorne, J.Rossini va J.Meyerber, F.List va R.Vagner, F.Shopen va A.Mitskevich, M.Glinka va I.Turgenev kabi taniqli zamondosh ijodkorlari yashagan. Aynan shunday kuchli xalqaro aloqalarga ega bo‘lgan shahardagina, g‘oyalari turli xalqlarning ilg‘or izlanishlari ifodalagan san‘atkor shakllanishi mumkin edi.

O‘zining romantik moyilligiga qaramasdan, fransuz kompozitori Vergiliy va K.V.Glyuk ijodlariga doimiy ishtiyoq bilan qaragan. Ma‘lumki, antik adabiyot, bugungi kunga qadar ham Fransiya ta‘limining majburiy fanlari qatorida o‘tiladi.

XVII-XVIII asrlardagi fransuz teatri antik davrning klassik namunalari bilan uzviy bog‘liq kechgan. G.Berlioz bir umrlik orzusini ro‘yobga chiqargan holda, fransuz lirik tragediyasi an‘anasida Vergiliydan olingan mifologik syujet asosida

opera yaratdi. Buni Fransiya san'atida retrograd<sup>43</sup> omillari sifatida ko'rib bo'lmaydi: agar bunday syujetlar 1860-yillarda Germaniya yoki Rossiya opera san'atida yaratilganda, bunday baholash tom ma'noda o'rinli bo'lardi. Bu yerda esa kompozitorni milliy badiiy an'analarga bo'lgan mehr va qiziqishi o'rin oldi.

G.Berlioz o'zining badiiy ideallarini asosan o'z vatanida kuchli an'analarga ega bo'lmagan yangi shakl va janrlarda ifodalaydi. Shunga qaramay, bu san'atning janr ildizlari chuqur milliydir.

Shubhasiz, G.Berlioz Jahon doirasida mavqeyi va nufuzi baland bo'lgan birinchi Fransiyalik simfoniyachi kompozitorga aylandi. Ammo uning ijodiyoti XVIII asrning o'rtalaridan boshlab fransuz san'atining tubida rivojlangan cholg'u musiqa an'analari bilan tayyorlangan: J.-F.Ramo, K.V.Glyuk, J.-F.Lesyuyor, G.Spontini operalarining simfonik lavhalari, Gossek simfoniyalari, Kerubini uvertyuralari, fransuz inqilobi davri kompozitorlarining cholg'u musiqasi bunga zamin yaratib bergan. Shunisi e'tiborga loyiqki, G.Berlioz balog'at yoshiga qadar I.S.Bax ijodini deyarli bilmagan, Y.Gaydn ijodini qadrlamagan, o'zining badiiy shaxsiyati to'liq shakllangan yillardagina L.V.Betxoven bilan shaxsan uchrashgan. Bu borada fransuz musiqasiga xos xususiyatlar G.Berliozning simfonik uslubining asosini tashkil etadi. Masalan, uning milliy xususiyati teatrlik bo'lib, uni nemis simfonik maktabi ijodkorlaridan sezilarli darajada ajratib turadi (shuni eslash joizki, fransuz xalqining musiqiy daholigi bir necha asrlar davomida asosan teatr uchun yaratilgan shakllarida yorqin namoyon bo'lgan).

G.Berlioz ijodining dasturiy xarakteri ham milliy an'analarga bilan bog'liq bo'lgan. Shubhasiz, uning musiqasining dasturiy mazmuni yangi bir hodisa edi. Ammo bunga moyillik XVI asrdagi fransuz polifonik qo'shiqlarida, balet, cholg'u syuitalarida, F.Kuperen va J.-F.Ramoning klavesin uchun parchalarida, Glyuk va Kerubinining opera uvertyuralarida ham kuzatish mumkin. Oxirgilari bevosita Berliozning simfonizmga olib keladi.

Rossiya va Germaniyada muvaffaqiyat qozongan G.Berliozni hayotlik chog'ida vatanida obro' topmagan degan fikrlar zamirida chuqur adashish yotadi. Darhaqiqat, Parij akademik va rasmiy doiralari unga dushman edi. U bankirlar, ishlab chiqaruvchilar, regentlar yoki burjua shaharlari jamiyatiga hech qachon yaqin bo'lmagan. Ammo uning keng jamoatchilikka murojaati, albatta ijobiy javobini olgan. Uni fransuz xalqi emas, balki aynan "filistimlyan" doirasi tushunib qadrlamagan.

Germaniyada va Rossiyada kompozitor ilg'or ijtimoiy doiralar tomonidan qadrlangan. Erishgan muvaffaqiyatlari uchun u zamondoshlari F.List, R.Shuman, F.Mendelson va rus «Qudratli to'da» a'zolari oldida qarzdor. Fransiyada uning

---


<sup>43</sup> Retrograd – taraqqiyotga teskari, ortga qaytuvchi

san'atini R.Shumann «Davidsbund»<sup>44</sup> g'oyalari­ga sherik bo'lgan ilg'or ijodkorlar, qizg'in targ'ib qilib quvvatlashdi.

Agar kompozitor hayoti davomida uning asl, dadil, ilg'or san'ati bilan konservatizm eshiklariga zarba qoqqan bo'lsa, bizning davrimizda Berlioz fransuz madaniyatining eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri sifatida e'tirof etilardi. O'z vaqtida yirik musiqashunos Roman Rollan G.Berlioz ijodi haqida shunday ta'riflarni yozib qoldiradi: «Berlioz Yevropaning eng buyuk demokratik davlati san'ati, milliy va folklor musiqasiga poydevor soldi»<sup>45</sup>.

Berlioz ijodining yuksak g'oyaviy mazmuni, uning yangilik sari qadam bosishi Yevropa musiqasi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Aslida, XIX asr dasturli simfonizmining xilma-xilligi Berlioz san'ati bilan uzviy bog'liq. Uning o'z asarlarida qo'llagan badiiy obrazlari, ifoda vositalari nafaqat cholg'u musiqasini rivoji va taraqqiyoti, balki, keyingi avlod kompozitorlarining opera asarlari uchun ham muhim ahamiyatga kasb etdi. G.Berlioz tomonidan cholg'ushunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlari, novatorlik qirralari bilan orkestr musiqasi rivojida yangi davr boshlanishi belgilab berdi. G.Berliozning romantik simfonizmi bilan bir vaqtda Fransiyada milliy musiqali teatrning yangi turi vujudga keldi. Uning boshida kompozitor J.Meyerber turgan.

Nemis kompozitori ko'p jihatdan Berliozdan ajralib turardi. Zamondoshi bo'lishiga qaramay **Jakomo Meyerber** (tug'ilganda Yakob Libman Ber) undan bir avlod katta bo'lib, o'zga tarixiy ijtimoiy shart-sharoitda va milliy madaniyat negizida kamol topgan. Bu borada ikki zamondoshning estetik qarashlari ham farq qilingan. Shunga qaramay, J.Meyerber nomi 1830-1840 yillarida Fransiya romantik san'atining eng yirik namoyandasi sifatida tarixda e'tirof etiladi. Shuningdek, kompozitor o'z ijodida fransuz madaniyati an'analarini



*Djakomo Meyerber*  
(1791-1864)

<sup>44</sup> "Davidsbund" (Davidning birodarligi, nemis Davidsbund) – 1833 yilda Robert Shuman tomonidan ixtiro qilingan musiqiy birodarlik, musiqachi va kompozitorlar jamoasi. Muallifning rejasiga ko'ra, san'atga bo'lgan filistizm qarashlariga qarshi turishi kerak edi. Shumann o'z jamoasini Bibliyadagi Shoh Dovud sharafiga nomladi. Kompozitorning fikriga ko'ra, "Davidsbund" a'zolari ham xuddi zabur muallifi filistlar qabilasi bilan kurashganidek, musiqaga bo'lgan mayda burjua munosabati bilan kurashmoqda.

<sup>45</sup> Роллан Р. Собрание сочинений. Том XVI /Перевод Ю.Л.Римской-Корсаковой под редакцией Б.А.Кржевского – Л.: Государственное Издательство "Художественная литература", 1935.

umumlashtirgan holda, san'atning umrboqiy asoslarini ifodalab bergan. Parij davridan oldingi bosqich J.Meyerber faoliyatida yetuk ijod davriga «debocha» sifatida qabul qilinishi mumkin.

Jakomo Meyerber 1791 yil 5 sentabrda Berlinda, yirik bankir oilasida tug'ilgan. Bolaligida u pianst-sozanda sifatida jamoatchilik e'tiboriga tushib, iste'dodi porloq mohir sozandalar qatorida munosib o'rin egallashi mumkin edi. Ammo uning bor vujudi kompozitsiyaga sohasiga, xususan, musiqali-sahnaviy teatr asarlariga bo'lgan katta qiziqishi bilan ajralib turardi.

Meyerber Klementi sinfida fortepiano bo'yicha ta'lim olgan bo'lsa kompozitsiya asoslarini Selter, B.A.Veber va abbat Fogler qo'l ostida o'zlashtirdi. 1810-1812 yillar mobaynida J.Meyerber kompozitor K.M.Veber bilan tanishadi.

Bu borada kompozitorni ilk kantatasi bo'lmish «Xudo va tabiat» (1811) asari, unga muvaffaqiyat keltirib, o'zining ajoyib dekorativ, «opera» xususiyatlari bilan e'tiborni tortadi. Shu bilan birga J.Meyerberning Germaniyada sahna yuzini ko'rgan ilk operalari («Iyevfay qasami» (1813), «Alimelek, yoki Ikki xalifa» (1814)) muvaffaqiyat qozona olmadi. J.Meyerberni tinglagan A.Salyeri uni haddan ortiq murakkab nemis kontrapunkti ishlatilishida va kuylarining jozibadorligi kamligida tanqid qilgan. Shu maqsadda yosh kompozitorga Italiyaga borib ta'lim olishni tavsiya etadi.

Kompozitor 1816 yildan 1824 yillarga qadar Italiyada ijod qilib, tez orada J.Rossining melodik va vokal uslubini o'zlashtirdi. Uning Italiyada yaratilgan «Romilda va Konstansa» (1817), «Anjuyluk Margarita» (1820) jami yettita operasi kompozitorga shuhrat keltirdi. Muallifning shu mamlakatda yaratgan oxirgi «Misrdagi salib yurishi» operasi (1824) Jahonda ham tanilib, sahnalashtirildi. Mazkur opera J.Meyerber ijodining yetukligi va mustaqilligidan dalolat bergan. Muallif ijodining «Italiya» davri italyan folklori va uning uslubiy qirralarga bo'lgan katta qiziqishda o'zini namoyon qiladi.

Italiya operasi bilan jiddiy qiziqishi bo'lishiga qaramay bu davr kompozitor ijodida o'tkinchi bo'ldi. Albatta opera san'ati amaliyoti ahamiyatini bu borada inkor qilib bo'lmaydi. Aynan Italiyada J.Meyerber o'z ijod yo'nalishini mustaqil anglab, o'zini opera kompozitori sifatida tan oldi va o'z mahoratini kuylar yaratish, orkestr borasida cholg'ulashtirish va operani dramatik rivojlantirish usullarini o'rnatilishi va takomillashtirishda samarali mehnat qildi.

1827 yilda J.Meyerber Parijga ko'chib keladi. Kompozitor uchun Parijning ko'p millatli, ser qatlam va serqirra boy madaniyati musiqiy drama janri rivoji uchun muhim zaminga aylandi. Italiyadagi barcha teatrlari uchun asar yozishdan ko'ra, Parij uchun bitta opera yozish meni baxtli qiladi. Dunyoning turli burchagida chinakam dramatik musiqani yozmoqchi bo'lgan ijodkor uchun aynan Parij shahri ilhom kuchini berishi mumkin. Darhaqiqat, Parijda ajoyib librettolar topiladi va

jamoatchilik har qanday musiqa ko‘rinishini to‘g‘ri qabul qiladi, agar u mohirona darajada bajarilgan bo‘lsa. Shu bois, Italiyaga qaraganda bu yerda ijod uchun keng ufqlar ochiladi – deb ta’kidlagan edi J.Meyerber.

*Parijdagi «Grand Opera» teatri<sup>46</sup>*



1831 yilga qadar kompozitor o‘zining yangi ijodiy asarlarini sahnada qo‘yishga jur‘at eta olmadi. Bu yillarda ijodkorning maqsadi fransuz xalq madaniyatini o‘rganishga qaratiladi. Bor shijoat bilan J.Meyerber Fransiya adabiyoti, drama va tasviriy san‘atlarni o‘rganishga bel bog‘laydi. J.B.Lyulli opera partituralarini o‘rganish asnosida Fransiya musiqa madaniyatini yangitdan o‘rganadi.

Jakomo Meyerberning Parij operalari ichida ilk yaratilgan «Robert Iblis» asari 1831 yili sahna yuzini ko‘rdi. Ushbu opera kompozitorga butun Yevropa bo‘ylab shuhrat olib keldi. Fransiyada romantik musiqali teatrning tug‘ilishi, bu asar bilan bog‘landi. «Robert Iblis»da katta operaning o‘ziga xos xususiyatlari va muallifning uslubi yaqqol ko‘zga tashlanadi. 1836 yilda sahnalashtirilgan “Gugenotlar” operasida shu uslub o‘zining to‘liq ifodasini topdi. Bu opera kompozitor bisotidagi eng yetuk asarlaridan biri hisoblanadi. Keyingi ikkita operalari – «Payg‘ambar» (1849) va «Afrikalik ayol» (1864), o‘zining individual farqlanuvchi xususiyatlariga

<sup>46</sup> Fransuz inqilobidan keyin teatr o‘zining rasmiy nomini bir necha bor o‘zgartirdi – “San‘at teatri”, “Respublika va san‘at teatri”, “Opera teatri”, “Imperator musiqa akademiyasi”, “Qirollik musiqa va raqs akademiyasi”. 1871 yilda teatr "Grand Opera" nomini oldi.

qaramay, Meyerber tomonidan «Gugenotlar»da ishlab chiqilgan badiiy tamoyillar asosida yaratilgan.

Meyerber Parijdagi eng ko‘zga ko‘ringan va mashhur shaxslardan biri edi. Berliozga qarshi turgan teatr olami, Meyerber oldida ta‘zim qilgan. Matbuot, moliyaviy quvvatlash, teatr klakyorlari<sup>47</sup>, sahnadan tashqari ijodiy va administrativ aloqalar – barchasi Meyerberning qo‘lida edi. Bir qator zamondosh kompozitor ijodiy g‘alabasi sababini uning yuksak ijtimoiy mavqeyida va tashkillashtiruvchi qobiliyatida ko‘rganlar. Lekin, “Gugenotlar”ning premyerasidan bir yuz sakson yildan ko‘proq vaqt o‘tdi va bu ko‘rsatgich operaning haqiqiy hayotiy kuchini isbotladi. Opera Fransiya san‘atining yuksak namunalari qatorida munosib o‘rin egalladi.

«Gugenotlar»da yorqin ifodasini topgan J.Meyerberning musiqiy dramaturgiyasining tavsifiy xususiyatlari, qadimgi badiiy an‘analarda, shuningdek, zamonaviy Fransiya san‘ati – teatr, adabiyot, musiqa san‘atidan ildiz otadi.

«Gugenotlar» syujeti bu borada fransuz tarixidagi eng ta‘sirchan lavhasi – XVI asrdagi katoliklar va protestantlar o‘rtasidagi kurashini tasvirlaydi. Bu borada romantiklarga xos bo‘lgan muhim xususiyat – tarixiy mavzularga murojaat qilish namoyon etilgan. Shu yillari V.Gyugo, A.Dyuma (ota), P.Merime, A.de Vinining tarixiy dramalari va romanlari yozilgan. J.Meyerber operasi va P.Merimening shov-shuvlarga sabab bo‘lgan “Karl IX zamonlari xronikasi” romani syujetlarining bir biriga mos kelgani ham ahamiyatlidir.

Opera asosida yotgan gumanistik g‘oya (zo‘ravonlikni qoralash, fikr erkinligi huquqi) fransuz teatriga xos shaklda ifodalangan. Fuqarolik mavzular J.-B.Rasin va P.Kornel teatrlari, K.V.Glyukning lirik tragediyalari, XIX asrning birinchi uch choragida fransuz sahnasida sahnalashtirilgan qator drama va operalar uchun xosdir (ularning eng yorqin namunalari Oberning «Portichidan soqov», Rossining «Vilgelm Tell»operalari tashkil qiladi).

Meyerberning birinchi Parij operasidan «Robert Iblis» librettosi nemis fantastik zingshpiliga yaqin turganligi ma‘lum ma‘noda «Gugenotlar» oldida zaif bo‘lib qoldi. Chunki, zingshpilning ertakona-maishiy belgilari fuqarolik ruhiyatini ifodalash uchun u qadar mos kelmagan.

---

<sup>47</sup> Klakyor – XIX asrda kasb turlaridan biri bo‘lib, sunniy ravishda artist, spektakl, konsert mavqeyini jamoa e‘tiborida ko‘tarish yoki tushurishga harakat qiluvchilar. Zamonaviy pearmenejer faoliyati singari.

## «Gugenotlar» (1835)



Umuman olganda, teatr va musiqa san'atining uyg'unligi, dramatik teatrga bo'lgan azaliy bog'liqlik rishtalari, fransuz operasining butun tarixi uchun xos jihatdir. «Gugenotlar»da J.Meyerber bu milliy o'ziga xoslikni ro'yobga chiqardi. Agar Lyulli operasi, klassitsizm fojiasi ta'sirida shakllangan bo'lsa, hajviy opera fransuz «ko'z yosh komediya»ning o'ziga xos xususiyatlarini o'zida aks etdi, «Gugenotlar» bu borada zamonaviy romantik drama va uning eng iste'dodli vakili – V.Gyugoning ta'sirida shakllangani yaqqol ko'rish mumkin.

Viktor Gyugoning romantik dramaturgiyasi keskin kontrastlik, «antiteza dramaturgiyasi» tamoyiliga asoslangan. Tarixiy-ijtimoiy mavzular lirik hissiyotlar bilan, ulug'vorlik-kinoya va masxarabozlik bilan, xunuk ko'rinish go'zallik bilan chatishtirilgan. «Mariya Tyudor» spektaklining so'zboshida muallif quyidagi fikrlarni bayon qilgan: «hayotda qorishib ketgan hamma narsani sahnada aralashtirish kerak, bir tomondan isyon, ikkinchi tomonda muhabbat suhbatlari saboq tarzda xalq uchun jaranglashi lozim. Isyon-yurakdan faryod singari kulgi, ko'z yoshlar, yaxshi va yomonlik, baland va past, tosh va ilohiy, daho va tasodif, jamiyat, dunyo, tabiat, kabi ziddiyatlar mazmunida ochib beriladi»<sup>48</sup>.

J.Meyerber operalarida («Gugenotlar», «Payg'ambar», «Afrikalik ayol») konflikt xuddi V.Gyugo dramalari kabi aniq belgilangan va o'zaro bog'langan ikkita plan: tarixiy-ijtimoiy va lirik ko'rinishlar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, syujetning qarama-qarshi tomonlari maksimal darajada taqqoslanadi.

<sup>48</sup> Bu haqda qarang: Виктор Г. Мария Тюдор пьеса /в Сб. “Собор Парижской богородицы. Мария Тюдор. Анджело, тиран Падуанский”. Перевод: М. Замаховская – М.: 1984. С. 503-582

Uygʻonish davrining ulugʻvorligi va vahshiyliги, saroy hayotining yorqinligi va shafqatsiz diniy aqidaparastligi, protestantlarning zohidlik eʻtiqodi va ritsarlik sevgi romantikasi, «Gugenotlar»da romantik sanʻatga xos boʻlgan qarama-qarshilik dramaturgiyasini shakllantiradi.

J.Meyerber asarlaridagi tarixiy fon nihoyatda dabdabali va ulugʻvor. V.Gyugoning giperbolik obrazlariga ekzotik ranglar, ommaviy sahnalar, yorqin kontrastlari yaqindir.

Kompozitorning opera uslubini shakllantirishda oʻz davrning eng sermahsul va yorqin Parij dramaturgi E.Skribning xizmati katta.

J.Meyerber oʻzining barcha yirik operalarida aynan E.Skrib bilan hamkorlik qilgan. Kompozitor va librettochi dramaning syujeti va sahna rejasini ishlab chiqishga alohida eʻtibor berganlar. Operalarining librettolari oʻtkir dramatik intriga, ajoyib kontrastli kompozitsiya, sahna epizodlarning rang-barang oʻzgarishi, ifodali dialoglarga boy mahorat bilan tuzilgan pyesalardir.

J.Meyerber va E.Skrib oʻrtasidagi hamkorlik tabiatiga, J.B.Lyulli va F.Kino oʻrtasidagi ijodiy munosabatlarga juda oʻxshab ketadi. Kompozitor sahna harakati taassurotini yanada oshirishni vazifasini oʻz oldiga bosh maqsad deb qoʻygan goʻyo.

Kompozitor va librettochi dekorativ lavhalarga katta eʻtibor berganlar. Syujet va kompozitsiyaning rivojlanishida ajoyib va qiziqarli tamoyil ustunlik qiladi. Syujetga xos boʻlgan barcha «tasviriy», manzarali, rang-barang effektlar maksimal darajada boʻrttirilgandir. «Gugenotlar»da bu ritsarlik bayramlari, qirol saroyining ulugʻvorligi, loʻlilarning koʻcha raqslari, katoliklarning sirli fitnasi, askarlar va talabalar oʻrtasidagi toʻqnashuvlari va hatto ommaviy vayronagarchilik boshlanganini dahshatli kulminatsion sahnasi boy ssenografiyani talab qilgan. E.Skrib va J.Meyerber operalarining besh pardali tuzilishi asosida yengil erishiladigan effektlar va ongli hisob yotadi.

J.Meyerberning deyarli barcha operalarida qahramon qiyofasi anʻanaviy uslubda – xor sahnasida yakkaxon qoʻshigʻi orqali berilgan. Kompozitsion tuzilishda tarixiy-ijtimoiy choʻqqi uchinchi pardaga toʻgʻri keladi, toʻrtinchisi esa, lirik dramani yuqori nuqtasi sifatida sevgi dueti orqali namoyon etiladi. Masalan, «Gugenotlar» ning birinchi aktida faqat erkaklar xori yangraydi, ikkinchisida esa faqat ayollar xori paydo boʻladi. Xuddi shu ruhda, uchinchi akt ichida yangragan erkak harbiy xoriga ayollarning ibodatxonasidagi «a cappella»si javob beradi.

Milliy fransuz anʻanalari bilan bogʻliqlik rishtalar mavjuddir. Xususan, Lyullining aniq kontrastli kompozitsiyasi, barcha fransuz katta operalarining ulugʻvor tuzilishi (besh pardali dramaturgiya J.Meyerberdan avvalgi ijodkorlarga xosdir) va ayniqsa XVIII asrda Russoning gʻazabini qoʻzgʻatgan dabdabali dekoratsiya oʻrin olgan (J.-J.Russo: «Ruhoniylar, askarlar raqsga tushishadi,

xudolar, iblislar raqsga tushishadi, hatto dafn marosimlarida ham raqsga tushishadi!»).

Meyerber operalariga shubhasiz melodrama ham ta'sir ko'rsatdi. XVIII-XIX asrlar bo'sag'asida Parijning demokratik «ko'cha» teatrlarida shakllangan bu yangi teatr janri o'ta sentimentalligi bilan ajralib «olomon fojiasi» nomiga munosibdir. Ko'tarinkilik va soxta dramatik effektlarga bo'lgan muhabbat kundalik maishiy realizm xususiyatlari bilan uyg'unlashgan. Ayniqsa, G. de Pikserekur, L.Kene, V.Dyukanjning melodramalari bu borada mashhurlikka erishdi.

1830 yilgacha katta muvaffaqiyatga erishgan melodrama, romantik dramaga tom ma'noda ta'sir ko'rsatdi. Xususan, klassik teatrning yuksak lirikasidan farqli o'laroq, romantik dramadagi ishq chizig'i biroz susaygan kuchda beriladi. Aynan Parij melodramasining nozik patetik uslubida Meyerber operalari, shu jumladan «Gugenotlar»dagi Raul va Valentina o'rtasidagi munosabatlar orasidagi sevgi mavzusi ochib beriladi.

Shunday qilib, kompozitor Parijga ko'chib romantik izlanishlar jarayoniga sho'ng'idi. Yangi uslubning qirralarini puxta o'zlashtirgan muallif zamonaviy fransuzlarning didini tushunishga intilgan. Fransuz sahnasida oxirgi yillarda rivoj topayotgan romantik omillar operaning tashqi uslubiy, tuzilmaviy va syujet mazmuniga o'zgartirishlar olib kirdi. Turli uslublarni birlashtirish g'oyasi bu borada muvaffaqiyat garoviga aylanishi mumkin edi (bu xususiyatlar Oberning «Portichidan soqov»ida Rossinining «Velgelm Tell» operalari misolida eklektika nomi bilan o'rin oldi).

Meyerber ijodining «Parij» davri nafaqat Fransiya madaniyatiga qaratilgandir. Kompozitorni bundan avvalgi ijod bosqichlari, uning ushbu davri asarlarida o'zi haqida bot bot eslatib turgan. Xususan, uning asarlarida avvalgi an'analarni singdirish qolib ular yangicha tusda, jumladan, uchta milliy madaniyatlar – Germaniya, Italiya va Fransiya musiqa san'ati an'analarini kontrast va yorqin solishtirishlar orqali namoyon qilish ko'zga tashlanadi.

Parijda «qadimgi» va zamonaviy fransuz operalarni o'rgangan kompozitor o'zini operalarini nemis kompozitor sifatida yaratishni davom ettiradi. Nemis musiqa madaniyati bilan uni nafaqat uslubiy o'ziga xoslik bog'lagan, balki, cholg'u musiqani yaratishga bo'lgan ijodiy chanqoqligi (kompozitor ijodi butun yo'li davomida) va Berlinda saroy musiqachisi sifatida xizmat qilishida ko'rish mumkin. 1842 yili Berlinda general-direktor lavozimini egallagan paytida Meyerber «ma'lum vaziyat» uchun ko'plab cholg'u va vokal-xor asarlarini yaratdi. Prussiyalik aristokratlarning bayramona kunlarini nishonlashga qaratilgan «xizmat» kezlarida kompozitor 1842-1864 yillarga qadar ko'plab festshpil, maskenshpil, shaushpil, lyustshpil va zingshpillarni yozadi. Mazkur janrlar ustida ishlash Meyerberning nemis musiqasi bilan yaqin o'rnatilgan rishtalaridan voqif qilib, janr va uslubiy

o'ziga xosligini yaxshi bilimdoni ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga diniy mavzularga bag'ishlangan bir qator asarlar ham kompozitor ijodidan o'rin olgan.

Shunday qilib, Meyerber kompozitorlik faoliyati uning ijodiy taraqqiyotining mahsuli sifatida maydonga chiqdi. Kompozitorning biograflari J.Meyerber ijodini «millatsiz» yoki «o'z uslubiga ega bo'lmagan» (R.Vagner), ijodkor sifatida qayd etmadilar, aksincha, fransuz madaniyati zaminida ochilib dunyoga yuqiragan polimorf iste'dod sohibi sifatida tasdiqladi.



**tayanch so'zlar:** *G.Berlioz, simfonik musiqa, dasturiy romantizm, «Fantastik simfoniya», J.Meyerbern, Grand opera, «Gugenotlar», librettochi, libretto, E.Skrib.*



#### **nazorat savollari:**

1. G.Berliozning musiqiy-tanqidiy faoliyatiga baho bering.
2. G.Berliozning dasturiy simfonizmning mazmun-mohiyatini ochib biring.
3. Romantik musiqa tarixida "Fantastik simfoniya" ning o'rnini belgilab bering.
4. G.Berliozning orkestr va cholg'ushunoslik sohasida amalga oshirgan ishlarini tavsiflab bering.
5. G.Berlioz zamondoshlar nigohida (kompozitorning ijodiy portretini ochib bering).
6. J.Meyerberning ijodiy faoliyatiga baho bering.
7. J.Meyerber va katta opera san'ati.
8. J.Meyerber Parijda yaratgan operalari haqida ma'lumot bering.
9. J.Meyerberning "Gugenotlar" operasining yaratilishi tarixini ochib bering.
10. J.Meyerber va E.Skrib ijodiy hamkorligini xususida ma'lumot bering.



#### **Adabiyotlar:**

1. Асафьев Б. Зарубежная музыка. Берлиоз // О симфонической и камерной музыке XIX века – Л.: Музыка, 1982. - С. 59-62.
2. Давыдова М. Джакомо Мейербер. Его жизнь и музыкальная деятельность. – СПб., 2008
3. Жесткова О. Творчество Дж.Мейербера и развитие французской "большой" оперы. /Автореферат канд.дисс 17.00.02 – Казань, 2004.
4. Соллертинский И. Берлиоз. Опыт характеристики – Л.: Ленинградская филармония, 1935.
5. Соллертинский И. Джакомо Мейербер – Л.: Ленинградская филармония, 1936
6. Хохловкина А. Гектор Берлиоз (Серия "Классики мировой музыкальной культуры") – М.: МузГиз 1960.
7. Кремлев Ю. Западноевропейская классическая музыка. Гектор Берлиоз // Избранные статьи и выступления – М.: СК, 1959. - С. 207-221.
8. Конен В. История зарубежной музыки XIX века. /Учебник для исполнительских фак. консерваторий: В 3 вып. – М. : Музгиз, 1958
9. Стахевич А. Опера «Гугеноты» Дж. Мейербера в художественной культуре французского романтизма // <http://www.Ussr.to/Ukraine/grigori/schzenkin.htm> /

## XULOSA

Fransiyada romantizm yoʻnalishi Germaniya va Angliya tarixida romantizm paydo boʻlishidan tubdan farq qilgan. Shunisi muhimki, ingliz va nemis romantizmi Buyuk Fransuz inqilobidan oʻz ildizini oladi. Demak, romantizm Fransiyada boshqa mamlakatlarga nisbatan ancha oldin kechishi lozim edi. Biroq Fransiyada romantizm sekin, toʻxtamlar bilan rivoj topadi. Ingliz va nemislarda romantizm choʻqqisi XIX asrning birinchi oʻn-yilligiga toʻgʻri kelsa, Fransiyada – yigirmanchi yillarning oxiriga toʻgʻri keladi.

Fransiyada romantizm xususiyatlarining dalillari Iyul inqilobi atrofida 1830 jamlangan. Maʼlum maʼnoda romantizm inqilobni tanlab bergan, unga dalda berib uning natijalari bilan yashagan. Ammo romantizm haqida butkul fikr yuritsak, u albatta 1789-1794-yillarning buyuk Fransuz inqilobi taʼsirida tugʻilgan. Aynan inqilob vaqtida Fransiya romantik harakatlar bilan oldinga chiqmagani ajablanarli emas. Bu borada G.Geynening oʻtkir mutoibali fikrlarini keltirish mumkin. U oʻz asarlarining birida nemislar maʼnaviy nuqtai nazardan qanchalik Buyuk Fransuz inqilobiga bogʻliq degan savolni koʻtaradi: «...Fransuzlarchi? – davom etadi u. Va shu tariqa javob beradi: Fransiyaliklar ish bilan mashgʻul edi. Ular yangi Fransiyanı yaratish bilan ovora edilar. Buni amalga oshirish uchun koʻz yumib dam olmaganlar. Oʻzlari uchun tushlarni koʻrishni bizga nemislarga topshirdilar»<sup>49</sup>.

Maʼrifat davri «Utopiya davrining oltin asr» deb bejiz aytilmagan. Maʼrifat insonlarni yaxshilik tomonga oʻzgarishga qodirligiga ishonch berdi, «ongli» ravishda siyosiy va ijtimoiy sharoitlarni takomillashtirish imkoni borligini isbotladi.

Qayta tiklangan erkin shaxs jamoaviy va muhim burchlarga ega inson sifatida maydonga koʻtariladi: Maʼrifat odami nafaqat oʻzi, balki oʻzgalari haqida qaygʻuradi, oʻzini jamiyatdagi oʻrnini aniqlaydi. Maʼrifatchilar diqqat eʼtiborida – eng sifatli jamiyat tuzilishi muammosi turadi va ular barkamol jamiyat qoʻrilishiga ishonch qiladi.

Dastlab Fransiyanı, soʻng butun Yevropanı larzaga solgan olamshumul ijtimoiy oʻzgarishlarni ratsional, aqliy ravishda, yurak ishtirokisiz qabul qilish notoʻgʻri edi. Ijtimoiy borlikni oʻzgartirish yagona imkoni sifatida Inqilobdan umidini uzib hafsalasi pir boʻlgan ijodkorlar, jamiyat psixologiyasini qayta koʻrib chiqish, insonning tashqi hayotidan ichki olamiga nigoh qaratish, uning ruhiy, maʼnaviy, emotsional muammosiga eʼtibor berish tavsifi bilan ajralib turgan. Bir yoqlama ratsionalni yengish, XIX asr asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylanib oʻz aksini romantizmدا topadi

---

<sup>49</sup> Романтизм во Франции: Эстетика и периодизация французского романтизма  
[https://koi.tspu.ru/koi\\_books/skripnik/page9.htm](https://koi.tspu.ru/koi_books/skripnik/page9.htm)

Romantiklar shaxsni, subyektiv inson qiyofasini ochganlar. Insonning ichki olamiga bo'lgan qiziqish psixologizm paydo bo'lishiga, uning zamirida yotgan melanxoliyani yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Romantik melanxoliya dunyoqarash kategoriyasi sifatida zamonaviy odamning universal ko'rinishini tashkil etdi. Ushbu melanxoliyani mazmun-mohiyati odamning go'zal ichki olamiga nisbatan zamonaviy jamiyatda tutgan o'rni orasidagi tafovut yotadi.

Romantiklar badiiy ijodiyotda tarixnavislik tamoyillarini o'rnini ochib berganlar. Fransiya Inqilobi romantiklarga san'atni tarixga bog'liqligini tushunib idrok etishni ko'rsatdi, asosiy tarixiy qonuniyatlar: taraqqiyot, o'zgaruvchanlik va dinamika san'at qonuniyatlari tomonidan qabul qilinishini taqozo etdi. Romantizm haqiqiy muallif va uning tarjima-holini ahamiyati, mavqeyi o'sib boradi. Bu o'z navbatida adabiyotda biografik yo'nalish yuzaga kelishini ta'minladi.

Romantizm davri ijodkorlari musiqani inson qalbining eng nozik harakatlarini yetkazishga qodir bo'lgan ideal san'at turi deb bilishgan<sup>50</sup>. Aynan musiqada romantizmning o'ziga xos xususiyatlari yorqin ifodasini topdi. Romantik kompozitorlar ijodida go'zallikning yangi g'oyasi paydo bo'lib, eng yuqori hissiy va psixologik ekspressivlikka bo'lgan intilishda aks etildi.

Romantizmning bu xususiyatlari qisman kompozitor L.V.Betxovenning kechki ijodida seziladi, ammo, to'laqonli ravishda XIX asr kompozitorlari musiqasida jadal rivojlana boshlaydi. Shu bilan birga, barcha taniqli romantik kompozitorlar o'tgan avlod musiqachilarining merosini o'rganib, yangilikni o'zlarining o'tmishdoshlarining eng yaxshi yutuqlari bilan uyg'unlashtirgan holda ijod qilishdan to'xtamaydilar.

Ushbu davr kompozitorlari ijodida inson qalbining murakkab va nozik qirralari, turfa kechinmalari ifoda etilib, insonni tabiat bilan uyg'unlanishi, ertak va fantastik obrazlari dunyosiga kirib kelishi, tarixiy voqealarga murojaat qilishlari bilan e'tiborlidir. Musiqiy obraz yaratishning muhim vositasi asar mazmunini ochib beruvchi og'zaki dasturga aylandi. Ba'zan musiqa adabiyot yoki rang tasvir asariga illyustratsiya sifatida yaratilgan. Romantik ijodkorlari orasida san'at sintezi aloqalarini ochib beruvchi g'oya va mavzular yangi shakl va janrlarda namoyon etildi.

Romantik kompozitorlar musiqiy ta'limning ahamiyatini alohida belgilab inson taqdiri va dunyoni o'zgartirish mumkinligiga ishonch bildirib targ'ibot masalalariga katta e'tibor qaratganlar. Shu bois, ko'plab ijodkorlarning faoliyati parallel ravida jurnalistika, targ'ibot va ma'rifiy faoliyat ishlari bilan bog'liq bo'ldi.

---

<sup>50</sup> Романтизм в музыке: культура, эстетика, композитори.  
<https://www.musicnotes.info/romantizm-v-muzyke>

Romantik kompozitorlarning aksariyati serqirra ijodkorlar bo'lib tanqidiy faoliyatdan tashqari mohir sozandalar va dirijyorlar sifatida keng jamoatchilik e'tiboriga tushgan. XIX asrda Yevropada ommaviy konsertlar tizimini shakllantirishda romantik ijodkorlarning o'rni beqiyosdir.

Musiqiy teatrdan ham katta o'zgarishlar yuz berib romantik kompozitorlar ijodida musiqiy-sahnaviy asarlarning yangi turlari paydo bo'ldi: xalqchil, lirik-psixologik, qahramonona-romantik operalar. Hajviy opera asta-sekin operettaga yuz o'girib, musiqali teatrning sof ko'ngilochar janriga aylandi. Shunday qilib, aynan romantizm davrida musiqada «jiddiy» va «yengil» janrlar tizimi takomillashib boradi.

Romantik kompozitor o'z oldiga qo'ygan ijodiy vazifalari ularni yangi ifoda vositalarini tizimini yaratishga undadi. An'anaviy klassik janrlar (simfoniya, sonata, konsert) o'rni yangi ko'rinishdagi shakllar egalladi (simfonik poema, konsert-uvertura, fantaziya, ballada va b.). Romantizm davr musiqasining yetakchi janrlari demokratik tavsifi bilan ajralib kundalik shahar hayotning lavhalari, ishqiy vokal lirikasi va cholg'u miniatyuralarida yorqin ifodasini topadi. Ko'plab kichik hajmdagi asarlar turkumlar asosida tizimlashtirilib, ularning qismlari ma'lum bir dramatik g'oya bilan birlashadi.

Romantizm musiqasining eng muhim xususiyatlari XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida Fransiya badiiy adabiyoti va tasviriy san'atida rivoj topgan badiiy g'oyalar negizida shakllanib barg yozadi. Rang tasvir uyg'unligi musiqada garmonik va tembr palitrasini o'zgacha qo'llab ishlatilishida ko'zga tashlanadi. Akkordlar yanada murakkab va ser qatlam, lad va tonal doiralari kengayib boradi. Simfonik orkestrning jarangi misli ko'rilmagan yorqin cho'qqilarga ko'tarilib, tarkibiga yangi cholg'ular qo'shilishi bilan tavsiflanadi. Sozandalarning ijro va badiiy texnikasi, dirijyorlik mahorati yangi ufqlarni ochadi.

Romantizm davri kompozitorlari ijodida milliy kompozitorlik maktablarining yorqin va betakror ko'rinishi ifoda etilib, xalq ijodiyoti janrlarga, milliy folklor namunalariga bo'lgan e'tibor kuchayadi. O'sha davrga qadar musiqa san'atida, Yevropada deyarli noma'lum bo'lgan Polsha, Vengriya, Rossiya, Norvegiya, Ispaniya va boshqa mamlakatlarda jahon ahamiyatiga ega bo'lgan milliy kompozitorlik maktablari va ularning yorqin vakillari nomlari Jahonga tanildi.

## GLOSSARIY

**Allegoriya** (qadimgi yunon. ἀλληγορία) – ma’lum bir badiiy tasvir yoki dialog orqali g’oyalar(tushunchalar)ni badiiy tasvirlash.

**Antidespotizm**, ya’ni mutlaq, cheksiz hokimiyatni rad etish.

**Antiklerikalizm** (yunon tilidan – qarshi va khílikcus – ruhoniy), antiklerikal siyosat diniy hokimiyatga, odatda, ijtimoiy yoki siyosiy masalalarda muxolifatdir.

**Antreprenyor** (fr. entrepreneur – tadbirkor) – ko‘ngilochar san’atning bir qator turlari bo‘yicha ma’mur yoki tadbirkor, xususiy ko‘ngilochar korxonalar (teatr, sirk va boshqalar) – antrepriza egasi yoki ijarachisi. Angliyada – menejerlar, Italiyada – impresario, AQShda – prodyuser deb atashadi.

**Balet** (fransuzcha ballet, italyanacha ballare – raqsga tushish) – sahna san’atining bir turi bo‘lib, uning mazmuni musiqiy-xoreografik obrazlarda mujassamlangan.

**Baletmeyster** – mavjud bo‘lgan xoreografik asarlarni saqlovchisi va repetitori. Keng ma’nodagi balet bilag‘oni, xoreografiya maktabining vakili. Baletmeyster o‘z xoreografiyasini yaratmaydi.

**Barbizon maktabi** (fr. École de Barbizon) – fransuz peyzaj rassomlari guruhi. Maktab o‘z nomini Fontenblo o‘rmonidagi Barbizon qishlog‘i nomidan oldi, u yerda rassomlar Russo, Mille va guruhning boshqa a’zolari uzoq vaqt yashagan.

**Dirijyorlik san’ati** – musiqa san’atining eng mashaqqatli turlaridan biri bo‘lib, dirijyordan keng bilimlar doirasini talab qiladi (musiqa nazariyasi va tarixi, garmoniya, polifoniya, cholg‘ushunoslik, psixologiya va b) sohalarida keng bilimlarga ega bo‘lishni talab qiladi. Dirijer musiqiy jamoalar (xor, orkestr, cholg‘uchi-sozandalar guruhi va b.) ni boshqarib asarning mazmun-mohiyatini belgilashda, badiiy ijroviy talqinini aniqlashda yetakchilik qiladi.

**Eklektika, eklektizm** (qadimgi yunon ἐκλεκτός “tanlangan”, ἐκλέγω "men tanlayman") – turli xil uslublar, g’oyalar va qarashlarning aralashma ko‘rinishi.

**Ekzersis** – jismoniy mashqlar bo‘lib klassik raqs darsining asosini tashkil yetadi. Unga mushaklarning kuchini, va egiluvchanligini ta’minlab beruvchi, rivojlantirishga qaratilgan turli xil o‘quv mashqlari majmuasi kiradi.

**Filister** – tor fikrli, kundalik ishlarga botgan kishining nafratli nomi.

**Fransiya teatri** (fr. Théâtre-Français) nomi bilan ham tanilgan Comédie-Française Fransiyadagi hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan yagona repertuarli teatridir. Parijning markazida, shaharning 1-ma’muriy tumanida, Pale-Royalda joylashgan. 1680 yilda qirol Lyudovik XIV farmoni bilan tashkil etilgan. Teatrning norasmiy nomi «Molyer uyi», chunki «Comédie-Française» tashkil etilishidan oldin Molyer trupпасi Pale qirollik saroyida (1661-1673) chiqish qilgan.

**Fransuz burbonlari** – 1589-1792 va 1814-1830 yillarda Fransiyaning boshqargan qirollik sulolasi. Kapetinglar sulolasining yosh niholi.

**Golette** (fr. une goquette) – Fransiya xonanda va shoirlarning ziyofat shaklidagi an’anaviy bayram yig’inidagi xalq-xor to‘garagi. Mashhurligi katta bo‘lgan gogettlar ko‘pincha ko‘cha yurishlari va karnavallarda faol ishtirok etishi bilan politsiya xodimlarini xavotirga solgan.

**Grand Opera** (katta opera) – aksariyati tarixiy syujetlarga asoslangan, dabdabali monumental uslubda bajarilgan, shuningdek, ommaviy sahna (xor)larni ko‘llashda o‘z mahorati bilan ajralib turuvchi janr. Mazkur operalarning ilk namunalariga Oberning “Portichidan soqov” operasi (1828)ni kiritish mumkin. 1930 yillarga kelib mazkur janr fransuz sahnasida yetakchi o‘rin egallagan va o‘zining klassik namunalardagi (Meyerberning “Gugenotlar”, “Payg‘ambar” operasi, Galevining “Yahudiy ayol” operasi) misollari bilan nom qozondi.

**Ijtimoiy realizm** – bu xalqaro san’at harakati bo‘lib, unda ishchilar sinfi va kambag‘allarning turmush sharoitiga e’tibor qaratuvchi rassomlar, matbaachilar, fotograflar, kino ijodkorlari ijodi kiradi. Ijtimoiy realizm vakillari ushbu shart-sharoitlarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy tuzilmalarni tanqid qiladilar. Bu harakatning xususiyatlari turli mamlakatlarda farq qilsa-da, ijtimoiy realizm deyarli har doim tavsiflovchi yoki tanqidiy realizm shaklidan foydalanadi.

**Inqilobiy klassitsizm** – bu fransuz inqilobi davridagi klassitsizm bo‘lib, o‘sha paytda fuqarolarni hayajonga soladigan fikr va tuyg‘ularni aks ettiradi. Yopiq akademiyalar o‘rniga Milliy san’at hay’ati va Respublika badiiy klubi paydo bo‘ldi (1795 yilda ular o‘rniga Tasviriy san’at maktabi tashkil etilgan).

**Iyezuitlar**, Iso jamiyati (lot. Societas Jesu), shuningdek, Avliyo Ignatij ordeni (asoschisi nomi bilan atalgan) 1534 yilda Ignatij Loyola tomonidan asos solingan va 1540 yili Pavel III tomonidan tasdiqlangan Rim-katolik cherkovining erkak ruhiy ordeni bo‘lib, muntazam din arboblari qatoriga kiradi.

**Karikatura** – tasviriy san’at janri bo‘lib, unda asar qahramonlari satirik yoki yumoristik shaklda chiziladi. Muallif karikaturada qahramonlarning yuz qiyofasi va qiyofasini, xulq-atvorini masxara qilish maqsadida ataylab buzib ko‘rsatadi. Komik effektga badiiy mubolag‘a va taniqli faktlarni kutilmagan taqqoslash usullari yordamida ham erishiladi. "Karikatura" atamasining nomi italyanча caricare (yuklash, bo‘rttirish) so‘zidan kelib chiqqan.

**Kordebale** – balet spektaklining ommaviy personaji. Shuningdek, balet truppasining eng quyi va eng ko‘p sonli qismi. Bu so‘z fransuzcha "balet tanasi" dan olingan.

**Kosmopolitizm** (yunoncha κοσμοπολίτης (kosmopolites) – kosmopolit, dunyo odami) – butun insoniyat manfaatlarini millat yoki davlat manfaatlaridan ustun qo‘ygan va insonni erkin deb hisoblaydigan jahon fuqarolik mafkurasi.

**Mashineriya** – sahna harakati uchun mo‘ljallangan mexanizm uskunalari.

**Melodrama** – o‘tkir intriga, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik bilan ajralib turadigan dramaturgiya janri. Fransiyada XVIII asrda paydo bo‘lib, uning asoschisi R.SH.Pikserekur («Viktor, yohud O‘rmon bolasi» (1798), «Selina, yohud Sirli bola» (1800), «Xristofor Kolumb» (1815) va bosh.) hisoblanadi. Melodramalarda kutilmagan syujet burilishlari, fazilat yoki illatni o‘zida mujassam etgan personajlar, bosh qahramonlar taqdirini belgilagan hodisalar, baxtdan baxtsizlikka hayotni to‘satdan o‘zgarib borishi, baxtli tanbeh qirralari bilan ajralib turadi. Melodramaning rivojlanishiga mayda burjua dramaturgiyasi, ko‘z yoshi komediyasi, gotika romani, “Buron va hujum” dramaturgiyasi (xususan, F.Shillerning ilk dramalari) ta’sir ko‘rsatgan.

**Musiqiy estetika** (angl. Aesthetics of music, nem. Musikästhetik) – nemis publitsisti, shoiri va musiqachisi Kristian Fridrix Shubart tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan san’atshunoslik tushunchasi bo‘lib, bu atamani ilk bor o‘zining “Musiqqa san’ati estetikasi g‘oyalari” (1784) asarida qo‘llagan. Musiqiy estetika fanlararo ilmiy fan bo‘lib, musiqaning turli estetik jihatlarini aniq san’atning o‘ziga xos turi sifatida o‘rganadi, u voqelikni hissiy-majoziy idrok etishning umumiy qonuniyatlarining muayyan o‘ziga xos xususiyatlar va naqshlar bilan dialektik bog‘liqligini juda ixtisoslashtirilgan tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

**Musiqiy oriyentalizm** deb Yevropa kompozitorlik ijodida shakllangan mentalitet nuqtai nazardan Sharq haqidagi g‘oyalarni amalga oshirish bilan tavsiflangan badiiy oqim sifatida talqin etiladi.

**Musiqiy tanqid** badiiy – adabiy tanqidning bir bo‘lagini tashkil qiladi. “Tanqid” yunoncha so‘zidan olingan bo‘lib, keng ma’noda “razm solmoq”, “qaramoq” ma’nosini anglatadi (V.Belinskiy), “Tanqid-san’at singari haqiqat va go‘zallikka xizmat qiladi” (A.Serov). Ijod bilan tanqid orasida ikki tomonlama bog‘liqlik bor: ijod tanqidga tahlil qilib, baho berish uchun ashyo (“material”) yetkazib bersa, tanqid, ma’lum jamiyatning estetik – g‘oyaviy talablaridan kelib chiqqan holda ijodkorni qo‘llab, quvvatlaydi, yoki uning oldiga talab va takliflarni qo‘yadi. U yoki bu holatlarda ham ijodga o‘z ta’sirini ko‘rsatib, unga to‘g‘ri o‘ynalish beradi.

**Opera** (ital. opera) – teatr tomoshalarining badiiy va dramatik shakli bo‘lib, unda nutq musiqa bilan uyg‘unlashgan (qo‘shiq va jo‘rlik), sahna harakati ustunlik qiladi.

**Popurri** (fr. pot-pourri, aralashma) –turli kompozitsiyalardan o‘zlashtirilgan mashhur kuylarning parchalaridan tuzilgan musiqa asari.

**Progressiv romantizm** – kelajakka qaratilgan inqilobiy yo‘nalish. Badiiy adabiyotda hikoyalar asosan ozodlik g‘oyalari, baxt mavzusi ko‘tarilishi bilan

qahramonlarni doimo izlanishini tasvirlaydi. Bayron, Geyne, Gyugo, Shiller ijodiy merosi negizida shunday fikrlar yotgan.

**Retrograd** – taraqqiyotga teskari, ortga qaytuvchi.

**Romans** – (frans. romance – roman tili, ispan tilida dastlab maishiy qo‘shiq ma’nosini anglatgan) – jo‘rda yakkaxon kuylash uchun mo‘ljallangan kichik she’riy asar. Musiqiy ijro uchun, qoida tariqasida, ohang, ohangdorlik, so‘zlarni takrorlash, naqorat va oddiy sintaksisga ega lirik asarlar olingani.

**Romantizm** (Romantik oqim yoki romantik davr deb ham ataladi) 18-asr oxirida Yevropada paydo bo‘lgan badiiy va intellektual oqimdir. Yevropaning aksariyat qismlarida u 1800 yildan 1850 yilgacha cho‘qqisiga chiqdi. Romantizm hissiyot va individualizmga urg‘u berish, shuningdek, o‘tmish va tabiatni ulug‘lash, klassikaga qaraganda o‘rta asrlarni afzal ko‘rish bilan ajralib turardi. Romantizm qisman sanoat inqilobiga, ma’rifatparvarlik mafkurasiga, ayniqsa, tabiatni ilmiy ratsionallashtirishga nisbatan munosabat edi. U tasviriy san’at, musiqa va adabiyotda eng yaqqol namoyon bo‘ldi; tarixshunoslik, ta’lim, shaxmat, ijtimoiy fanlar va tabiiy fanlarga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. U siyosatga sezilarli va murakkab ta’sir ko‘rsatdi: romantik tafakkur konservatizm, liberalizm, radikalizm va millatchilikka ta’sir ko‘rsatdi.

**Salon musiqasi** – XIX asr aristokratik tabaqalar uchun klassik va romantik yo‘nalishdagi kompozitorlarning asarlari bilan yaqindan tanishtirish shakli. Salon musiqasining tavsifiy xususiyatlari: yorqin, elegant faktura, tashqi mohirona ijroviy effektlar, nozik ehtirosli ohanglar, jozibali garmoniY. Salon musiqasining lirik dasturiy tabiati sentimental-romantik she’riyatning umumiy g‘oyalariga tayanadi. Salon musiqasi har doim ham professional an’analarga ijodiy munosabatda bo‘lmaganligi, badiiy ekspressivlikni ba’zida haqiqatdan yiroq bo‘lishi bilan ajralib turgan.

**Tanqidiy realizm** XIX – XX asr birinchi yarimida badiiy ijodning usul – yo‘nalishi san’at turlarining deyarli barcha jabhalarida keng namoyon bo‘ldi. Mazkur usul – yo‘nalishning qaror topishi jarayoni murakkab va ziddiyatli tarzda sodir bo‘ldi, uning davomida avvalgi san’at sohiblari erishib olmagan estetik vositalar yangicha sayqal topdi. Estetik orzu bilan hayot haqiqatining monand kelishi realizmning barcha shakllariga xosdir. Realist san’atkorlar o‘z estetik orzularini hayot haqiqati orqali qaror toptiradilar, ular ijodida nafosat va haqiqat bir – biri bilan qovushib singdiriladi.

**Termidor reaksiyasi** – to‘ntarish sodir bo‘lgan oy nomini olib Fransiya Milliy Konvensiyasi hukumatining oxirgi kunlarini belgiladi. Bu terror davrining tugashi, va radikal siyosatning konservativ pozitsiyalarga o‘tish bilan belgilandi.

**Transkripsiya** – mavjud musiqiy materialni (kompozitor asari, spektaklning musiqiy matni, qo‘shiq ohangi, notasiz xalq og‘zaki ijodi, tabiiy tovushlar) sozanda-mualliflarning ijodiy moslashtirishi orqali yangicha hayot baxsh etish.

**Xoreograf** – ilgari mavjud bo‘lmagan xoreografik asarlarning muallifi.

**Yakobinlar** (fr. Jacobins) – fransiya inqilobi davridagi siyosiy klubi. Yakobinlar klubining a‘zolari – inqilobning eng mashhur va ta‘sirli siyosiy harakati, radikal egalitarizm, respublikachilik va maqsadlarga erishishda zo‘ravonlikdan foydalanish ta‘rifi bilan bog‘liq bo‘lib, 1793-1794 yillardagi inqilobiy hukumatni yaratishga olib kelgan.

## TEST

1. ***Romantizmga xos bo'lgan muhim omil***
  - A. tabiat va inson tuyg'ularining uyg'unligi
  - B. aql va sivilizatsiyani ulug'lash
  - C. dinning barcha ko'rinishlarini inkor etish
  
2. ***Romantizm an'analariga yaqin turgan diniy-falsafiy ta'limot:***
  - A. Panteizm
  - B. Ateizm
  - C. Agnostitsizm
  
3. ***Romantizmdan so'ng kelgan davr:***
  - A. Realizm
  - B. Klassitsizm
  - C. Manyerizm
  
4. ***Quyidagi yozuvchilardan qaysi biri romantizm davriga tegishli:***
  - A. Xristian Iogann Genrix Geyne
  - B. Frensis Skott Fitsdgerald
  - C. Fransua Malerb
  
5. ***Adabiyotda romantizmga asos solgan shoir:***
  - A. Bayron
  - B. Gofman
  - C. Gyugo
  
6. ***Xoreografiya, raqs va plastik til yordamida badiiy obrazni yaratuvchi musiqiy-sahnaviy janr:***
  - A. Balet
  - B. Opera
  - C. Simfoniya
  
7. ***Birinchi balet qayerda paydo bo'lgan?***
  - A. Fransiya
  - B. Rossiya
  - C. Italiya
  
8. ***Baletning asosi –***

- A. Libretto
- B. Ansambl
- C. Ariya

**9. Qaysi davlat qiroli balet spektakllarida bevosita o‘zi ishtirok etgan?**

- A. Fransiya
- B. Italiya
- C. Rossiya

**10. Baletmeyster vazifasi nimadan iborat?**

- A. raqs xoreografiyasini yaratish
- B. musiqa yaratish
- C. syujet harakatini ta’minlash

**11. Balet janrida simfonik orkestr musiqasining vazifasini belgilab bering**

- A. Dramaning barcha elementlarini bir-biriga bog‘lash
- B. Raqsga jo‘r bo‘lish
- C. Kontrastlar yaratish

**12. Balet janri qaysi ijroviy tarkib orqali ochib beriladi?**

- A. Solistlar, kordebalet va orkestr
- B. Xor va orkestr
- C. Solistlar, orkestr va xor

**13. Baletda uch qahramon raqsi qanday nomlanadi:**

- A. Pa-de-trua
- B. Pa-de-de
- C. Variatsiya

**14. Qaysi janr sintetik turga mansub:**

- A. Balet
- B. Syuita
- C. Simfoniya

**15. Fransuz qirollaridan qaysi biri “Tun baleti”da Quyosh rolini ijro etib, “Quyosh qiroli” unvoni bilan taqdirlangan:**

- A. Lyudovik XIV
- B. Lyudovik XVI
- C. Lui XIII

**16. 1845 yili Londonda to'rtta eng taniqli primadonna balerinalari – Grizi, Cherrito, Lyusil Gran va Mariya Talyoni uchun mashhur «Pa-de-katr»ni sahnalashtirgan xoreograf**

- A. Perro
- B. Xilferding
- C. Noverr

**17. 1832 yili Parijning Grand Operasida sahnalashtirilgan «Silfida» balet premyerasining xoreografi**

- A. Talyoni
- B. San-Leon
- C. Perro

**18. Qaysi afsonaviy raqqosa Silfida partiyasini birinchi bo'lib ijro etgan:**

- A. Mariya Talyoni
- B. Anna Pavlova
- C. Karlota Grizi

**19. "Nuqta" yoki "uchida" degan ma'noni anglatgan, Fransiyada paydo bo'lib joriy etilgan atama.**

- A. Puanta
- B. Adajio
- C. Uvertyura

**20. Balet rejissyori -**

- A. Baletmeyster
- B. Xoreograf
- C. Dirijer

**21. Gektor Berlioz qaysi milliy kompozitorlik maktabiga vakili?**

- A. Fransiya
- B. Avstriya
- C. Italiya

**22. Kompozitor Gektor Berlioz qaysi janrning yaratuvchisi hisoblanadi?**

- A. Dasturli simfoniya
- B. Rapsodiya
- C. Simfonik poema

23. *G.Berliozning qaysi asari muallifning tarjimaihol xususiyatlariga monand?*

- A. "Fantastik simfoniya"
- B. "Romeo va Julyetta" simfoniyasi
- C. "Garold Italiyada" simfoniyasi

24. *Fransiya tarixidagi qaysi voqea XIX asrning birinchi yarmi madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi?*

- A. 1848 yilgi Inqilob
- B. 1832 yilgi Parij qo'zg'oloni
- C. Napoleon Bonapartning taxtga o'tirishi

25. *"Ozodlik xalqni yetaklaydi" kartinasini yaratgan rassom*

- A. Ejen Delakrua
- B. Jan Ogyust Dominik Engr
- C. Teodor Jeriko

26. *"Gugenotlar" operasining muallifi*

- A. Jakomo Meyerber
- B. Juzeppe Verdi
- C. Rixard Vagner

27. *"Gugenotlar" operasidagi voqealari qaysi shaharda sodir bo'ladi?*

- A. Parij
- B. Vena
- C. Milan

28. *"Gugenotlar" operasining asosiy mavzusi qaysi diniy ziddiyat bilan bog'liq kechdi?*

- A. Salib yurishlari
- B. Reformatsiya urushlar
- C. Ko'pdinlik

29. *"Gugenotlar" operasining bosh qahramonlaridan qaysi biri protestantlarning yetakchisi hisoblanadi?*

- A. Raul de Nantr
- B. Margarita de Valua
- C. Ugo, graf de Never

30. «Gugenotlar» operasi partiturasiga kiritilgan mashhur ariya -
- "Bella figlia dell'amore"
  - "La donna è mobile"
  - "Casta diva"
31. Kompozitor G.Berliozning tanqidiy faoliyati qanday mukofot orqali e'tirof etildi?
- Faxriy legion ordeni
  - Adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti
  - Pulitser mukofoti
32. G.Berliozning opera san'atining zamonaviy holatiga bag'ishlangan taniqli tanqidiy maqolasi
- "Opera va drama"
  - "Opera san'ati"
  - "Opera va inqilob"
33. G.Berlioz musiqasida qanday inqilob g'oyalari aks etilgan?
- Erkinlik va inson huquqlari uchun kurash g'oyalari
  - Millatparvarlik va vatanparvarlik g'oyalari
  - Diniy bag'rikenglik g'oyalari
34. Retrograd atamasi qanday ma'noni anglatadi?
- Ortga yurish
  - Olg'a yurish
  - Bir holatda qolish
35. *«Musiqachining xotiralari» (1857) va «Musiqachining so'nggi xotiralari» (1859) kabi publitsistik va adabiy asarlar to'plamlarining muallifi*
- A.Adan
  - G.Berlioz
  - F.List

## KROSSVORD


### Vertikal

- «Musiqachining xotiralari» (1857) va «Musiqachining so'nggi xotiralari» (1859) kabi publitsistik va adabiy asarlar to'plamlarining muallifi.
- Buyuk Inqilob mamlakati.

3. "Gugenotlar" operasi voqealari sodir bo'lgan shahar nomi.

### Gorizontal

1. "Ozodlik xalqni yetaklaydi" kartinasi muallifi.
2. Romantizmdan so'ng kelgan davr.
3. "Nuqta" yoki "uchida" degan ma'noni anglatgan atama.





14. "Gugenotlar": ijtimoiy g'oya, drama, dramaturgiya mahorati.
15. J.Meyerberning kechki operalari va Fransiya "Grand opera"ning inqirozi.
16. F.Galevi va L.Gerold ijodining fransuz operasi tarixidagi tutgan o'rni va ahamiyati.
17. G.Rossining "Villyam Tell" operasining katta opera janrini shakllanishidagi ahamiyati.
18. Romantik baletning shakllanishida A.Adanning o'rni.
19. A.Adanning "Jizel" – birinchi romantik balet taqdiri.
20. G.Berlioz hayoti va ijodi.
21. G.Berlioz va uning fransuz romantizmi madaniyatidagi o'rni va mavqeyi.
22. G.Berlioz ijodidagi mavzular va obrazlar doirasi (V.Shekspir, V.Gyote, D.Bayron asarlari misolida).
23. G.Berlioz ijodida inqilobiy-qahramonlik mavzulari.
24. G.Berlioz simfonik asarlari dasturi.
25. Dasturiy simfonizm tabiati.
26. G.Berliozning kompozitorlik xati (turkum talqini, leytematizm tamoyili, ohangdor va garmonik yozuvi) ning o'ziga xosligi, orkestrning tembr-rang palitrasi).
27. G.Berliozning cholg'ulashtirish sohasidagi yutuqlarining tarixiy ahamiyati.
28. XIX asr birinchi yarmi Parij konservatoriya faoliyati.
29. Fransiya ijrochilik maktabining pedagogik an'analari.
30. Parij skripkachilar maktabi vakillari.
31. XIX asr Fransiya musiqa san'atining estetikasi.
32. Fransuz inqilobi musiqasining janr xilma-xilligi: an'ana va novatorlik.
33. Fransiya milliy opera teatri shakllanishi va rivoji ("Grand-Opera" teatri faoliyati misolida).
34. Fransiyaning musiqiy – tanqidiy hayoti (XIX asr birinchi yarmi).
35. XIX asr Fransiya fortepiano ijrochilik san'ati.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ibrohimov O., Xudoyev G'. Musiqa tarixi – T.: «Barkamol fayz media», 2018.
2. Trigulova A. Xorijiy musiqa adabiyoti – T.: «Ilm ziyo», 2009.
3. Адан А. Воспоминания музыканта. Перевод с франц., сост. и прим. Е. Овчаренко-Чернодубровской. – М.: МАКСПресс, 2003. - 104с.
4. Азарова В. Античность во французской опере 1890–1900-х годов. LAP Lambert Academic Publishing GmbH & Co., Saabrücken, 2011.
5. Азарова В. Интерпретация идей христианства в операх и ораториях французских композиторов XIX – XX веков. «Французская музыкальная драма» В. д’Энди / Interpretation of christian ideas in operas and oratorios by French composers in the XIX–XXth centuries. ‘French musical drama» by V. d’Indy // Philharmonica. International Music Journal. 2014 (1), p. 84-102.
6. Алексеев А. История фортепианного искусства: Учебник для очных, заоч. и веч. отд-ний высш. муз. учеб. заведений: В 3 ч. – М.: Музгиз, 1962
7. Аникст А. Теория драмы на Западе в первой половине XIX в. – М.: Наука, 1980.
8. Аркан Ю. Очерки социальной философии романтизма. – Санкт-Петербург, Наука, 2003.
9. Асафьев Б. Зарубежная музыка. Берлиоз // О симфонической и камерной музыке XIX века – Л.: Музыка, 1982. - С. 59-62.
10. Бенуа Ф. Искусство Франции эпохи революции и Первой империи. 1793 – 1814. – М.-Л., 1940.
11. Березина В. Французская живопись первой половины и середины XIX века в Эрмитаже: научный каталог – Л.: Искусство. Ленинградское отд-ние, 1983.
12. Берковский Н. О романтизме и его первоосновах // Проблемы романтизма. 1973. Вып. 2. С. 8.
13. Берлиоз Г. Избранные письма /Перевод с французского: В 2-х книгах. Составление, перевод и комментарии В.Александровой, Е.Бронфин. Книга 1: 1819-1852. – Л., Музыка, 1981.; Книга 2: 1853-1868. – Л., Музыка, 1982.
14. Берлиоз Г. Избранные статьи / Перевод с франц. Составление, переводы, вступительная статья и примечания В.Александровой и Е.Бронфин. – М., Музгиз, 1956.
15. Берлиоз Г. Мемуары / Перевод О.К.Слезкиной. Вступ. ст. А.Хохловкиной. Ред. перевода и примеч. В.Н.Александровой и Е.Ф.Бронфин. – М., Государственное музыкальное издательство. 1961.

16. Берлиоз Г. Симфонии Бетховена. Критический очерк / Перевод с французского Л.Б.Хавкиной. – Санкт-Петербург, Москва. 1896.
17. Божович В. Традиции и взаимодействие искусств: Франция, конец XIX – начало XX века – М.: Наука, 1987 – 319 с.
18. Бронфин Е. Музыкальная мысль во Франции XIX века / Очерк-предисловие к кн.: Музыкальная эстетика Франции XIX века. – М.: Музыка, 1974. С. 5 - 52.
19. Брянцева В. Жан Филипп Рамо и французский музыкальный театр – М.: Музыка, 1981. – 302с.
20. Булучевский Ю., Фомин В. Краткий музыкальный словарь. СПб. – М., 1998
21. Ванслов В. Эстетика романтизма – М.: "ИСКУССТВО", 1966.
22. Гарсиа М. Школа пения. – М., 1956.
23. Гектор Берлиоз // Музыкальная эстетика Франции XIX века. Составление текстов, вступительная статья и вступительный очерк Е. Ф. Бронфин. – М., Музыка, 1974 – сс. 138-162.
24. Гиленсон Б. История зарубежной литературы эпохи Романтизма (первая треть XIX века): учебник и практикум для вузов – М.: Издательство Юрайт, 2023.
25. Головянц Т. Восток в творчестве Французских композиторов: К.Дебюсси, М.Равель, А.Жоливе: Учеб. пособие – Т., 2008 – С.63.
26. Груцынова А. Западноевропейский романтический балет как явление музыкального театра /Автореферат доктор. диссертации 17.00.02 – М., 2012.
27. Гусева О. Творческие портреты композиторов. /Популярный справочник – М.: Музыка, 1989.
28. Давыдова М. Джакомо Мейербер. Его жизнь и музыкальная деятельность. – 2008
29. Данилин Ю. Очерк французской политической поэзии XIX в. – М.: Наука, 1993.
30. Державин К. Театр французской революции. – М., 1937.
31. Друскин М. Музыкальна культура Франции. Берлиоз // Зарубежная музыка первой половины XIX века – М.: СК, 1967. - С. 72-88.
32. Европейское искусство XIX века. 1789-1871 / Л.С.Алешина, Ю.Д.Колпинский, Е.И.Марченко, В.В.Стародубова. – М.: Искусство, 1975
33. Европейское искусство. Живопись. Скульптура. Графика: энциклопедия: в 3 т. /Рос. акад. художеств, НИИ теории и истории изобразительных искусств Рос. акад. художеств; отв. ред. Е.Д.Федотова. – М.: Белый город, 2006.

34. Жесткова О. Творчество Дж.Мейербера и развитие французской "большой" оперы. /Автореферат канд.дисс 17.00.02 – Казань, 2004.
35. Жесткова О. Французская большая опера как художественно-эстетическое и социально-политическое явление: 1820-1830-е годы /Автореферат док.дисс 17.00.02 – Казань, 2018.
36. Живопись французского романтизма. – М.: Советский художник, 2020.
37. Живопись французского романтизма: выставка произведений из собраний музеев Франции: каталог / М-во культуры СССР, М-во иностранных дел Франции, М-во по делам культуры Франции; [кат. сост. Элен Тусцен]. – М.: Советский художник, 1968.
38. Зарубежная литература. XIX век. Романтизм. Критический реализм. – М.: Просвещение, 1979.
39. Зингер Г. Рашель. – М., 1980.
40. История западноевропейского театра. – М., 1963, т. 3.
41. История зарубежной музыки. XX век. – М.: Музыка, 2007.
42. История Французской литературы – М., 1959, т. 2.
43. История зарубежной музыки. Вып. 3. Германия, Австрия, Италия, Франция, Польша с 1789 года до середины XIX века / В. Конен. - 5-е изд. – М.: Музыка, 1981.
44. Конен В. Берлиоз - критик // Этюды о зарубежной музыке -М.: Музыка, 1968. - С. 161-167.
45. Конен В. История зарубежной музыки. Вып 3. С 1789 года до середины XIX века. Издание пятое – М.: “Музыка”, 1981.
46. Конен В. Этюды о зарубежной музыке – М.: Музыка, 1975. – 479 с.
47. Краткий музыкальный словарь-справочник. – М., 1998
48. Крауклис Г. В. Романтический программный симфонизм. Проблемы. Художественные достижения. Влияние на музыку XX века. – М., 2007
49. Кремлев Ю. Западноевропейская классическая музыка. Гектор Берлиоз // Избранные статьи и выступления – М.: СК, 1959. - С. 207-221.
50. Крунтяева Т., Молокова Н. Словарь иностранных музыкальных терминов. – М. – СПб., 1996
51. Левик Б. Музыкальная литература зарубежных стран. Вып.IV – М.: “Музыка», 1978.
52. Левик Б. Французская музыкальная культура второй половины XIX века // Музыкальная литература зарубежных стран. Т.5 / под ред. Б. Левика; изд. 2-е, испр. – М.: Музыка, 1972. – С. 3-126.
53. Ливанова Т. История западноевропейской музыки до 1789 года: Учебник. В 2-х т. Т.2. XVIII век. – М.: Музыка, 1982 – 668 с.
54. Лист. Ф. Большая опера // Музыкальная жизнь. 2001, № 12.

55. Малышева Т. Очерки по истории французской музыки XIX века: учебно-методическое пособие для учащихся исполнительских специальностей музыкальных учебных заведений – Саратов, 2012
56. Минье Ф. История Французской революции с 1789 по 1814 гг.. – М., 2006.
57. Музыкальная энциклопедия, тт. 1–5. М., 1973–1982
58. Музыкальная эстетика Франции XIX века 1974 / под ред. Шестаков В.П. – М.: Музыка, 1974.
59. Музыкальный энциклопедический словарь. – М., 1998
60. Новоселова Е. Поэтика "больших опер" Э.Скриба - Дж.Мейербера /Автореферат канд.дисс 17.00.02 – М., 2007.
61. Обломиевский Д. Французский романтизм. – М., 1947.
62. Панов В. Тальма. – М. - Л., 1939.
63. Письма зарубежных музыкантов: Из рус. архивов / Ленингр. гос. ин-т театра, музыки и кинематографии – Ленинград: Музыка, 1967.
64. Подмазова П. Жанр концерта в контексте французского скрипичного искусства на рубеже XVIII - XIX веков. Автореферата кан. дис. – М., 2019.
65. Радиге А. Французские музыканты эпохи Французской революции / Пер. с фр. Г.М.Ванькович, Н.И.Игнатовой Под ред. проф. М.В.Иванова-Борецкого – М., 1934.
66. Раздольская В. Европейское искусство XIX века: классицизм, романтизм. – СПб: Азбука-классика, 2005.
67. Ремизов И.Гугеноты. Опера в 4-х действиях. Текст по Скрибу. Музыка Мейербера: Крит, очерк и либретто оперы. – М.: Издание Управления театрами НКП РСФСР, 1935.
68. Розеншильд К. Музыка во Франции XVII – нач. XVIII века – М.: «Музыка», 1979.
69. Роллан Р. Опера во Франции // Музыкально-историческое наследие: В 8 вып. /Пер. с франц. Е.Гречаной, с итал. З.Потаповой; Ред. и коммент. В.Брянцевой.– М., 1986. Вып. 1. С. 202-244.
70. Роллан Р. Собрание сочинений. Том XVI /Перевод Ю.Л.Римской-Корсаковой под редакцией Б.А.Кржевского – Л.: Государственное Издательство "Художественная литература", 1935.
71. Сен-Санс К. История и легенда в музыкальной драме // Статьи и рецензии композиторов Франции (конец XIX – нач. XX вв.) / Сост., перевод, вступ. ст. и коммент. А. Д. Бушен. – Л., 1972. С. 108-115.
72. Серов А. Спонтини и его музыка // Серов А. Н. Избранные статьи: В 2 т. / Общ. ред., вступ. ст., примеч. Г. Н. Хубова. – М.-Л.: Музгиз, 1950. Т. 1. С. 372-388.

73. Скребков С. Художественные принципы музыкальных стилей. – М.: Музыка, 1973. – 448 с.
74. Соллертинский И. Берлиоз. Опыт характеристики – Л.: Ленинградская филармония, 1935.
75. Соллертинский И. Джакомо Мейербер – Л.: Ленинградская филармония, 1936
76. Соллертинский И. Романтизм, его общая и музыкальная эстетика – М.: Музгиз, 1962.
77. Солодовникова Т. Музыкальная критика первой половины XIX века на страницах периодических изданий Франции. / Коммуникация в современном мире. Материалы всероссийской научно-практической конференции. – Воронеж, ВГУ, 2006. С.110-112.
78. Солодовникова Т. Шарль Бодлет и становление литературно-художественной журналистики во Франции (первая половина – середина XIX века). Автореферат кан. дис. – Краснодар, 2000
79. Сырейщикова А. Русские гастрольные Берлиоза в истории российско-французских музыкальных связей: музыкально-критическая рецепция. Автореферата кан. дис. – М., 2017
80. Тьерсо Ж. Полвека французской музыки // Французская музыка второй половины XIX века. – М.: Искусство, 1938. – С.35-150.
81. Филенко Г. Французская музыка первой половины XX века: очерки. – Д.: Музыка, 1983. – 231 с.
82. Финкельштейн Е. Фридерик-Лемерт. – Л., 1968.
83. Французская живопись. XVI – первая половина XIX века. Гос. музей И.И. им. Пушкина А.С. /Сост. Кузнецова И.А., Трофимов Б.В. – М.: Изобразительное искусство. 1991.
84. Ханкиш Я. «Если бы Лист вёл дневник» / Пер. с нем. Мария Погани. - 2-е изд. – Будапешт: Корвина, 1963.
85. Хохловкина А. Гектор Берлиоз (Серия "Классики мировой музыкальной культуры") – М.: МузГиз 1960.
86. Хохловкина А. Западноевропейская опера. Конец XVIII – первая половина XIX века. Очерки – М., 1962
87. Черкашина М. Западно-европейская опера между классицизмом и романтизмом на подступах к историческому жанру // Проблемы музыкальной науки. – М., 1985. Вып. 6. С. 204-243.
88. Черкашина М. Историческая опера как метажанр (на примере «Коронации Поппеи» Монтеверди, «Юлия Цезаря в Египте» Генделя, «Гугенотов» Мейербера) // Музыкальная академия. 1997. № 1. С. 70-74.

89. Черкашина М. Историческая опера эпохи романтизма (Опыт исследования). – Киев: Муз. Украина, 1986. 149 с.
90. Черная М. История музыки. Учеб. пособие Часть 2. Европейское музыкальное искусство во второй половине XVIII — первой половине XIX века – Тверь, 2008
91. Чернодубровская Е. Неизвестный Адан //Культура (рубрика «Публикация»). – 2004. - № 7.
92. Шахназарова Н. Национальная традиция и композиторское творчество. – М.: «Композитор», 1992. – 187 с.
93. Шнеерсон Г. Музыка Франции – М., 1958.
94. Эстетика раннего французского романтизма: Сб. пер. с франц. / Сост., вступ. ст. и коммент. В. А. Мильчиной. – М.: «Искусство», 1982.

#### INTERNET RESURSLAR:

1. Belcanto.ru — классическая музыка, опера и балет <https://www.belcanto.ru/>
2. musike.ru <http://www.musike.ru/>
3. Большая музыкальная энциклопедия от А до Я <https://nervmusic.ru/>
4. Джакомо Мейербер - Гугеноты, ноты | PrimaNota.ru <https://primanota.ru/giacomo-meyerbeer/gugenoty-sheets.htm>
5. Жесткова О. Вокальные новации Жильбера Дюпре [https://studylib.ru/doc/2705670/vokal.\\_nye-novacii-zhil.\\_bera-dyupre](https://studylib.ru/doc/2705670/vokal._nye-novacii-zhil._bera-dyupre)
6. Искусство виртуозов в 30—40-е годы XIX века. Парижская школа; Ф. Кальк бреннер. Педагогическая деятельность К. Черни. С. Тальберг. И. Мошелес <http://mydocx.ru/1-1015.html>
7. Книги по истории музыки, энциклопедии | Архив пианистки <https://notkinastya.ru/knigi-po-istorii-muzyki/>
8. Немецкая опера первой половины 19-го века <https://studfile.net/preview/7405170/>
9. Писаревская А. Музыкальное искусство Франции в период революции 1789 года // Молодой ученый. — 2016. — № 4 (108). — С. 867-870. — URL: <https://moluch.ru/archive/108/26256/>
10. Подмазова П. Французское классическое скрипичное искусство и парижская консерватория <https://cyberleninka.ru/article/n/frantsuzskoe-klassicheskoe-skripichnoe-iskusstvo-i-parizhskaya-konservatoriya>
11. Пуни, Чезаре - Esmeralda (ballet), ноты | PrimaNota.ru [https://primanota.ru/puni-chezare/esmeralda-ballet-sheets.htm#google\\_vignette](https://primanota.ru/puni-chezare/esmeralda-ballet-sheets.htm#google_vignette)
12. Роль музыки во Франции и роль Франции в музыке. <http://elibrary.ru/item.asp?id=32777352>

13. Сладкопеев Р., Ланщикова О. Национальная вокальная школа Франции, её развитие и влияние на оперное искусство // Вестник МГУКИ. 2013. №6 (56). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/natsionalnaya-vokalnaya-shkola-frantsii-eyo-razvitiye-i-vliyanie-na-opernoe-iskusstvo>
14. Стахевич А. Опера «Гугеноты» Дж. Мейербера в художественной культуре французского романтизма // [http://www.Ussr.to/Ukraine/grigori\\_schzenkin.htm](http://www.Ussr.to/Ukraine/grigori_schzenkin.htm) /
15. Турсунова Г. К вопросу исследования феномена музыкальных династий // Проблемы Науки. 2019. №4 (137). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-issledovaniya-fenomena-muzykalnyh-dinastiy> .
16. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси – QOMUS.INFO <https://qomus.info/>
17. ФРАНЦУЗСКАЯ КУЛЬТУРА В XIX ВЕКЕ <https://france.promotour.info/culture/culture-11.php>
18. Французская музыка [http://slovco.com/muzyikalnaya\\_entsiklopediya/page/frantsuzskaya\\_muzyika.7958/](http://slovco.com/muzyikalnaya_entsiklopediya/page/frantsuzskaya_muzyika.7958/)
19. Хрулева И. Бернардо Менгоцци и «Метод пения. . . » Парижской консерватории // Южно-Российский музыкальный альманах. 2016. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bernardo-mengotstsi-i-metod-peniya-parizhskoy-konservatorii>

## **MUNDARIJA**

### **KIRISH**

3

### **I-BOB**

**XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA FRANSIYA MADANIYATINING  
UMUMIY TAVSIFI**

6

### **II-BOB**

**XIX ASR BIRINCHI YARMI FRANSIYA MUSIQA SAN'ATI**

39

### **III-BOB**

**XIX ASR BIRINCHI YARMI FRANSIYA MUSIQA MADANIYATIDA  
G.BERLIOZ VA J.MEYERBERNING O'RNI VA AHAMIYATI**

86

### **XULOSA**

98

### **GLOSARIY**

100

### **TEST**

106

### **KROSSVORD**

110

### **KURS ISHI MAVZULARI**

112

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

114

**СОДЕРЖАНИЕ**

**ВВЕДЕНИЕ**

3

**ГЛАВА I**

**ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАНЦУЗСКОЙ КУЛЬТУРЫ ПЕРВОЙ  
ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА**

6

**ГЛАВА II**

**МУЗЫКАЛЬНОЕ ИСКУССТВО ФРАНЦИИ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX  
ВЕКА**

39

**ГЛАВА III**

**МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ Г.БЕРЛИОЗА И Ж.МЕЙЕРБЕРА В МУЗЫКАЛЬНОЙ  
КУЛЬТУРЕ ФРАНЦИИ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА**

86

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ**

98

**ГЛОССАРИЙ**

100

**ТЕСТ**

106

**КРОССВОРД**

110

**ТЕМЫ КУРСОВЫХ РАБОТ**

112

**СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ**

114

**CONTENT**  
**INTRODUCTION**

3

**CHAPTER I**

**GENERAL CHARACTERISTICS OF FRENCH CULTURE IN THE FIRST  
HALF OF THE 19TH CENTURY**

6

**CHAPTER II**

**MUSICAL ART OF FRANCE IN THE FIRST HALF OF THE 19TH CENTURY**

39

**CHAPTER III**

**THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF H.BERLIOZ AND J.MEYERBEER IN  
THE MUSICAL CULTURE OF FRANCE IN THE FIRST HALF OF THE 19TH  
CENTURY**

86

**CONCLUSION**

98

**GLOSSARY**

100

**TEST**

106

**CROSSWORD**

110

**TOPICS OF COURSE WORKS**

112

**BIBLIOGRAPHY**

114

**RAVSHANOY TURSUNOVA**

# **JAHON MUSIQA TARIXI**

60211000 – San’atshunoslik (musiqashunoslik) va barcha ta’lim  
yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan

Muharrir V. Hidoyatova

Musahhih H. Xo‘jayeva

Texnik moharrir V. Demchenko

Kompyuterda tayyorlovchi N. Tolipova

Bosishga ruxsat etildi 16.05.2024. Bichimi 60x84 1/8.

Times New Roman garniturasida. Sharhi b.t.15,75.

Adadi 100 dona

«TIPOGRAFF» bosmaxonasida chop qilindi.

Toshkent, Beruniy ko‘chasi 83 uy.